Durdona

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Ruziyev Davron Yuldashevich

KONSERT IJROCHILIGI ASOSLARI

2- KITOB: NAZARIY QISM

Respublika Oliy o‘quv yurtlari bakalavriatining **60211500** *— “Cholg‘u ijrochiligi(xalq cholg‘ulari)” yo‘nalishi talabalari uchun*

O‘QUV QO‘LLANMA

DURDONA

“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2024

www.nitropdf.com

Durdona

UO'K 78.082/.086(075.8)
85.315ya73
R 86
Ruziyev, D.Yu.
Konsert ijrochiligi asoslari (2- kitob: nazariy qism) [Matn] : o'quv qo'llanma / D.Yu. Ruziyev .-Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2024.-220 b.

KBK 85.315ya73

Ushbu o'quv qo'llanma Oliy ta'lim tizimi 60211500 - Cholg'u ijrochiligi (xalq cholg'ulari) yo'nalishining "Konsert ijrochiligi asoslari" fani bo'yicha tayorlangan bo'lib, shu yo'nalishning o'quv dasturi asosida tuzilgan. Unda Xalq cholg'ularida sifatli ovoz tarovatini hosil qilish ko'nikmalari, zarblar va ulardan musiqa asarlarini ijro etishda unumli foydalanish, musiqiy bezak(melizm)lar, asar mohiyatini yoritishda applikatura asoslari va pozitsiyalarning ahamiyati, mashq, gamma va etyudlarning ijro mahorati rivojidagi hissasi, musiqa asari ustida ishlashning o'ziga xos xususiyatlari, orkestr va ansambl asarlari ustida ishlash, nota matnini varaqdan ravon o'qish malakalarini rivojlantirish yo'llari, xalq cholg'ularida konsert-ijrochilik xislatlarining o'ziga xosligi, kasb bo'yicha muallim-ustoz va murabbiy, o'z ustida mustaqil ishlashning o'ziga xos xususiyatlari ifodalangan.

Mas'ul muharrir:
Baxtiyor Mustafoyev, BuxDU "Musiqa ijrochiligi va madaniyat" kafedrasi professori v.b., p.f.n.

Taqrizchilar:
To'xtasin Rajabov, BuxDU "Musiqa ijrochiligi va madaniyat" kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (DSc), professor
Botir Raximov, Urgench davlat universiteti dotsenti, s.f.f.d.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirigi Buxoro davlat universitetining 2024-yil 2-iyuldagi 452-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berildi. Ro'yxatga olish raqami 452-67.

ISBN 978-9910-04-908-8

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Bakalavr ta’lim standartlariga kiritilgan “Konsert ijrochiligi asoslari” fanini o‘qitishdan maqsad – talabalarga konsert ijrochiligi asoslari bo‘yicha ta’lim berish, o‘quv materiallarшni o‘rgatish, sahnada ijro etish madaniyatini rivojlantirishdan iborat.

Fanni o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar – talabalar konsert ijrochiligi asoslari haqida atroflicha bilimlarga ega bo‘lganliklarini namoyish etishlaridan iborat. Talabalar mazkur fan yordamida barcha ijrochilk qonun-qoidalarini egallshlari, nazariy bilimga ega bo‘lishlari, konsert ijrochiligi va sahna madaniyati borasidagi bilim va ko‘nikmalarni namoyish etishlari zarur.

O‘quv qo‘llanma uzluksiz ta’lim tizimi, musiqa ta’limining cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishi - Oliy o‘quv yurtlarining cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishi talabalari va dars beruvchi o‘qituvchilar, bolalar musiqa va san’at maktablari, ixtisoslashtirilgan san’at maktablarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan.

Целью преподавания предмета «Основы концертного исполнительства», включенного в образовательный стандарт бакалавриата, является обучение студентов основам концертного исполнительства, преподавание учебных материалов, развитие культуры выступления на сцене.

Задачи освоения предмета - показать, что студенты досконально владеют основами концертного исполнительства. С помощью этого предмета студентам необходимо освоить все законы исполнительства, приобрести теоретические знания, продемонстрировать знания и умения в концертном исполнительстве и сценической культуре.

Учебное пособие предназначен для учителей и студентов обучающего инструментального исполнительства в Высших учебных заведениях, а также для системы непрерывного музыкального образования в области инструментального исполнительства, в частности, для учителя работающих в детских музыкальных и специализированных школах искусств.

The purpose of teaching the subject "Fundamentals of concert performance", included in the educational standard of the bachelor's degree, is to teach students the basics of concert performance, teaching educational materials, developing a culture of performing on stage.

The objectives of mastering the subject are to show that students thoroughly master the basics of concert performance. With the help of this subject, students need to master all the laws of performance, acquire theoretical knowledge, demonstrate knowledge and skills in concert performance and stage culture.

The textbook is intended for teachers and students of teaching instrumental performance in higher educational institutions, as well as for the system of continuous musical education in the field of instrumental performance, in particular, for teachers working in children's music and specialized art schools.

Durdona

www.nitropdf.com

Durdona

MUALLİFDAN

Mazkur o‘quv qo‘llanma 60211500 - Cholg‘u ijrochiligi (xalq cholg‘ulari) yo‘nalishi talabalari ushun mo‘ljallangan bo‘lib, unda bo‘lg‘usi cholg‘u ijrochiligi sozandalarining “Konserty ijrochiligi asoslari” fani bo‘yicha egallashi zarur bo‘lgan nazariy bilim, malaka va ko‘nikmalar minimumi belgilab berilgan.

Talabalar Oliy ta’lim tizimida ta’sil olayotgan davrida xalq cholg‘ularida ijrochilik malakalarini takomillashtirib boradi, bilim malakalarga ega bo‘ladi. Kompozitorlar asarlarini mukammal darajada yoritib berishlari uchun ijro mahoratini yuqori darajada egallashlari, bo‘lajak mutaxassis sifatida konsert ijrochiligi asoslari haqida atroflicha bilimlarga ega bo‘lganliklarini namoyish etishlari, sahna madaniyatini puxta egallash ko‘nikmalarini ham o‘zlashtirib borishlari talab etiladi.

O‘quv qo‘llanma (2-kitob: Nazariy qism) besh qismdan iborat bo‘lib unda konsert ijrochiligi asoslari fanini o‘rganilishida tayaniladigan asosiy manbalar, mazkur fanning xalq cholg‘ularida o‘qitish uslubiyoti fanining mantiqiy davomi sifatida ekanligi, yuqori malakali mohir sozandalarni tayorlashda konsert ijrochiligi fanining ahamiyati, cholg‘ularda ijro holati (apparati), xalq cholg‘ularining ijrochilik imkoniyatlari va zarblar, cholg‘ularning sifatli ovoz tarovatiga ega bo‘lishi, zarblardan va mizrobdan to‘g‘ri hamda unumli foydalanish, cholg‘ularda yoqimli va sof ijroga erishish, ijro mahoratini egallash usullari, musiqiy bezak(melizm)lar va ularning turlari, o‘zbek an’anaviy musiqa ijrochiligiga xos bezaklar, applikatura va uning cholg‘u ijrochiligi san’atidagi ahamiyati, pozitsiyalar va ularning ijro mahoratini oshirishdagi roli, cholg‘uda chalish mahoratini o‘stirishda mashqlar, gamma va etyudlarning ahamiyati, ijrochining texnik mahoratini tarbiyalash muammolari, ijro etuvchi apparatlarning sifatlari, cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha texnik tayyorgarlik, musiqa asari ustida ishlasgning o‘ziga xosligi, ta’lim jarayonida sozandaning orkestr va ansambllarda ijro etishi mahorati, orkestr va ansambl sozandalarning hamkorlikda chalish malakalari va vazifalari jamoa ijrochiligida dirijyor faoliyati, konser dasturi namoyishida hayajonlanishning psixologik asoslari, mutaxassislik sinfida ta’lim va tarbiya,

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

o‘qituvchining muloqot san’ati va tashkilotchilik qobiliyati, o‘z ustida mustaqil ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanmaning maqsadi - Oliy o‘quv yurti talabalariga, ixtisoslashtirilgan musiqa san’ati maktablari, bolalar musiqa va san’at maktablari, badiiy jamoalarda konsret ijrochiligi asoslari bo‘yicha faoliyat yuritish usullarini o‘rgatish, o‘quv jarayonida Davlat ta’lim satandartlarida belgilangan normativlarni bajarilishini ta’minlash, konsert ijrochiligida zamonaviy prdagogik texnologiyalarni qo‘llash, faoliyatni amalga oshirishda, o‘qituvchi va talabaning musiqa ta’limi sohasi bo‘yicha izlanishga, o‘z ustida ishlashga undashdir.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

KİRİSH

San’atning ko‘plab turlari orasida musiqa insonni estetik va badiiy tarbiyalashda haqli ravishda alohida o‘rin tutadi. Insonni musiqiy dunoqarashini rivojida musiqa asboblarining roli beqiyos. Musiqa asboblarida chalish musiqiy-sezgi qobiliyatlarini rivojlantirish, musiqa tovushlarining turli xil xususiyatlari va ularning kombinatsiyalarini diqqat bilan tinglashga yordam beradi. Musiqa asari mazmun-mohiyatini ma’lum fazoviy tushunchalar bilan bog‘laydi. Musiqiy faoliyat jarayonida cholg‘u ijrochisida ohang, ritm tuyg‘usi, dinamika va musiqiy xotira rivojlanadi. Musiqa cholg‘usida ijro etish sozandaning estetik didini shakllantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, ijodiy faolligini rivojlantiradi, musiqa va umuman san’atga yanada mehr uyg‘otadi.

Oliy ta’lim tizimida o‘qitiladigan “Konsert ijrochiligi asoslari” fani o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib cholg‘u asboblari bo‘yicha ta’lim oladigan bo‘lajak mutaxassislarni kelajakdagi faoliyatiga muhim ahamiyat kasb etadi. Konsert badiiy faoliyatning o‘ziga xos shakli sifatida uni boshqa turlaridan ajratib turadigan yana bir qator xususiyatlari mavjud. Jumladan, kontsert - bu ijodkorlik, qolaversa, tomoshabinlar oldida to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ayni paytda ijro etiladigan o‘ziga xosdir. Kontsert davomida yo‘l qo‘yilgan xatoni tuzatib bo‘lmaydi, zero sahnada ijroviy xatolikka yo‘l qo‘yilishining asosiy sababalaridan biri sozanda tomonidan asarni yaxshi o‘zlashtira olmaganlik, shuningdek, ko‘p hollarda psixologik stressning sodir bo‘lishidir. Shunga ko‘ra aytish joizki, asar ustida qunt bilan ishlash va mukammal o‘zlashtirib olish zarurligini unutmaslik kerak. Musiqa asarini mukammal o‘zlashtirib olish nafaqat kontsertga darhol tayyorgarlik ko‘rish paytida, balki musiqiy ish bo‘yicha barcha dastlabki ishlarda ham amalga oshirilishi kerak. Ijrochining o‘zi ham, uning o‘qituvchisi ham sahnada fikrlash va xatti-harakatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, bevosita kontsert tomoshasiga qaratilgan kompozitsiyaning maxsus ijro etuvchi shaklini yaratish haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak.

Yuqori badiiy maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish va umuman ijrochi musiqachining professional rivojlanishi uchun zarurdir. Konsert paytida ijrochining farovonligiga nafaqat stress holatining umumiy

www.nitropdf.com

Durdona

psixofiziologik jihatlari, balki musiqa asarini talqin qilishning chuqurligi, ifodaliligi va yaxlitligiga erishish qiyinligi bilan bog‘liq badiiy va ijodiy omillar ham ta’sir qiladi. Ijroning yuqori aniqligi va barqarorligiga erishish, asar ijrosidagi harakatlarning badiiyligi va virtuozligi, shuningdek, tomoshabinga faol badiiy ta’sir ko‘rsatishning asosiy vazifasi bilan tavsiflanadi.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada konsert ijrochiligi asoslariga bevosita tegishli materiallar - xalq cholg‘ularida sifatli ovoz tarovatini hosil qilish ko‘nikmalari, zarblar va ulardan musiqa asarlarini ijro etishda unumli foydalanish musiqiy bezak(melizm)lar, asar mohiyatini yoritishda applikatura asoslari va pozitsiyalarning ahamiyati, mashq, gamma va etyudlarning ijro mahorati rivojidagi hissasi, musiqa asari ustida ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari, orkestr va ansambl asarlari ustida ishlash, nota matnini varaqdan ravon o‘qish malakalarini rivojlantirish yo‘llari, xalq cholg‘ularida konsert-ijrochilik xislatlarining o‘ziga xosligi, kasb bo‘yicha muallim-ustoz va murabbiy, o‘z ustida mustaqil ishlashning o‘ziga xos xususiyatlariga oid nazariy materiallar taqdim etilgan.

O‘quv qo‘llanmada, shuningdek, talabalarni har tomonlama yetuk sozanda-ijrochi sifatida shakllanishida umumiy fanlar bo‘yicha ularda bilim, malaka, ko‘nikma hosil qilishda interfaol ta’lim turlaridan foydalanish nazarda tutilgan.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

BIRINCHI BO‘LIM.

Konsert ijrochiligi asoslari fanini o‘rganilishida tayaniladigan asosiy manbalar

O‘zbek xalqining musiqa madaniyati tarixiy taraqqiyot davomida xalq musiqasi, an’anaviy kasbiy musiqa, ansambl, bastakorlik va folklor shaklan va usluban bir-birini to‘ldirib borgan. An’anaviy cholg‘u ijrochiligi, jumladan cholg‘u asboblarida chalishni ustoz-shogird tizimi orqali o‘rganish, ansambl ijrochiligi singari shakllar xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog‘liq holda paydo bo‘lgan hamda rivojlanib kelgan qadimiy san’at turlaridan hisoblanadi. Yozma manbalarda yozilishicha milliy cholg‘ular turli shakllarda o‘ziga xos xususiyatlari va rang-barang ijrochilik san’ati bilan asrlar osha taraqqiy etgan. Milliy cholg‘ularda ijrochilik san’tini ta’minlashda sozgarlar va sozandalarning xizmatlari beqiyos bo‘lgan. O‘z davrining buyuk allomalari Al-Forobiy «Katta musiqa kitobi»da, Ibn Sinoning “Davolash kitobi”, deb nomlangan yirik qomusining “Musiqa haqida risola” bobida, Safiuddin Urmaviyning “Taqvodorlik kitobi”da, shuningdek, Abdulqodir Marog‘iyning «Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy», Ahmadiyning «Sozlar munozarasi», Zaynullobiddin Husayniyning «Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy», Abdurahmon Jomiyning «Musiqiy risola», Darvesh Ali Changiyning «Musiqiy risola» kabi asarlarida musiqa cholg‘ularining nafaqat nazariy tomonlari, balki ularning ijrosi bilam bog‘liq masalalari ham yoritib berilgan. XX asrlarga kelib A.Fitrat, G‘.Zafariy, V.Belyayev, V.Uspenskiy, T.Romanovskaya, I.Rajabov kabi olimlar musiqiy cholg‘ularni o‘rganish xususida samarali harakatlarni amalga oshirganlar. Cholg‘u ijrochiligining milliylik, badiiy barkamollik, o‘ziga xoslik, mazmundorlik, ta’sirchanlik kabi fazilatlari musiqa san’ati olamida hamisha qadrlanib kelingan.

Ma’lumki, konsert (it. *concerto, lot. concertate* - musobaqalashmoq*)* ijrochiligi o‘tmishdagi ustozlarning ijodiy merosi sifatida bugungi kunda ham yosh avlod vakillari tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Tarixiy manbalar shundan dalolat beradiki, konsert ijrochiligining teran boqiyligini bir qancha oldinroq o‘tgan ustozlar va keyingi avlod ijrochilari: Ota Jalol Nosirov, Ota G‘iyos Abdug‘aniyev, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To‘ychi

www.nitropdf.com

Durdona

Toshmuhamedov, Shorahim Shoumarov, Matyusuf Xarratov, Matpano Xudoyberganov, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Yunus Rajabiy, Domla Halim Ibodov, Usta Olim Komilov, Mamadbuva Sattorov, Jo‘raxon Sultonov, To‘xtasin Jalilov, Safo Mug‘anniy, Xojixon Boltayev, Nurmuhammad Boltayev, Ma’murjon Uzoqov, Faxriddin Sodiqov, Komiljon Jabborov, Imomjon Ikromov, G‘anijon Toshmatov, Saidjon Kalonov, Nabijon Hasanov, Muxtorjon Murtazoyev, Doni Zokirov, Komiljon Otaniyozov, Matniyoz Yusupov, Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliyev, Rasulqori Mamadaliyev, Nematjon Qulabdullayev, Turg‘un Alimatov, G‘ulomjon Hojiqulov va boshqalar misolida ko‘rish mumkin. Bu ustozlarning ba’zilari xonanda bo‘lgan, albatta. Lekin ularning cholg‘uchilik borasida ham salmoqli xizmatlari bor.

Konsert ijrochiligi musiqa madaniyatimiz singari juda qadimiy, betakror va noyob an’analarga ega bo‘lsada, zamona zayli bilan yanada rivoj topib rang-barang kuy va qo‘shiqlar bilan yanada boyib bormoqda.

Bo‘lajak sozandaning kasbiy tayorgarligi, konsert ijrochilik asoslari masalalariga oid mahoratga ega bo‘lishida Oliy ta’lim muassasasi asosiy bosqich vazifasini o‘taydi. Chunki cholg‘u asboblarida chalish mahoratini o‘stirishning ilmiy hamda amaliy negizi ularda o‘z vaqtida shakllantirilib mustahkamlanmasa, uni Oliy o‘quv yurtidan keyingi ish faoliyatida kashf etishi har doim ham o‘z-o‘zidan barpo bo‘lavyermaydi. Oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak sozandalada konsert ijrochilik mahorati, ijodiy qobiliyatini shakllantirish g‘oyasi yetakchi o‘rinda bo‘lishi lozim. Yuksak mahoratli sozandaning shakllantirish yo‘nalishiga o‘z mutaxassisligi bo‘yicha, shuningdek, konsert ijrochiligi bo‘yicha puxta tayorgarlik, metodologik bilimlarni egallash madaniyati bilan birga pedagogik ijodkorlik, tashkilotchilik ham kiradi. Ijodkor mutaxassis o‘z sohasi bo‘yicha yangicha pedagogik texnologiya metodikasini ajrata olishi, konsert ijrochiligi mahoratiga ega bo‘lishi kerak, albatta. Konsert ijrochiligi asoslariga oid mashg‘ulotlarni qiziqarli shakllarda tashkil etish hamda musiqa asari ijrochisi bilan ishlash faoliyatini uslubiy jihatdan to‘g‘ri boshqarishi ijodiy ishlar samarasini oshiradi. Shuning uchun ham fanni o‘qitish jarayonida Davlat ta’lim standartlari talablariga rioya qilish va belgilanga vazifalarni o‘z vaqtida bajarib borishga alohida e’tibor berish kerak.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Fan o‘rganilishida tayaniladigan asosiy manbalar mavjud bo‘lib ularga misol: Yuqorida qayd etib o‘tilgan Sharq allomalari (Farobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, Darvesh Ali Changiy va boshqalar) asarlari, “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi”(A.Fitrat, 1993 y.), “Ozbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi”(A.Odilov, 1995 y.), “Ozbek xalq cholg‘ularida ijrochilik san’ati tarixi”(A.Lutfullayev, 2006 y.),”Cholg‘u ijrochiligi” (M.Ilhomov, 2010 y.), ”Doyra darsligi” (O.Kamolxo‘jayev, 2011 y.), “Cholg‘u ijrochiligiga o‘rgatish metodikasi” (Sh.Rahimov 2012 y.), “Cholg‘u ijrochiligi” (Sh.Rahimov, Sh.Yusupov), “Cholg‘u ansambli” (Sh.Rahimov, A.Saidov 2012 y.), “An’anaviy g‘ijjak ijrochiligi” (Q.Umarov, 2014 y.), “Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholg‘ulari orkestri” (A.Toshmatova 2015 y.), “Xalq cholg‘ulada ijrochik” (O.Nazarov, 2016 y.), “So‘g‘diyona davlat xalq cholg‘ulari kamer orkestri” (A.Toshmatova “Tafakkur qanoti”, 2016.), “Ijrochilik san’ati tarixi”. Darslik. (A.Toshmatova, 2017 y.), “G‘ijjak uchun duetlar”(O.Nazarov, 2017 y.), “Ansambl sinfi”(A.Mamadaliyev, 2017 y.), “Ijrochilik san’ati tarixi”. O‘quv qo‘llanma. (A.Toshmatova, 2018 y.), “Ansambl sinfi”(Z.Turapov, 2019 y.), “An’anaviy ijrochilikda o‘qitish uslubiyoti”(M.Matyakubov, 2019 y.), “Cholg‘u ijrochiligi va ansambl” (S.Do‘stov, 2019 y.), “Cholg‘u ijrochiligi va ansambl” (O.Karimov 2019 y.), “Orkestr ijrochiligi” (D.Ruziyev, 2020 y.), “Ansambl ijrochiligi” (D.Ruziyev, 2021 y.), “Ansambl bilan ishlash uslubiyoti”. Darslik. (D.Ruziyev, 2021 y.) va boshqa darslik hamda o‘quv qo‘llanmalar.

“Konsert ijrochiligi asoslari” ixtisoslik fani hisoblanadi. Shunga ko‘ra uning cholg‘u ijrochiligi tizimidagi barcha muassasalarda yoshlarga sozandalikning sirlarini o‘rganishda nimalarga e’tibor qaratmoq kerakligini, uslubiy tavsiyalarni berishdan iboratligini nazarda tutmoq kerak.

“Konsert ijrochiligi asoslari” fani boshqa kasbiy fanlar bilan chambarchas bog‘liqlikda va ularga tayanilgan holda o‘qitiladi. Jumladan, o‘quv rejada belgilangan xalq cholg‘ularida ijrochilik, ansambl sinfi, xalq kuylarini notalashtirish, ijrochilik san’ati tarixi, xalq cholg‘ularini o‘qitish uslubiyoti, o‘zbek va Sharq xalqlari musiqasi tarixi, musiqa asarlari tahlili, musiqiy pedagogika va psixologiya, pedagogik amaliyot kabi fan mashg‘ulotlarida talabalar konsert ijrochiligi bilan shug‘ullanishga doir bilimlarni egallab olish

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

imkoniyatiga ega. Ushbu umumkasbiy hamda ixtisoslik fanlarida uchraydigan amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish konsert ijrochiligi asoslarini puxta shaklanishiga zamin yaratadi.

Nazorat uchun savollar:

1. O‘zbek xalq cholg‘ulari ijrojiligi tarixiga oid qanday manbalar yaratilgan?.
2. Konsert ijrochiligi asoslari fani qanday asosiy manbalarga tayangan holda o‘qitiladi?.
3. Cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha bo‘lajak mutaxassislar qanday qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerak?.
4. Konsert ijrochiligi asoslari fani asosan qaysi fanlar integratsiyasi asosida o‘qitiladi?.
5. Nima uchun Oliy ta’lim muassasasi konsert ijrochiligi bo‘yicha asosiy bosqich vazifasini o‘taydi?.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Cholg‘u asbobida ijro etish usullarini o‘zlashtirib oling.
2. Konsert ijrochilik asoslari fanining tarixi rivojlanish jarayonlarini o‘rganing.
3. Ijodkor mutaxassis o‘z sohasi bo‘yicha yangicha pedagogik texnologiya metodikasini ajrata olish mahorati nimalarda ekanligini o‘rganing.
4. Nima uchun “Konsert ijrochiligi asoslari” fani ixtisoslik fani hisoblanishini tahlil qiling.

Tayanch iboralar: an’anaviy cholg‘u ijrochiligi, tarixiy yozma manbalar, konsert ijrochiligi, mahoratli sozanda, ijodiy qobiliyat, bilim, Davlat ta’lim standarti.

Konsert ijrochiligi asoslari xalq cholg‘ularida o‘qitish uslubiyoti fanining mantiqiy davomi sifatida

Konsert ijrochiligi asoslari fani maqsadi va vazifalariga ko‘ra bevosita xalq cholg‘ularida o‘qitish uslubiyoti fanining mantiqiy davomidir. Gap shundaki, har ikkala fan o‘zining xususiyatlariga ko‘ra bir-biriga bog‘liq va biri ikkinchisini mazmunan boyitib, to‘ldirib boradi. Talabalarga xalq cholg‘ularida o‘qitish uslubiyoti fanini o‘qitishdan maqsad shundan iboratki, ular o‘qish davomida cholg‘ularda ijro etish apparati, tovush hosil qilish vositalari va

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

imkoniyatlari, zarblar va ularning turlari, musiqiy bezaklar, pozitsiya(lot. position - vaziyat) – ya'ni cholg'u asboblarida ijro etishda o'ng va chap qo'llar vaziyati, holati, applikatura(nem. applicatur, lot. applico – qo'ymoq, bosmoq), ya'ni musiqa cholg'u asboblarini ijro qilganda barmoqlarni to'g'ri qo'yish va almashtirish tartibi asoslari haqida atroflicha ma'lumotga ega qildirish, ularni o'rganish va o'zlashtirishdan iborat. Xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti fani shuningdek, kompozitorlar asarlari, xalq kuylari va qo'shiqlarini cholg'ularda mukammal darajada yoritib berishni va buning uchun ijro mahoratini egallab olish bo'yicha talabalarga bilim berishni nazarda tutadi. Bo'lajak mutaxassis ushbu fanni o'zlashtirib borishi jarayonida ijroviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti fanini o'zlashtirish vazifasi shundan iboratki, talabalarga turli yo'nalshlarda bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lganliklarini amalda namoyish etishga o'rgatidshdan iborat. Amaliy jarayon esa talabalarning sahnada, tomoshabin ko'z oldida ijroviy mahorat, texnikani ko'rsata bilishdir. Demak, talabalar xalq cholg'ularida o'qishi jarayonida barcha ijrochilik qonun-qoidalarini egallauydilar, nazariy va amaliy bilimga ega bo'ladilar, o'z mutaxassisliklari bo'yicha turli janr va shakllarda yaratilgan asarlarni ijro eta olish, ijrochilik nuqtai nazardan tahlil qilish borasidagi bilim va ko'nikmalarni namoyish etish mahoratini egallaydilar.

Xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti fani konsert ijrochiligi asoslari fanini mazmun-mohiyatini, cholg'ularda ijro etish metodikasini o'rgatadi. Jumladan, talaba konsert ijrochiligi asoslari faniga tegishli quyidagi bilimlarni xalq cholg'ularida o'qishi jarayonida o'zlashtirib oladi:

- xalq cholg'ularining ijrochilik imkoniyatlari va zarblarni;
- damli cholg'ular(nay, qo'shnay)da sifatli ovoz tarovatiga ega bo'lishni;
- torli-urma va chertma (chang, qonun) cholg'ularda zarblardan unumli foydalanishni;
- torli-mizrobli cholg'ularda zarblarni ijro etganda mizrobdan to'g'ri foydalanishni;
- torli-chertma (plektr) cholg'ularda mayin va sifatli ovoz tarovatiga erishish usullarini;
- torli-kamonli cholg'ularda yoqimli va sof ijro etishni;

www.nitropdf.com

Durdona

- zarbli cholg‘ularda ifodali ovoz tarovatiga erishish va rang-barang usullarni ijro etish mahoratini egallaydilar.

Konsert ijrochiligi asoslarini tashkil etuvchi quyidagi omillar: musiqiy bezaklar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, forshlag, qo‘sh forshlag, naxshlag, trel, mordent, kashish va boshqa melizmlar haqida nazariy hamda amaliy tushunchalar ham xalq cholg‘ularida o‘qish jarayonida shakllanadi. Musiqiy bezaklarni mukammal o‘rganib olish konsert faoliyatining mazmuniga ynada mazmun qo‘shadi. Ta’kidlab o‘tilganidek, asar mohiyatini yoritisda appllikatura asoslari hamda pozitsiyalarni o‘zlashtirib olinganligi konsert ijrochiligida muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq cholg‘ularida turli mashq, gamma va etyudlarning ijro etilishi esa talabaning texnik mahoratini o‘stiradi. Musiqa asarlari ustida ishlashning o‘ziga xos xususiatlari, ularning umumiy tomonlarining mavjudligi hamda bosqichlarga taqsimlanganlik jihatlarini o‘rganib olishlik ham konsert ijrochiligining muhim asoslaridan hisoblanadi.

Konsert ijrochiligi fanining xalq cholg‘uarida o‘qitish uslubiyoti fani bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jihatlaridan yana biri bu, musiqiy eshitish qobiliyati, xotira va usul sezgisining darslar jarayonida shakllantirib borilishidir. Cholg‘u asboblarida ijrochilik jarayonida sozandaning barmoqlar harakati, o‘ng qo‘l panjasining bajaradigan vazifasi, mizrob, noxun va kamon bilan chambarchas bog‘liq holda uning musiqiy eshitish qobiliyati ham faol ishtirokchi sifatida shakllanib boradi. Sozandaning umumiy qobiliyatining yetakchi omillaridan biri – musiqiy eshitish qobiliyatining qay darajada rivojlanganligidir. Shu bois, o‘qituvchi darslar davomida talabaning ijro etayotgan asar mazmun-mohiyatini, tovushlar vositasidan ifodalanayotgan musiqiy obrazlarni his etishi va chuqur eshitishga o‘rgatib borishi konsert ijrochiligida muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabaning ijro etayotgan asar mazmun-mohiyatini, tovushlar vositasidan ifodalanayotgan musiqiy obrazlarni his etishi ko‘p jihatdan cholg‘u asbobida barmoqlar harakatining to‘g‘ri ifodalab borishga, puflama cholg‘uda tilning bajaradigan vazifasini oldindan his etib, lab va hafas organlari ishi bilan bevosita chambarchas bog‘lash, ularning bir-biriga munosib keladigan umumiy ijrochilik apparatini harakatga keltirish va ijro jarayonini amalga oshirishdir.

Ma’lumki, talaba qancha mehnat qilmasin, mehnatining asosiy mahsuli sahnadagi ijrosiga qarab baholanadi. Talaba asarni konsert

www.nitropdf.com

Durdona

(imtihon)dan oldin yod olishi, o‘zi uni yuqori saviyada ijro etishi uchun jismoniy va ruhiy jihatdan tayor bo‘lishi kerak. Sahnadagi chiqishlar hamma vaqt ham ko‘ngildagidek bo‘lavermaydi. Buning asosiy sabablaridan biri bo‘lgan sahna hayajoni va uning quyidagi kamchiliklari tufayli kelub chiqishi mumkin:

- tajribaning yetishmasligi;
- ba’zi muvoffaqiyatsiz chiqishlar;
- chalinadigan asar(kuy)ning yetarli darajada tayyor emasligi;
- cholg‘uning nosozligi va boshqa sabablarga ko‘ra sahna hayajoni ijrochi ishiga putur yetkazishi mumkin.

Xalq cholgularida o‘qitish uslubiyoti fani talabaning o‘z cholg‘usiga ko‘nikish holatining umumiy vazfasini o‘rgatadi. Bu jihat konsert ijrochiligi asosining ham muhim tomonlaridan biri hisoblanadi. Zero, talabaning tavsiya quilingan xalq cholg‘usiga ko‘nikish hosil qilishi murakkab jismoniy va ruhiy jarayon bo‘lib, bunda har bir talabaga mustaqil yondashish talab etiladi. Ta’limning dastlabki mashg‘ulotlaridan boshlab talaba gavdasiga mos tushadigan cholg‘uni tanlash juda muhim hisoblanadi. Shunday holatlar bo‘ladiki, gavdasi yirik(katta) talaba rubob prima yoki dutor primada chalishda qiyinchilikka duch keladi. Bunday holatni teskarisiga misol qilib gavdasi(jussasi) kichik, barmoqlari o‘ta nozik talabaga afg‘on rubobi yoki dutor bas, doyra kabi cholg‘ular chaldiriladi. To‘g‘ri tanlangan cholg‘u keying muvofaqiyatlar garovi bo‘lib, uni to‘g‘ri ushlash va ijro holati paytida butun tana a’zolari, mushaklarini erkin tutish va doimo ustoz nazorati ostida bo‘lishi zarur. Bu davrda talabalarda yengil va bemalol chalishga ruhiy ko‘nikmalar hosil qilish mumkin bo‘ladi. Darslar jarayonida bosh, gavda, qo‘l va oyoqlarni erkin tutish, o‘tirib chalgan paytda oyoqlarni chalishtirmaslik malakalari singdirilisi lozim. Shunday holatlar ustida qilingan ishlar konsert faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman, konsert ijrochiligi asoslari xalq cholg‘ularida o‘qitish uslubiyoti fanining mantiqiy davomi sifatida talabalarning ijrochilik mahoratini o‘sishiga, sozandalik madaniyatini shakllanishiga yordam beradi.

Nazorat uchun savollar:

www.nitropdf.com

Durdona

1. Talaba konsert ijrochiligi asoslari faniga tegishli qanday bilimlarni xalq cholg‘ularida o‘qishi jarayonida o‘zlashtirib oladi?.

2. Konsert ijrochiligi asoslarini tashkil etuvchi qanday omillar xalq cholg‘ularida o‘qish jarayonida shakllanadi?.

3. Sahna hayajoni va uning kamchiliklari nima sababli kelub chiqishi mumkin?.

4. Qanday sababalarga ko‘ra sahnadagi chiqishlar hamma vaqt ham ko‘ngildagidek bo‘lmasligi mumkin?.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Konsert ijrochiligi asoslari fani xalq cholg‘ularida o‘qitish uslubiyoti fanining mantiqiy davomi ekanligini o‘rganing.

2. Konsert ijrochiligi fanining xalq cholg‘uarida o‘qitish uslubiyoti fani bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlarini o‘rganing.

3. Sozandaning musiqiy eshitish qobiliyatining rivojlantirish shakl va usullarini o‘rganing.

4. Nimalar sozandaning umumiy qobiliyatining yetakchi omili ekanligini izohlab bering.

Tayanch iboralar: Konsert ijrochiligi, xalq cholg‘ularida o‘qish, mantiqiy bog‘liqlik, musiqiy bezaklar, sahnadagi chiqishlar.

Yuqori malakali mohir sozandalarni tayorlashda konsert ijrochiligi fanining ahamiyati

Ijrochining barcha faoliyati musiqa asarini o‘zlashtirishga qaratilgan va tinglovchiga mo‘ljallangan uzoq muddatli ishdir. Shu jihatdan qaraganda, konsert ijrochiligi fani sozandalarni mohir, malakali tarbiyalanishida muhim rol o‘ynaydi. Sozanda tomonidan ijro etilgan asarning haqiqiy g‘oyasi, mazmun-mohiyatidagi estetik go‘zallikning borligi tinglovchi ongiga singdiriladi va qadrlanadi. Shunga ko‘ra aytish mumkinki, ijrochi va tinglovchi o‘rtasidagi muloqot musiqa san’ati mavjudligining zaruriy shartidir. "Muloqotning asosiy shakli - konsert ijrosi bo‘lib, unda ijrochi va tomoshabin o‘rtasida bevosita aloqa amalga oshiriladi"[1].

Yuqori malakali mohir sozandalarni tarbiyalash, kamol toptirish asosiga ega bo‘lgan konsert ijrochiligi jamiyatda sahna san’ati mavjudligining universal, ya’ni badiiy muloqot shaklidir. Lotin tilidan

[1] Готсдинер А.Л. Музыкальная психология. М.: 1993. Стр.130.

www.nitropdf.com

Durdona

tarjimada aloqa(communication), uzatish degan ma’noni anglatadi. Muloqot "ijtimoiy o‘zaro ta’sirning ma’noli va ideal - mazmunli tomoni", deb ta’riflanadi.

Konsert ijrochiligi fanining xususiyatli ahamiyati shundaki, u mashhur musiqiy kommunikativ uchligi: “bastakor – ijrochi – tinglovchi” uchligini birlashtirishni nazarda tutadi. Zero, ularning muloqot predmeti – musiqa asaridir. Musiqiy san’atning boshqa san’at turlaridan asosiy farqi shundaki, badiiy ijodning uch turi - bastalash, ijro etish, tinglash mavjud. Bastakor musiqa asarini yaratadi. Notani haqiqiy tovush shakliga tarjima qilish ijrochi tomonidan amalga oshiriladi, buning uchun tegishli ijodiy harakatlar amalga oshiriladi va shundan keyingina musiqa asari tinglovchining idroki mavzusiga aylanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ijrochi ushbu aloqa zanjirida muhim rol o‘ynaydi. U "kommunikator", ya’ni birinchi navbatda tomoshabinlar bilan muloqot qilishga intiladigan ijrochiga aylanadi. Chunki “musiqiy matn va undagi badiiy ma’lumotlarni tinglovchilarga yetkazish va shu asosda ijodkor va qabul qiluvchi o‘rtasidagi badiiy muloqot jarayonini tashkil etish musiqiy asarga hayot baxsh etadi, uni haqiqatga aylantiradi”.

“Kommunikator” atama sifatida kanadalik pianinochi G.Guld tomonidan boshqa yirik pianinochi, musiqachi-ijrochi S.Rixterga nisbatan kiritilgan. Aynan konsert shakli ijrochi va tomoshabin o‘rtasidagi munosabatlarni, "ma’lumot almashishni" ta’minlaydi, ularning munosabatlaridagi ko‘plab nuanslarni aniqlaydi, aloqa zanjiri faoliyatining samaradorligini tasdiqlaydi. Shunday qilib, muloqot sifatida musiqiy ijroni - "badiiy ma’lumotni, shu jumladan bastakorning niyatini tomoshabinga yetkazish va keyinchalik u bilan qayta aloqa o‘rnatish"[2], deb ta’riflash mumkin.

Konsertda ijrochi tinglovchi bilan muloqot qilish va unga asarni o‘qishini, o‘z talqini faoliyati natijalarini yetkazish istagi natijasida hosil bo‘lgan alohida ijodiy holatga ega. Konsertning vaziyati ijrochining maksimal energiya ohangiga va ijodiy impulslarning ortib borishiga, haqiqiy ilhomlanish holatiga kirishga imkon beradi. “Keyin barcha intellektual va jismoniy kuchlar integral, yaxlit harakat qilib,

[2] Lukyanova E.P. Kamer ansambli sinfida musiqachi - ijrochining professional va kommunikativ fazilatlarini shakllantirish. Monografiya. M. P. Mussorgskiy nomidagi Ural davlati konservatoriyasi. Yekaterinburg, 2007, 123 bet.

www.nitropdf.com

Durdona

inson uchun o‘zini namoyon qilishning cheksiz imkoniyatlarini ochib beradi, bu esa san’at asarini chinakam badiiy kashfiyotning mutlaqo o‘ziga xos nuri bilan yoritadi”[3].

Konsert ijrosi - ijrochining omma oldida musiqiy faoliyatining alohida shaklidir. Bu bajarilgan ishning o‘ziga xos natijasi bo‘lib, ayni paytda ijrochida jasorat va irodani uyg‘otadi, uning chidamliligini, ijodiy tasavvurni, artistlikni tarbiyalaydi. Muvaffaqiyatli ishlash uchun: qiziqish, g‘ayrat, ilhom, qat'iyat, ishonch kabi eng muhimi psixologik holatlar ahamiyatli bo‘ladi.

Robert Shuman ijrochining muvaffaqiyatli chiqishiga ko‘plab omillar va shart-sharoitlar ta’sir qilishini ta’kidladi: “Bir o‘ylab ko‘ring-chi, butun obro‘-e’tibori va go‘zal, ulug‘vorligi bilan namoyon bo‘lishi uchun qancha shartlar birlashtirilishi kerak! Buning uchun bizga kerak: 1) tushunchaning kengligi va teranligi, asarning g‘oyaviy intilishi; 2) ilhomlantirilgan timsol; 3) ijroning texnik mukammalligi - go‘yo bir jondan paydo bo‘ladigan uyg‘un samara; 4) ma’lum bir lahza uchun eng qulay kayfiyatni ifodalash va idrok etishga bo‘lgan ichki ehtiyoj (ikkala tomondan - tomoshabin va rassom tomonidan); 5) vaqt sharoitlari, shuningdek, joy va boshqa tasodifiy holatlarning eng baxtli kombinatsiyasi; 6) taassurotlarni, his-tuyg‘ularni, qarashlarni, san’at tomonidan berilgan quvonchni boshqa odamning nigohida aks ettirish qobiliyati ".

Yu.A.Tsagarelli musiqachi-ijrochi faoliyatida o‘ziga xos maqsad va unga erishish yo‘llari bo‘lgan konsert tomoshasini alohida bosqich sifatida ajratib ko‘rsatadi. Uning fikricha, “konsert ijrochiligi musiqa asaridagi barcha ishlarning natijasi va kulminatsiyasi bo‘lib, uning maqsadi asar mazmunini tomoshabinlarga yetkazishdir”. Ushbu maqsadga erishishga: konsert oldidan musiqachi-ijrochining o‘zini o‘zi sozlashi, vaziyat, holatni hisobga olgan holda ijroni tartibga solishi, tinglovchilarning ijroga munosabati, ularning ekstremal sharoitlarda o‘ziga xos psixologik holatni asosiy omillar sifatida e’tirof etadi[4].

Konsert ijrochiligining o‘ziga xos qonuniyatlari borki, ular nafaqat konsertga bevosita tayyorgarlik ko‘rish jarayonida, balki musiqa asari ustidagi barcha dastlabki ishlarda ham hisobga olinishi kerak. Sahnadagi fikrlash va xulq-atvorning o‘ziga xos xususiyatlari,

[3] Григорьев В.Ю. Исполнитель и эстрада. М.: Классика - XXI, 2006. с. 19.

[4] Цыпин Г.М. Сценическое волнение и другие аспекты психологии исполнительской деятельности. М.: Музыка, 2010. 128 с.

www.nitropdf.com

Durdona

konsert ijrosi davomida kompozitsiyaning maxsus ijro etuvchi shaklini yaratish haqida ham, ijrochilarning o‘zlari ham, ularning ustozlari ham bilish kerak. Bu xususiyatlarni tushunish yuksak badiiy maqsadlarga muvaffaqiyatli erishishga va umuman musiqachi-ijrochining kasbiy rivojlanishiga olib keladi.

Konsert ijrochiligi musiqachining barcha professional muhim fazilatlarini safarbar qiladi, undan to‘liq hissiy, intellektual va jismoniy fidoyilikni talab qiladi. Tayyorgarlik bosqichidan farqli o‘laroq, bu yerda faoliyatning yangi shartlari: oshkoralik va natija, ijrochining stressga chidamliligi uchun yangi qo‘shimcha talablar paydo bo‘ladi. Konsert paytida ijrochining farovonligiga turli xil omillar ta’sir qiladi: stressning umumiy psixofiziologik qonuniyatlari, badiiy va ijodiy, talqinning chuqurligi va yaxlitligiga erishishning ifodaliligi va murakkabligi, ijroda yuqori professionallikka bo‘lgan ehtiyoj, badiiy mahorat, mohirlik. Konsert ijrochiligining asosiy vazifasi tinglovchi, eshituvchilarga faol ta’sir ko‘rsatishdir.

Talaba uchun konsert ijrochiligining qiyinligi mustaqil ta’lim sharoitida, o‘qituvchi bilan mashg‘ulotlar paytida va konsertda chalish paytidagi ijro holatining tubdan farq qilishidir. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, ijrochi, asosiy maqsad intilishlari bilan bir-biridan farq qiladigan uch xil - badiiy, psixofiziologik, ijtimoiy-faollik, estetik, akustik sharoitda bo‘ladi.

Shunday qilib, konsert holati ijro jarayonini murakkablashtiradi. Faoliyatni boshqarishning intuitiv tuzilmalari, ongsiz, lekin ilgari ishlab chiqilgan jarayonlar va komplekslar, ular yordamida ishni bajarishning avval yaratilgan maxsus shakli ishlab chiqiladi. Konsert holatini barqarorlashtirishda chiqishlarning muntazamligi muhim rol o‘ynaydi. "Keyin har bir oldingi konsertda paydo bo‘lgan hayajon ketishga ko‘p vaqt olmaydi, lekin go‘yo yashirincha xotirada yetarlicha mos shaklda qoladi."[5]

D.Oystrax shunday deb yozgan edi: “Agar siz oyiga ikki martadan kamroq chalsangiz, hech qanday asab toqat qilmaydi. Ijro qiluvchi kabi his qilish va hayajon haqida emas, balki musiqa haqida o‘ylash uchun siz ko‘p chalishingiz, bir qator konsertlar berishingiz kerak, aks holda

[5] Григорьев В.Ю. Исполнитель и эстрада. М.: Классика - XXI, 2006. С. 21.

www.nitropdf.com

Durdona

tinglovchi bilan va hatto sahnada bo‘lishi kerak bo‘lgan asbobning o‘ziga xos tuyg‘usi bilan aloqa yo‘qolishi mumkin”[6].

Konsert ijrochi-tinglovchi muloqoti hodisasi sifatida o‘ziga xos psixologik xususiyatlarga ega. Yakkaxonning konsertda chiqishi ommaviy faoliyat sifatida talaba-o‘quvchi oldiga repetitsiya bosqichidan farqli ravishda alohida vazifalarni qo‘yadi. Birinchidan, musiqiy ijroning psixofiziologik mexanizmlar faoliyatining o‘zgarishi (stress hayajonining paydo bo‘lishi; katta aqliy, hissiy, fiziologik stressning paydo bo‘lishi; yurak urish tezligining oshishi) tufayli konsert paytida talabaning psixofizik holatining o‘zgarishi: vosita faolligini haddan tashqari rag‘batlantirish, mushaklarning ohang sifatini oshirish, tabiiy nafas olish ritmini buzish va boshqalar yuzaga keladi.

Ikkinchidan, tinglovchi bilan muloqotning paydo bo‘lishi natijasida talqin qilish, vazifalarni bajarish darajasining oshishi bilan bog‘liq bo‘lgan badiiy va ijodiy omillarning roli oshadi. Talabalarning konsert holatini barqarorlashtirishda chiqishlarning muntazamligi muhim rol o‘ynaydi. Konsert holatining ushbu qonuniyatlari sozanda-ijrochining malakasini oshirish uchun ijrochilik amaliyotini muntazam tashkil etish kerak.

DURDONA

Nazorat uchun savollar:

1. Konsert mashhur musiqiy kommunikativ uchligi: “bastakor – ijrochi – tinglovchi” uchligini birlashtirishni nazarda tutadi”, - degan iborani qanday izohlaysiz?.
2. Muvaffaqiyatli ishlash uchun qanday psixologik holatlar ahamiyatli bo‘ladi?.
3. Tinglovchi bilan muloqotning paydo bo‘lishi natijasida nimalar bilan bog‘liq bo‘lgan badiiy va ijodiy omillarning roli oshadi?.
4. Konsert ijrochiligining o‘ziga xos qanday qonuniyatlari bor?.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Konsert ijrochiligi musiqachining qanday professional fazilatlarini safarbar qilishini o‘rganing.
2. “Konsert ijrochiligi asoslari” fanining nazariy asoslari haqida ma’lumotlarni topib o‘qing.

[6] Переверзев М.П. Менеджмент: Учебник / Под общ. Ред. Проф. М.П.Переверзева. М.: ИНФРА - М, 2007. С. 80.

www.nitropdf.com

Durdona

3. Nima uchun konsert holatini barqarorlashtirishda chiqishlarning muntazamligi muhim rol o‘ynashini izohlab bering.

Tayanch iboralar: Bastakor, muloqot, kommunikativ uchlik, musiqachi-ijrochi faoliyati, ijrochi-tinglovchi.

Cholg‘ularda ijro holati (apparati)

Milliy cholg‘ularda o‘qitish ijrochilik bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos jihatlarini o‘zida aks ettiradi. Cholg‘uni sozlash, ijrochilik holati talablariga rioya qilish, cholg‘uda tovush hosil qilish va uni boshqarish, zarblar, tremolo, yakka zarb, bilak zarb, bidratma, sayqal, glissando, molish, kashish, applikatura asoslari, chap qo‘l tezligi, o‘ng qo‘l xususiyatlari, musiqiy bezaklar va boshqa jihatlat milliy cholg‘ularda o‘qitish asosini tashkil etadi. Ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyati cholg‘uda ijro etish sir-asrorlarini o‘zlashtirish masalalarini ifodalashdan iborat. Musiqiy ta’limning xalq cholg‘ularida ijrochilik yo‘nalishi bo‘yicha olib boriladigan darslarda ana shu tushunchalar orqali talabalarga mavzular, amaliy mashg‘ulotlar, ko‘nikma va malakalar o‘rgatib boriladi. Ular nazariy bilimlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lsada, ko‘proq amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki cholg‘ularda ijro etish san’atini amaliy mashqlar, tinimsiz shug‘ullanish, ijodiy izlanishlar orqaligina o‘zlashtirish mumkin.

Cholg‘u asbobida ijrochilik holatining to‘g‘ri amalga oshirilishi sifatli ovoz tafovatininu omili hisoblanadi.

Qashqar rubobi. Manbalarda yozilishicha qashqar rubobi xitoyning uyg‘ur viloyatidagi Qashqar shaxrida paydo bo‘lgan. Shuning uchun qashqar rubobi deb ataladi. Aslini olganda rubob qadimiy cholg‘ulardan biri bo‘lib, shu kunga qadar xalqimiz qo‘lidan tushmay kelmoqda va ijro etish san’ati takomillashib bormoqda.

Tarixiy manbalarda rubobning turli nomlari keltirilganligi xususida fikrlar qayd etilgan. Jumladan Al-Forobiy o‘z davrining musiqa asboblarini tavsiflar ekan, rubobda bir-biridan farq qiladigan ijroga erishish mumkinligini uning afzalliklaridan biri deb hisoblaydi. Darvesh Ali Changiy “Musiqa haqida risola” asarida musiqa cholg‘ularining tuzilishini bayon qilar ekan, “Rubob torli musiqa cholg‘usi Sulton Muxammad Xorazmshoh Davrida (1200-1220) keng ommalashgan va 4 ta ipli va 1 ta kumush torlari bo‘lgan deb yozadi.

www.nitropdf.com

Durdona

Davrlar osha rivojlanib, takomillashib XX asrga kelib xozirgi ko‘rinishda o‘zbek an'anavi cholg‘usi sifatida shakllangan.

Rubobning tovushi jarangdor. Ijrochilikni o‘zlashtirish birmuncha yengilligi, mohir rubobchi-sozandalarning yetishib chiqishi bu sozning 1940-yillardan O‘zbekiston va Tojikistonda havaskor hamda professional sozandalar orasida ommaviylashuviga sabab bo‘lgan. Zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirilgan qashqar rubobining ikki xil turi mavjud bo‘lib, ulardan birinchisining kosasi o‘yma ravishda, ikkinchisiniki esa qovurg‘ali qilib yasalgan.

Qashqar rubobida ijro mahorati, ijrochilik san’atining ko‘pgina kopleks masalalarini o‘z ichiga oladi.

Chap va o‘ng qo‘llardagi turli harakatlar hamda uslublarning shakllanish jarayoni ancha murakkabdir. Shuning uchun qashqar rubobida ijro etish texnikasi ustida ishlaganda har bir qo‘lni alohida-alohida, ikkala qo‘lni birga ma’lum maqsad va vazifaga bo‘ysundirishga etishish lozim.

Qobiljon Usmonov[7] qashqar rubobining ijrochilik holati haqida quyidagilarni ma’lum qilgan:

Rubobni chalishga kirishishdan oldin uning tuzilishini bilish va uni to‘g‘ri ushlashni o‘rganish kerak. Buning uchun esa quyidagi ko‘rsalmalarga amal qilish lozim:

1-rasm

1. Rubob kosasini ko‘krakdan sal pastroq, o‘ng qo‘lning bilagi orasida qattiq siqmasdan ushlash kerak (1-rasm).

2. Rubob dastasini chap qo‘lning bosh va birinchi barmog‘i orasida erkin tutish lozim. Rubob dastasi ushlangan paytda qo‘lning bosh barmog‘i ikkinchi barmoqning ro‘parasida turishi shart (3-rasm). Aks holda, uchinchi va to‘rtinchi barmoqlarning pardalarni bosishi uchun qiyinlashadi (4-rasmda ijrochining pardani noto‘g‘ri bosishi ko‘rsatilgan).

[7] Qobiljon Usmonov. Boshlang‘ich rubob darsligi: -T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. - 152 b.

www.nitropdf.com

Durdona



5-rasm

3. Rubob chalishni o‘rganishdagi dastlabki mashg‘ulotlarda qo‘llar tez charchab qolishi mumkin. Bunday holda qo‘llarni pastga tushirib, ularga bir oz dam berish kerak. Agar bu qoidaga rioya qilib chalinsa, keyinchalik ijrochining qo‘llari charchamaydigan bo‘lib qoladi.

4. Rubobda yakka ijro etganda tik turish va gavdani to‘g‘ri tutish lozim. Rubobning quloqlari o‘rnatilgan qismi jrochining yelkasi bilan baravar turishi kerak (I-rasm). O‘zbek xalq cholg‘u asbohlari orkestrida, ansamblda o‘tirib ijro etiladi. Bu vaqtda ijrochi stulga suyanmasdan o‘tirishi va uning chap oyog‘i biroz oldinda turishi shart (5 -rasm).

Rubobni zamonamizda keng targ‘ib etishda va o‘zbek rubob idjrochiligi rivodjiga o‘z idjodlari bilan munosib hissa qo‘shgan mohir san’atkorlar qatoridan Muxammaddjon Mirzayev, Abbos Baxromov, Sulaymon Taxalov, Ari Boboxonov, Adxam Xudoyqulov, Qobul Usmonov, Qobul Oripov, Tohir Rajabiy, Xusan Nabiyev, Shavkat Mirzayev, Rifatilla Qosimov, Shomaxmud Shoraxmetov va boshqa bir qator mohir rubobchi sozandalar munosib orin olgan.

G‘ijjak. torli kamonli musiqa asbobi. O‘zbek, tojik, turkman, uyg‘urlarda va *kamon*, *kemancha* nomi bilan Kavkazorti mamlakatlarida keng tarqalgan. O‘zbek cholg‘u asboblari orkestrida g‘ijjakchilar guruhi xuddi simfonik orkestrdagi kamonli sozlar guruhi (skripka, alt, violonchel, kontrabas) kabi yetakchilik qiladi.

G‘ijjakning inson ovoziga yaqin, nozik va dardli tovushi, qochirimlarga boy, xonaqoiy ijro uslubi tufayli milliy mumtoz musiqa ansambllarida asosiy o‘rin tutadi.

G‘ijjak sozi o‘zbek xalqining sevimli cholg‘ularidan bo‘lib, ming yildan ziyodroq davr mobaynida insonlarga ma’naviy meros sifatida

www.nitropdf.com

Durdona

xizmat qilib kelmoqda. Uning kelib chiqishi IX-X arslarga borib taqaladi. O‘rta asr musiqa risolalarida bayon etilgan rivoyatlarga ko‘ra g‘ijjakni Forobiy yaratgan. U ixtiro qilgan kamonli cholg‘u "G‘ipchak" nomlangan va ikki torli bo‘lgan, Ibn Sino dastlabki 2 torini kvartaga sozlagan, Qulmuhammad Udiy esa G‘ijjakka 3-torni qo‘shgan. Ungacha 2 simli g‘ijjakda ipakdan eshilgan yoki simli aks-sado beruvchi torlar soni 8-11 tagacha bo‘lgan. Alisher Navoiyning „Majolis un-nafois“ asarida aytilishicha, g‘ijjakni chala bilish barcha saroy sozandalari uchun shart bo‘lgan. O‘rta asrda Alijon G‘ijjakiy, Xo‘ja O‘zbek G‘ijjakiy kabi san’atkorlar mashhur bo‘lgan.

O‘zbekistonda g‘ijjak ijrochiligining o‘ziga xos uslublari, asosan, Andijon, Buxoro va Xorazm an’anaviy maktablari orqali namoyon bo‘lgan. Farg‘ona vodiysi hofizlik san’ati hamda surnay ijrochilik an’analari ta’sirida shakllangan *Andijon maktabi* (T. Jalilov, G‘. Hojiqulov, E. Ro‘ziboyev, Yu. Yusupov va boshqalar) mayda urg‘u(aksent)lar, kuy tuzilmalarini uzmasdan chalish yo‘llari, surnayga xos qochirimlar singdirilganligi bilan ajralib turadi.

Mahalliy musiqa an’analari (ayniqsa, Shashmaqom yo‘llari) negizida qaror topgan *Buxoro maktabi*ga g‘ijjakning xuddi titrayotgan kamonni yurg‘izib sadolanishi, har bir pardani o‘zida to‘lqinlatib (tebranish) tezlashishi xos. Buxoro g‘ijjakchilik maktabi namoyandalaridan Haydarqul Qorovulbegi (Buxoro amirlari saroylarida xizmat qilgan), *Xorazm maktabi* ijro uslubi esa shiddat, kamonni urg‘u bilan tortish, ayni paytda yumshoq to‘lqinlatish bilan ajralib turadi.

G‘ijjak yakkanavoz cholg‘u, ayni paytda jo‘rnavoz soz sifatida ham keng qo‘llanilmoqda. 1970-yillardan boshlab g‘ijjakni yakkanavoz va milliy cholg‘u ansambli tarkibida alohida ko‘rsatish, unda o‘ziga xos kuy tuzilmalarini badiha tarzida chalish usullari Abduhoshim Ismoilov, A. Dadayev va boshqalar ijrosida ommalashgan. zamonaviy texnika vositalari (piitsikato, qisqa cho‘zimli tovushlarni ishlatish yo‘llari) keng kirib kelib. polifoniya va polimonodiya[8] xususiyatlaridan foydalanilmoqda.

[8]**Polimonodiya** (poli... va monodiya) — musiqiy-ijodiy tamoyil, monodik bayonning polifoniya unsurlari yordamida boyitishga asoslanadi. O‘zbek an’anaviy musiqada 20-asr o‘rtalaridan bastakorlikning taraqqiyoti, xususan, uslubiy qamrovlari kengayishi jarayonida shakllangan.

www.nitropdf.com

Durdona

G‘ijjak chalish(kamonni ushlash)ning ikki xil usuli bor. (Qarang[9])
.

1. Xalq ijrochilari qo‘llaydigan usul.

Bu usul mayin, cho‘ziq va katta ijrochilik texnikasini talab qilmaydigan ba’zi uzma tovushlar hosil qilishdir. O‘zgaruvchan uzma tovushlar hosil qilish bu usulda qo‘llanmagan.

Sozandalarning g‘ijjak chalishda katta mahoratga erishishi uchun kamonga ham yangi talab qo‘yadi. Yangi musiqa asarlaridagi turli-tuman uzma tovushlarni chalishga majbur bo‘lish natijasida ijrochilar kamonni boshqa ushlaydigan bo‘ladilar. Bu usulda bosh barmoq qisqich (kolodka) oxiriga qo‘yiladi. Ko‘rsatkich barmoq kamon dastasiga yopishib turadi. O‘rta va uni yonidagi barmoq bo‘lsa qillarning ich tomonidan ushlab, ularning chalish uchun zarur bo‘lgan tarangligini hosil qiladi. Jimjildoq esa bo‘sh qoladi.

2. Kamon ushlashning ikkinchi usuli.

Bu usulda bosh barmoq biroz egilgan holda dasta ustida – qisqich yaqinida turadi; boshqa barmoqlar dastani ushlab turadi. Bunda bosh barmoqning uchi o‘rta va uning yonidagi barmoq orasida to‘g‘ri turishi lozim.

[9] S.Aliyev, R.Felitsian G‘ijjak darsligi. “O‘rta va Oliy maktab” davlat nashriyoti, Toshkent. – 1961. 130 b.

www.nitropdf.com

Durdona

Dutor. Dutor(forscha: دوتار) — O‘rta Osiyo, Eron va Janubiy Osiyoda tarqalgan an’anaviy ikki torli musiqa asbobidir. Nomi fors tilidan „ikki tor“ (< دو *du* — „ikki“, تار *tār* — „tor“) deb tarjima qilinadi, biroq Hirot dutori o‘n tor’tta torli bo‘ladi. Dutor XV asr atroflarida paydo bo‘lgan deya tahminlar mavjud. O‘zbek, tojik, uyg‘ur, turkman, qoraqalpoq xalqlari orasida keng tarqalgan. O‘zbek dutori muloyim, nafis va shirali ovozi bilan boshqa cholg‘ulardan ajralib turadi. Dutorning dutor-alt turi ham mavjud, dutor-kontrabas, dutor-bas kabi zamonaviy turlari ham mavjud.

Dutor yakkanavoz va jo‘rnavoz cholg‘u sozi bo‘lib, sozandadan katta ijro mahoratini talab etadi. Dutorda **yakka zarb, qo‘shzarb, bilak zarb, bidratma, teskari zarb** kabi ijro usullari mavjud. Dutor haqidagi dastlabki yozma ma’lumotlarni Navoiyning zamondoshi Zaynulobidin al-Husayniy „Musiqaning ilmiy va amaliy qoidalari” nomli risolasi (XVI bobi)da uchratamiz. XVI – XVII asrlarda „Dutoriy” taxallusi bilan ijod etgan (hirotlik Yusuf Mavdudiy Dutoriy, mashhadlik Mirquliy Dutoriy kabi) sozandalarning nomlari manbalarda saqlangan. Hozirda milliy dutor ijrochiligining o‘ziga xos uslublari 4 ta asosiy (Andijon, Toshkent, Samarqand va Xorazm) dutorchilik maktablari orqali namoyon bo‘ladi.

www.nitropdf.com

Durdona

www.nitropdf.com

Durdona

Mutaxassislar dutor chalish qoidalari va usullari haqida quyidagi ma’lumotlarni beradi: dutor o‘tirib chalinadi. O‘tirganda stulning bir chekkasiga o‘tirib, gavdani erkin va to‘g‘ri tutish kerak. O‘ng oyoqni chap oyoq ustiga qo‘yish lozim. Dutor kosasi o‘ng oyoq ustiga qo‘yilib, o‘ng qo‘l tirsagi bilan biroz siqib turiladi. Chap qo‘l tirsagi bukilgan bo‘lib, tanaga yopishmasdan turishi kerak; dutor dastasining yuqori qismi chap qo‘l bilan ushlab turilishi lozim. Dutor dastasi ko‘rsatkich barmoqning uchunchi bo‘g‘inidan bir oz pastda va bosh barmoq asosida turishi kerak. Chap qo‘l kafti dutor dastasiga tegmasligi kerak. Chap qo‘lning bosh barmog‘idan boshqa hamma barmoqlari doira shaklida bo‘lib ular dastaga, bo‘g‘in yaqiniga qo‘yiladi. Dutor jarangining sofligi barmoqlarni pardalarga to‘g‘ri qo‘yish va torni qanday kuch bilan bosishga bog‘liqdir. Chap qo‘l barmoqlarining tartib raqamlari: 1 – ko‘rsatkich barmoq, 2 – o‘rta barmoq, 3 – yon barmoq, 4 – jimjiloq, bosh barmoq “b” harfi bilan belgilanadi. Dutor chalishda bu barmoq faqat ikkinchi torni bosishda ishlatiladi. O‘ng qo‘l bilagining o‘rtasida dutor kosasining chekkasiga qo‘yiladi. Qo‘l panjasini torlar ustida bukilgan holda erkin ushlab, torlarga qalqon ustida zarb tashlash kerak. Barmoqlar bir joyga yig‘ilib, kaft ichiga yarim bukilgan holda erkin turishi kerak.

Mutaxassislar shuningdek**, dutorda tovush chiqarish usullari haqida** quyidagi ma’lumotlarni yozadi: Dutorda ovozi asosan o‘ng qo‘l panjasi bilan torlarni pastga va uyqoriga urish bilan hosil qilinadi. Barmoqlar erkin va bir maromda harakatlanishi kerak. Pastga ko‘rsatkich barmoq bilan va yuqoriga bosh barmoq bilan zarb beriladi, bu ikki barmoq bir-biri bilan biroz yopishgan bo‘lib, yuqoriga qarab urganda bosh barmoq ko‘rsatkich barmoqdan biroz chap tomonga qochadi. Bunday chalish usuli yakka zarb, deb ataladi va quyidagi belgilar bilan ifodalanadi: K – panja va o‘ng qo‘lining ko‘rsatkich

www.nitropdf.com

Durdona

barmog‘i bilan pastga qarab chalish. B – panja va o‘ng qo‘lning bosh barmog‘i bilan yuqori qarab chalish.

Chang. Chang — ko‘p torli tirnama cholg‘u asbobi. O‘zbekistonda ishlatiladigan zamonaviy chang turi trapetsiya shaklidadir. Chang tayoqchalar bilan urib chalinadi. Ko‘pchilik xalqlarda chang turlicha nomlanadi. Bu changlar orasida muayyan farqlar ham bor.

Yozma manbaalarga ko‘ra XV, XVII asrlardan boshlab "chang" sozi musiqa hayotimizda ma’lum o‘rin egallay boshlagan. Ungacha esa "chang" iborasi o‘zbek hamda tojik musiqa madaniyatida butunlay o‘zga soz, tirnab chalinadigan zamonaviy yevropacha arfaning bizda keng ishlatilgan qadimiy kichik hajmdagi namunasini anglatadi. Jumladan Alisher Navoiyning buyuk asari "Xamsa"ning "Sabbayi sayyo‘r" dostonidagi "chang" iborasi ham arfa tusidagi cholg‘u sozini, aniqrog‘i qo‘l arfasini anglatgan bo‘lib, uning mohir ijrochilari sifatida Dilorom kabi ayol obrazlari tasvirlangani ham bejiz bo‘lmagan. O‘sha davrlarga xos arfasimon chang deyarli xotin-qizlarga mansub cholg‘ulardan biri sifatida hatto, eramizdan oldingi asrlardayoq ishlatilgan. Ammo XVII asrlardan keyin bu qo‘l arfasi ijrochilikdan chiqa boshlagan va o‘rnini o‘zga soz - maxsus tayoqchalar bilan urib chalinadigan trapetsiya shaklida chang cholg‘u asbobi egalladi.

Changdan qadimda va O‘rta asr Sharq (Ossuriya, Misr, Shimomliy Hindiston, Eron, Markaziy Osiyo) madaniyatida qo‘llanilgan. Hozirgi O‘zbekiston va Tojikiston hududida qadimgi changdan taxminan 17-asrgacha qo‘llanilgan. O‘rta asrlarda Noqus Changiy, Mavlono Mirek Changiy Buxoriy, Xoja Bobo Changiy, Hofiz Changiy, Darvishali Changiy va boshqa chang ijrochilari tanilgan. Chang burchakli yoki yoysimon shaklda bo‘lib, unga 13 va undan ortiq torlar o‘rnatilgan. Hozirda changdan o‘zbek, tojik, uyg‘ur xalqlari keng foydalanadi. O‘zbekistonda keng ishlatiladigan hozirgi turi trapetsiya shakldagi tovushxonaga ega.

Changda yaxshi musiqa ijro etishning muhim shartlaridan biri, bu cholg‘u oldida o‘tirish holatidir. Changning balandligi o‘tirgan ijrochining qo‘l tirsagidan oshmasligi kerak. Stulning balandligi va chang bilan oradagi masofa ijrochining bo‘yi va qo‘llari uzunligiga mos bo‘lishi kerak.

www.nitropdf.com

Durdona

Mutaxassislar pedaldan foydalanish texnikasi va ijro usullari haqida quyidagilarni ma’lum qiladi: Pedal tovush chiqarishni yaxshilash, tozalash, kuyni yaxshiroq ijro etish, arpedjio va ikkitalik notalarni ijro etish imkoniyatini beradi. Tovush jarangining tembri, tayoqchalarning torlarga urilgan zarblariga bog‘liq. To‘liq va quyuq tovush chiqarish uchun tayoqchalar bilan xarraklar ustiga o‘rnatilgan chang torlari orasidagi masofa kamida 3-4 sm tepalikdan urilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Urma zarb uslubi changda tovush chiqarishning asosiy ijrochilik uslubidir. Tayoqchalar bilan torlarga urilganda chuqur, to‘la tovush chiqishi kerak. Zarb qanchalik erkin bo‘lsa, torning jarangi shunchalik yorqin bo‘ladi.

Qonun. Qonun - O‘rta va Yaqin Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan torli-tirnama cholg‘u. Qonun - o‘zi yunoncha so‘zdan olinga bo‘lib, tovushqator asosi bir torli tarkibda tuzilgan "Monoxord" asbobiga berilgan nomdan kelib chiqqan. Qonunning torlar soni 72 dona (har bir tovush uchta tordan iborat) bo‘lib, ichak, hozirda kapron va metalldan ishlanadi. Tovushqatori temperatsiya qilingan, umumiy diapazoni 3 oktavadan oshadi. Qonun tizzaga qo‘yilgan holda, ko‘rsatkich barmoqlarga kiydirilgan maxsus moslamalar yordamida tirnab chalinadi. O‘rta asrlarda Darvish Ahmad Qonuniy (15-asr),

www.nitropdf.com

Durdona

Ja'fariy Samarqandiy (15-asr), Amir Ali Akbariy Samarqandiy (16-asr) kabi mashhur qonunchilar o'tgan. Qonun O'zbekistonda 1930-yillargacha ishlatilgan, 1980 yil sozanda (changchi va Qonunchi) Abdurahmon Xoltojiyev tomonidan qayta ijodiy amaliyotga kiritilgan. Hozirda Qonun ijrochiligida A.Asqarov, R.Haydarova kabi sozanda-o'qituvchilar tanilgan.

Qonunni noxun va mediator bilan ijro etadilar. O'ng va chap qo'l ko'rsatgich barmoqlariga, ba'zida boshqa barmoqlarga ham noxun taqilib, barmoq va noxun orasiga mediator kiydirib ijro etiladi.

Qonun cholg'usi – g'arb xalqlariga mansub bo'lib ilk ko'rinishi X-XI asrlarda fil suyagidan yasalgan shaklida bo'lgan. Bu cholg'u torli tirnama cholg'u asbobi bo'lib, ko'rinishi changsimon cholg'u asboblari oilasiga mansub.

Qonun yuqori va pastki tembrlar orqali chalinadi. Har bir tor o'zgacha ohang chiqarish hususuyaida ega bo'lib, musiqasi quvnoq ohanglarga moslangan. Bu cholg'u asbobi turli xalqlarda turlicha nomlanadi. Ilk ko'rinishi uch torli simdan iborat bo'lgan. Hozirgi ko'rinishi ancha takomillashgan bo'lib, murakkab shaklda tuzilgan. U

www.nitropdf.com

Durdona

asosan o‘rik daraxtidan yasaladi. Chunki o‘rik daraxti ancha mustahkam bo‘lib torlarni ushlab turishga ancha qulay.

Qonun yasovchi ustalarning bayon etishicha qonun cholg‘usi torlarining joylashishi juda murakkab bo‘lib, ular ipak tolalardan yasalar ekan. Bu cholg‘u bugungi kunda ham o‘z tarofati ila barchaning ko‘nglini maftun etib kelmoqda.

Qonun diatonik tovush qatoriga ega. Cholg‘uning o‘ng tomonida joylashgan kichik xarrakchalar torlarni taranglashtirib yoki bo‘shashtirib kerakli yarim tonliklarni hosil qilishga yordam beradi. Tovush kuchini orttirish maqsadida qonun torlarining ikkitasi yoki uchtasi bir xil qilib sozlanadi. Mohir ijrochilar qonunni chalishda 3 va hatto 4 ta barmoqdan foydalanadilar.

Nay. Nay - puflab chalinadigan musiqa asbobi. Sharq mamlakatlari, xususan O‘rta Osiyoda keng tarqalgan. Nay bo‘ylamasiga va yonlamasiga ushlab chalinadi; yonlamasiga ushlab

www.nitropdf.com

Durdona

chalinadigan Naylar turi yetakchi xisoblanadi. Nayning eng qadimiy turi chupon Naydir.

Nay kanalining bir uchi (yuqorisi) tiqin bilan berkitiladi. Ana shu yuqorisiga yaqin yon tomonida puflanadigan teshigi hamda uning pastrog‘ida 6 ta chalgich barmoq teshiklari bo‘ladi. Bu teshiklar barmoklar bilan to‘la yoki yarim berkitish va puflash kuchini o‘zgartirish natijasida 2,5 oktava diapazonidagi tovushqator hosil qilish mumkin. Barmoq bilan berkitiladigan teshiklarning qarama-qarshi tomonida tovushlar muvozanatini saqlashga yordam beradigan 2 yoki 3 ta teshik ham bo‘ladi. An’anaviy o‘zbek va tojik cholg‘u ansambllari tarkibida Nay yetakchi sozlardandir. Kuy boshlanadigan pardaga bog‘liq holda Nayga moslab boshqa asboblar sozlangan. Shuning uchun naydagi barmoqchalg‘ich teshikchalar berkitilish soniga qarab milliy sozandalar orasida «besh qo‘l», «to‘rt qo‘l», «uch qo‘l» deb nomlanuvchi sozlash turlari qo‘llangan.

Nay musiqa asbobi yakka cholg‘u, ansambl va orkestrlarda chalinadi. Ovoz hajmi kengligidan, xalq kuylarida, maqomlarda, ansamblda ko‘proq yetakchi vazifasini bajaradi.

www.nitropdf.com

Durdona

Nay yog‘ochdan, g‘arovdan, qamish va misdan yasaladi. Shunga ko‘ra ***«Yog‘och nay», «Mis nay», «G‘arov nay»,*** deb ataladi. So‘ngi yillarda nayni kichraytirilib ishlangan turi qo‘llanila boshlandi, bu kichik nay ***«Nay pikkola»,*** deb ataladi. Nayning ovozi juda yoqimli. Bu asbob ikki holatda, ya’ni o‘tirib va tik turgan holatda ijro etiladi.

Mutaxassislar nay chalish usullari haqida quyidagilarni ma’lum qiladi: Nay chaluvchi sozanda nayning chalish uchun mo‘ljallangan teshigiga labni shunday qo‘yishi kerakki, lab uning to‘rtdan bir qismini berkitishi lozim. Qo‘l barmoqlarini yaxshi ishlata bilish kerak. Sozni sadolashda nafas olish tez, chiqarish esa sekin hamda davomli bo‘lishi talab etiladi. Nafasni chiqarishda o‘pkada yig‘ilgan havoning hammasini oxirigacha chiqarish tavsiya etiladi. Chunki tovushning sifati, yoqimliligi bevosita shularga bog‘liq bo‘ldi. Nay tabiatan diatonik tovush qatoriga ega bo‘lib, zarur bo‘lganda tovushlarni ko‘tarish va tushurish nay teshiklarini qisman yopish orqali amalga oshiriladi.

Qo‘shnay - damli - tilchali, qamishdan yasalgan cholg‘udir. U O‘zbekistonning Farg‘ona vodiysida va Xorazm vohasida keng ommalashgan. Bu o‘ziga xos ovoz tarovatiga ega bo‘lgan, kuychan lirik asarlarni ijro etuvchi cholg‘u bo‘lib, o‘rta registrni qamrab oladi.

Qo‘shnay silindr shaklidagi naylardan iborat bo‘lib, ular bir - biriga shoyi iplar bilan birlashtirilgan. Qo‘shnayning yuza qismida ijro etish uchun ettita teshiklar mavjud bo‘lib, ularning uzunligi 6 mm, eni 3 mm. Naychalarning berk tomoniga yaqin joyda tovush chiqarish uchun maxsus tilchalar kesilgan. Naychalarning o‘lchovi va tuzilishi bir xil bo‘lganligi sababli ularda bir vaqtda ijro etiladi.

Qo‘shnay cholg‘usining o‘ziga xos xususiyati bir-biriga bog‘langan ikkita qamishdan yasalganligi va ikkalasining birga ijro etilishidadir. Qo‘shnayning umumiy uzunligi 30 santimetrgacha bo‘lishi mumkin.

Qo‘shnayning puflanadigan berk uchi tomonida tilchalarini qisqartirish va uzaytirish uchun ipdan qilingan halqa mavjud. Shu tilchalarni lablar bilan qisqartirish va ularni bosish kuchini o‘zgartirish orqali tovushqator hosil qilinadi. Qo‘shnayning tembri juda baland va

www.nitropdf.com

Durdona

yoqimlidir. Hozirda qo‘shnay xalq cholg‘u ansambllarida keng qo‘llanilyapti. Ayniqsa, Xorazm vohasi, Qoraqalpog‘istonning ayrim hududlari, Toshkent shahri hamda viloyatida qo‘shnaydan yakkanavoz soz va jo‘rnavoz soz sifatida yaxshi foydalanilmoqda. Diapazoni birinchi oktava re tovushidan ikkinchi oktava sol tovushigacha, lekin cholg‘uchining mahorati yetarli bo‘lsa undan yuqori tovushlarni ham hosil qilish mumkin. Ustoz qo‘shnaychilar sifatida Ahmadjon Umrzoqov, Qayum ota, Qurbonboy ota, Mirzasharif Mirbaratov, Nasriddin Ro‘ziyev kabilarni ko‘rsatish mumkin. Qo‘shnayning diapozoni birinchi oktavaning “re” tovushidan ikkinchi oktavaning “sol” tovushigacha.

Qo‘shnayda barmoqlar quyidagicha joylashadi: 1-teshik jimjiloq, 2-nomsiz, 3-o‘rta, 4-ko‘rsatkich barmoqlar bilan berkitiladi. Bosh barmoq esa naylarning pastida juft holda ushlab turishi kerak. Chap qo‘l esa qo‘shnayning yuqori qismida joylashib, 5- teshikni nomsiz, 6-o‘rta, 7-ko‘rsatkich barmoqlar bilan bekitiladi. Bosh va jimjiloq barmoqlar qo‘shnayni juft holda ushlab turadi. Ijrochi ikkala nayning teshiklarini barmoqlarning birinchi va ikkinchi bo‘g‘inlari bilan berkitiladi. Cholg‘uchining labi ijro davomida asosiy va muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun labning joylashish uslubini to‘g‘ri qo‘- yish kerak. Pastki va yuqori tishlarning ustki qismi lablar bilan bekitiladi va shu ikki lab o‘rtasida qo‘shnay joylashadi.

Surnay. Surnay (fors. *sur* — to‘y, bayram va nay; to‘yda chalinadigan nay) - puflab chalinadigan cholg‘u asbobi.

O‘zbek, tojik, turk, Kavkaz, Eron xalqlari orasida keng tarqalgan. Shakli naynikiga o‘xshaydi. Surnayning yuqori tomoni ingichka, pastki tomoni esa konussimondir.

www.nitropdf.com

Durdona

Surnay tuzilishi bo‘yicha eng murakkab cholg‘ular-dan biri hisoblanib, 12 ta birlashtirilgan jismlardan iborat. Shakli hamda ovoz chiqarish uslubi jihatdan u goboyni eslatadi. Ko‘rinishidan konusga o‘xshagan, nayning pastki qismi kengaytirilgan kar-naysimon cholg‘u.

Asosan o‘rik daraxtidan yasaladi. Surnay O‘zbekiston, Tojikiston, Kavkaz (zurna) va Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan cholg‘u hisoblanadi. U to‘y tantanalari, xalq sayllari va bayramlarda karnay,

nog‘ora va doiradan tashkil topgan ansambl tarkibida yakkanavoz vazifasini ham bajaradi.

Surnayda ijro etish uchun chap qo‘lning to‘rtta: ko‘rsatkich, o‘rta va nomsiz barmoqlari birinchi, ikkinchi va uchinchi teshiklarni, bosh barmoq esa cholg‘uning pastki qismidagi teshigini yopishda, shuningdek o‘ng qo‘lning uchta: ko‘rsatkich, o‘rta va nomsiz barmoqlari - to‘rtinchi, beshinchi va oltinchi teshiklarni yopishda ishlatiladi

O‘zbekistonda ikki xil surnay turi mavjud. Ulardan birinchisi Farg‘ona-Toshkent surnayi bo‘lib, uning menzurasi kengroq bo‘lganligi sababli tovushi mayin va nolali, ikkinchisi Xorazm surnayi, menzurasi nisbatan torligidan tovushi keskin va chiyildoq. Ikkala surnayda ham tovush ko‘lami bir xil. Pastki tovushi 1- oktava do-diyezdan boshlanib, nafas bosimini kuchaytirish natijasida 2-oktava si (3-oktava do) tovushigacha bo‘lgan diapazonni o‘z ichiga oladi. Surnayning tovushi keskin va juda o‘tkir bo‘lib, unda tovush hosil qilish murakkab hisoblanadi. Bu jarayon uzluksiz nafas bilan ijro qilish mahoratini talab etadi. Uzluksiz nafas bilan chalishning mohiyati shundan iboratki, qadimgi ulamolar sozni vaqtning uzviy bo‘lagi, ya’ni vaqtda uzilish bo‘lmaganidek musiqada ham qisqa bo‘lsada uzilish bo‘lmasligi kerak deb hisoblashgan. Shuning uchun ham ayniqsa Xorazm surnaychiligida uzliksiz nafas bilan chalish qabul qilingan va hozirgacha davom etmoqda.

www.nitropdf.com

Durdona

Bulamon. Damli - tilchali cholg‘ulardan biri **bulamondir.** U yog‘och (o‘rik) nay va nisbatan yo‘g‘on yasama karnaydan iborat. Uning muhim xarakterli xususiyat-laridan biri karnayida dia-metri 5 mm bo‘lgan silindrik kanal o‘z qirqimini saqlab qolganligidadir.

Cholg‘u tanasining yuza qismida yettita chalish uchun diametri 4 mm.ga teng bo‘lgan teshik-chalar mavjud. Bulamonda ijro etish uchun chap qo‘lning to‘rtta: ko‘rsatgich, o‘rta, nomsiz barmoqlari birinchi, ikkinchi va uchinchi teshiklarni, bosh barmog‘i esa ostki qismidagi teshikni berkitishga, o‘ng qo‘lning to‘rtta barmoqlari: ko‘rsatgich, o‘rta, nomsiz va jimjalog‘i esa to‘rtinchi, beshinchi, oltinchi va yettinchi teshiklarni berkitish uchun qo‘llaniladi.

Bulamon boshqa damli cholg‘ulardan nozik va jozibali ovozi bilan ajralib turadi. U Xorazm hududida keng tarqalgan. Tovushqatori diatonik bo‘lib, lab boshqaruvi natijasida xromatik tovushqator hosil qilinadi. Tovush ko‘lami ikki oktavadan sal oshiq (kichik oktava sol dan ikkinchi oktava sol (lya) gacha). Uning tovush tembri bo‘g‘iqroq (bas) tusda bo‘lib, asosan baxshilar ansambli tarkibida va ba’zan yakka holda ham qo‘llaniladi.

Doyra (*childirma*, *chirmanda*, *doyra*, *daff*, *dapp*) — o‘zbek, tojik, uyg‘ur va boshqa sharq xalqlarining cholg‘u asbobi. Doyra zarb bilan urib chalinadi. Gardishi o‘rik, yong‘oq yog‘ochidan yasaladi. Gardishi ustidan tashqari tomondan teri bilan qoplanadi. Gardishning ich tomoniga tamburinnikiga o‘xshash xalqachalar osiladi. Doyra - zarbli cholg‘u asboblar guruhiga kiradi.

www.nitropdf.com

Durdona

Doyra qadimiy musiqa cholg‘ularidan hisoblanadi. Markaziy Osiyo (Niso shahri, eramizdan avvalgi 2-asr)da topilgan terrakota yodgorliklarida doyrachi ayollar tasvirlangan. Doyra va unga yaqin urma musiqa holg‘ulari tojik, arman, ozar, uyg‘urlarda *dap*, *dapp*, *daff*, *def* deb nomlanadi.

Doyrani chalishda qo‘llaniladigan ritm birliklari (naqralar) haqida qadimiy manbalarda yozilgan. Doyra usuli odatda ikki xil zarbdan iborat. Biri — *bak* (baka, bako, bakka, bakko). Bak doyra gardishiga yaqin joyga urilganda chiqadigan tovushdir. Ikkinchi zarb — *bum*. Bumni chalish uchun barmoqlarni cho‘zib doyraning o‘rtaroq qismiga uriladi.

www.nitropdf.com

Durdona

Doyrada ijro etishdagi holat. Doyra belni bukchaytirmasdan, kaftlarni erkin, boshni to‘g‘ri tutib, tirsaklar tanadan sal nariroqda ushlangan holda chalinadi. Doyra ikki qo‘l bilan, notani ko‘rib turish uchun qo‘llarni tanadan sal chaproqqa qayirib, ushlab chalinadi.

O‘ng qo‘l: bosh barmoq doyra gardishining tashqi tomoniga tiraladi, qolgan panjalar esa doyraning pardasi (membranaga) zarb urib turish uchun erkin holda ushlanadi. **Chap qo‘l:** bosh barmoq gardishning ichki tomonida turadi, qolgan barmoqlar esa tovush chiqarish uchun xizmat qiladi. Doyraning vazni asosan chap qo‘lga tushadi.

Nog‘ora — urib chalinadigan musiqa asbobi. O‘zbekistonda nog‘oraning do‘l nog‘ora, rez nog‘ora va ko‘s nog‘ora kabi turlari bor. Do‘l nog‘ora yo‘g‘on tovush chiqaradi va diamtetri 60 sm cha bo‘ladi. Rez nog‘oraning tovushi ingichka bo‘ladi va diamtetri 20-30 sm bo‘ladi. Ko‘s nog‘oraning diamtetri 30-40 sm bo‘ladi va shuning uchun

www.nitropdf.com

Durdona

rez nog‘oranikidan yo‘g‘onroq, do‘l nog‘oranikidan ingichkaroq tovush chiqaradi.



www.nitropdf.com

Durdona

Ko‘s va rez nog‘ora bir-biriga qo‘shilib yasalgan qo‘sh nog‘oralar ham mavud. Ikkalasining tovushi orasidagi farq bir kvarta intervalidir. Bu doyra chalishda ishlatiladigan „bum“ va „bak“ kabi tovushlarini chiqarish imkonini yaratadi. Nog‘oradan chiqqan tovushlar faqat „tum“ va „tak“ deb yuritiladi. Nog‘oraning misdan yoki cho‘yandan yasalagan yirik turlari ham mavjud. Ammo bu tur nog‘oralar keng tarqalmagan. Chalish uslublari rez va ko‘s nog‘ora ikkita cho‘p bilan chalinadi. Do‘l nog‘ora yo‘g‘onroq bitta cho‘p bilan chalinadi.

Qayroq - eng qadimiy cholg‘ulardan biri hisoblanadi. Qayroq odatda ikki juft silliq toshdan iborat bo‘ladi va har ikki qo‘lda ikkitadan ushlab ijro etiladi.

Qo‘llarning to‘rt barmog‘i (ko‘rsatkich, o‘rta, nomsiz va jimjiloq) bitta toshni tutsa, ikkinchi toshni bosh barmoq boshqaradi va toshlarning bir-biriga urilishi natijasida hosil qilinadigan ritmning tezligi va kuchi mazkur barmoqlarning naqadar samarali ishlashiga bog‘liq bo‘ladi. Qayroq toshlarni har ikki qo‘lda bittadan tutib, ularning boshqalarining o‘rnida taxminan qayroqtoshlar kattaligidagi yassi metallardan foydalanish ham kuzatiladi. Bu holatda metallni barmoqlar bilan ushlab turish va boshqarish biroz osonlik tug‘diradi. Qayroq hozirda ko‘proq xorazmcha kuylarda qo‘llaniladi, shuningdek, Buxoroda ham qayroq cholg‘usi ko‘p ishlatadiladi. Xorazmda raqs davomida erkak va ayol raqqoslar tomonidan ham qo‘llaniladigan holatlar uchraydi.

Qoshiq - ichki tomoni yarimsferik (o‘yilgan) yog‘och qoshiq, tut yog‘ochidan taxminan 100-120 mm uzunlikda kesib tayyorlanadi. Juftlab tasma bilan bog‘langan 4 ta qoshiq bo‘ladi. Ijrochi har bir qo‘liga’ bir juftdan qoshiq olib, kaftini siqib-ochish va bilagini silkitish orqali tovush chiqaradi. Demak, aytish mumkinki, ooshiq ijrosida ham qayroqdagi singari har ikki qo‘lga bir juftdan qoshiq ushlanadi va ulaming bir-biriga urilishi natijasida kerakli ritm hosil qilinadi.

Qoshiqdan raqqoslar ritmni bo‘rttirish uchun foydalanishgan. XX- asr boshigacha Farg‘ona vodiysi aholisi qoshiqdan foydalangan hozir u yerda ham qoshiq kamdan-kam ishlatilmoqda. Ba’zan milliy mavzuda yaratilgan xoreografik asarlar ijro etilayotganida qoshiqning o ‘ziga xos chiqillashmi eshitish mumkin. Qoshiq - inson tomonidan ixtiro qilingan mehnat qurollari ichida albatta tayoqdan keyin turadi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Chunki, ibtidoiy odamlar yerdagi ildizlami qazib olish uchun awalo tayoqni kashf etishi lozim edi. Tabiatdagi ne'matlami pishirishni o'rgangan odam qo'li kuymasdan ovqatni og'ziga olib borishi uchun qoshiq ixtiro etilgan. Tayoq ham, qoshiq ham bir-biriga urilishi natijasida hosil qilinadigan tovushdan ritmlarni tuzishda foydalanilgani aniq. Qoshiqda usullar alohida yoki doyra jo'rligida ijro etiladi.

Safoyil - urma cholg'u asbobi. Xitoy, Uyg'ur xalq cholg'u asbobi sifatida keng tarqalgan musiqa cholg'usidir. Safoyil cholg'usining ko'pincha raqsona, marshona kuylarda uchratish mumkin. Uyg'ur xalq raqslarida ham keng qo'llaniladigan musiqa cholg'usi hisoblanadn. O'tmishda safoil darvishlarning jo'rnavoz cholg'ularidan bo'lgan. Safoil milliy ansambllar va xalq cholg'u asboblari orkestrlarida ham foydalaniladi.

O'zbekiston va Tojikistonda bu cholg'u asbobi keng qo'llanilib kelmoqda. Safoyil musiqa asbobi, tuzilishidan shiqildoqli urma zarbli cholg'u asbobi guruhiga kiradi. Safoyil ikki bo'lak kattiq yog'och kaltakchasidan iborat bo'lib, bu kaltakcha mayda temir halqachalar taqilgan katta temir xalqachaga o'rnashtiriladi.

Safoyilni silkitib yelkaga urib shovqinli, turli xil murakkab tovush chiqarishadi. Ikkita kaltakchasini uzunligi 400 mm ni tashkil etadi. Safoyil cholg'uchisi yelkaga urib va havoda tebratib har xil kerakli usullarni chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, milliy cholg'u sozlarini to'g'ri ushlash etikasiga, cholg'ulardan tovush chiqarish mahoratini egallab borishga, ijro malakalarini muntazam o'stirib borish hamda ijro qoidalariga to'liq rioya etishlik o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham:

- ijrochining cholg'u asbobini chalishdagi harakatlarining qulay bo'lishi, o'rindiqqa to'gri o'tirishi, qomat va yelkalarni chiroyli ko'rinishda bo'lishi;
- chap qo'lni cholg'u (ruboblar, g'ijjak, dutorlar) dastasiga (nayda teshiklarga) to'g'ri joylashishi, ijro qilganda barmoqlarni pardalarga to'g'ri qo'yish va almashtirish tartibiga rioya qilish;

www.nitropdf.com

Durdona

- o‘ng qo‘lga (nay, chang, doyrada ikkala qo‘lga) doir qoida va talablarga to‘liq rioya qilish hamda ijro harakatlarining erkinligiga erishish kerak.

Nazorat uchun savollar:

1. Milliy cholg‘ularning ijrochilik xususiyatlari nimalarda namayon bo‘ladi?. 2. Dutor bas qanday usillarda ijro etiladi?.
3. Prima rubobida chalishning qanday usullari mavjud?.
4. Dutor chalishda qanday usullar qo‘llaniladi?.
5. Nag‘orada chalishnin qanday usullari mavjud?.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Qashqar rubobi tarixini o‘rganing .
2. Dutorning qanday turlari mavjudligini o‘rganing.
3. O‘zbek xalq cholg‘u asboblari kimlar tomonidan modernizatsiya qilinganligini o‘rganing.
4. Nay chalish usullari bilan tanishing.

Tayanch iboralar: Qashqar rubobi, dutor, g‘ijjak, chang, doyra, qonun, chalish qoidalari.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

IKKİNCHİ BO‘LİM.

Xalq cholg‘ularining ijrochilik imkoniyatlari va zarblar haqida

Xalq cholg‘ularining xilma-xilligi, ulardan taralayotgan sadolarning tiniqligi, o‘ziga xos maftunkorligi va ohangrabosi yoshlarni sozandachilik san’atiga jalb qiladi, e’tiborini tortadi.

O‘zbek xalq cholg‘ulari bir nechta turlarga bo‘lingan. Ular o‘zining tarixi, yasalashi, tuzilishi, qismlarga bo‘linishi, sozlanishi, diapozoni, tovush chiqarish uchun o‘ng va chap qo‘l harakati uyg‘unligi, ijro holati va qoidalari, ijrochilik uslublari, shtrixlari, applikatura, pozitsiyasiga ega. Har bir cholg‘uning o‘ziga xos ijro imkoniyatlari mavjud bo‘lib o‘zbek xalq kuy-qo‘shiqlari va jahon klassik asarlari meroslari bilan tanishib olishga da’vat etadi. Yosh sozandalar xalq cholg‘ularida chalish jarayonida ularning rang-barangligini his qilishda dastlabki ijro malakalari, zarblari, temp, o‘lchov, ritm, dinamika, ijro mahoratini oshirish uchun gamma, etyudlar, hamda kichik kuylar ijrosini egallashlari orqali o‘z bilim va ko‘nikmalarini hosil qiladilar.

Ma’lumki, o‘tmishda o‘zbek milliy cholg‘ulari asosan diatonik tovushqatorda bo‘lib unda musiqa asarlarini ijro etish imkoniyati chegaralangan bo‘lgan. Cholg‘u asboblarining ijro imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida rekonstruksiya (takomillashtirish) ishlari amalga oshirilgan. Undan asosiy maqsad - tovush (ohang) xususiyatlarini yaxshilash, cholg‘ularda yangi texnik imkoniyatlar yaratish, (tovush tusi) nozikliklariga erishish, 12 bosqichli ravon sur’atlarga bo‘lingan xromatik tuzilmalarni joriy etish, tovushqatorlarni kengaytirish bo‘lgan. Natijada xalq cholg‘ularimiz diatonik tovushqatordan xromatik tavush qatorga o‘tkazilgan. Asta-sekinlik bilan an’anaviy cholg‘ularning eski namunalari o‘rniga zamonaviy ijrochilikning yuksak talablariga javob bera oladigan quyidagi yangi namunalari:

Chang cholg‘usi asosida chang-pikkolo, chang-prima, chang-tenor, bas chang; Qashqar rubobi asosida prima rubob, rubob-metssosoprano, rubob-alt, afg‘on rubobi; Dutor cholg‘usi asosida dutor-prima, dutor-sekunda, dutor-alt, dutor-tenor, dutor-bas, dutor-kontrabas; G‘ijjak cholg‘usi asosida g‘ijjak-alt, g‘ijjak-bas, g‘ijjak-kontrabaslar yaratiladi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Hozirgi kunda rekonstruksiya qilingan cholg‘ulardan prima-rubobi, afg‘on rubobi, dutor-prima, dutor alt, dutor-bas, dutor-kontrabas, g‘ijjak altlar o‘zbek xalq cholg‘ulari ansambllari va orkestrlarida keng qo‘llanilib kelinmoqda.

O‘zbek xalq cholg‘ularining umumiy diapazono katta oktavaning “mi” tovushidan to‘rtinchi oktavaning “mi” tovushigacha bo‘lib, rabg-barang kuylarni, texnik ijrosiga ko‘ra murakkab bo‘lgan o‘zbek va chet el kompozitorlar asarlarini ijro etish imkonyatiga ega. Cholg‘ularda quyidagi uslub va zarblarda tovush hosil qilish mumkin:

Changda: Cho‘p chertmak - pizz col legno, Barmoq chertmoq - pizzicato, Pissikato, Urma-zarb - staccato con sordino, Cho‘p tarak - col legno, Tebratma- vibrato - (vibratsiya), Cho‘p-chizma - glissando col legno - (glissando), Sakratma-zarb – staccato - (stakkato), Terma zarb - arpejio - (arpedjio), Qo‘sh notalarni ijro qilish orqali tovush hosil qilish.

Nayda: Stakkatto, Tilni ikki marta tegizish, Tilni uch marta tegizish, Legato, Nonlegato, Portamento kabi uslub va zarblarda tovush hosil qilish.

Ruboblarda: Pastga zarb, Yuqoriga zarb, Yakka zarb, Qo‘sh zarb, Bilak zarb, Ufori zarb, Zarbi parron, Bidratma, To‘lqinlatish, Nolish, Molish, Kashish, Rez-usuli, Pitssikato, Flojolet, Stakkato, Legato, Glissando, Forshlag, Mordent kabi uslub va zarblarda tovush hosil qilish.

Dutorlarda: Yakka zarb, Teskari zarb, Ufori zarb, Pitssikato kabi uslub va zarblarda tovush hosil qilish.

Dutor basda: Bir taraflama chertish, Ikki taraflama (almashuvchi), Stakkato, Tremolo (rez), Pitssikato kabi uslub va zarblarda tovush hosil qilish.

G‘ijjaklarda: Detashe, Legato, Stakkato, Spikkato, Pitssikato, Vibratsiya, Flajolet, To‘lqinlatish, Forshlag, Qo‘shforshlag, Naxshlag, Kashish, Molish, Rez kabi uslub va zarblarda tovush hosil qilish.

Doyrada: Katta bum, kichik bum, katta bak, kichik bak, noxun kabi zarblarda tovush hosil qilish mumkin.

Nazorat uchun savollar:

www.nitropdf.com

Durdona

1. Nay cholg‘usida ijro uslublari?
2. Rubob cholg‘usida mohir ijrochilardan kimlarni bilasiz?.
3. G‘ijjak qanday usullarda ijro etiladi? Izohlab bering.
4. Mezrobli cholg‘ular guruhidagi cholg‘ularning bir-biridan farqi nimada?
5. Dutorlar oilasi haqida nimalarni bilasiz?.
6. Chang cholg‘usida mohir ijrochilardan kimlarni bilasiz?.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Puflama cholg‘ularga mansub oilani o‘rganing.
2. Urma torli cholg‘ular tarixi haqida ma’lumotlar to‘plang.
3. Mizrobli cholg‘ular imkoniyatlarini tahlil qiling.
4. Zarbli cholg‘ular bo‘yicha taniqli, mashhur sozandalar faoliyatini o‘rganing.
5. Kamonli cholg‘ular oilasiga mansub cholg‘ular imkoniyatlarini tahlil qiling.

Tayanch iboralar: Ijrochilik uslublari, shtrixlar, applikatura, pozitsiya.

DURDONA

Damli cholg‘ularda sifatli ovoz tarovatiga ega bo‘lish

Nay. Nayning eng ko‘p tarqalgan turi yog‘och va g‘arovdan yasalganidir.

Nayda stakkato, tilni ikki marta tegizish, tilni uch marta tegizish va legato, non legato, portamentolar kabi turli shtrixlarni ishlatish yo‘li bilan ijro qilish mumkin.

Stakkatto usuli – ambushyur 2 teshikning devoriga havo oqimining urishi va bu havo oqimini tezlikda til bilan bekitib qo‘yishdir. Tilni tegizish vaqtida taxminan “tu” (tovush) bo‘g‘ini talaffuz etiladi. **Misol**[10]:

Tilni ikki marta tegizish – tilni ikki marta tegizishda til uchida oddiy urish bilan tilning orqa, ya’ni til uchida urishi vaqt-vaqti bilan

[10]. Misollar S.Turatovning “Xalq cholg‘ularini o‘rganiah” nomli o’quv qo‘llanmasidan olindi. .:T 2015.

www.nitropdf.com

Durdona

almashinib turadi. Tilni ikki marta tegizishda “tu-ku” bo‘g‘inlari talaffuz etiladi. **Misol**:

Tilni uch marta tegizish – ikki marta tegizishning til uchi va tilning orqa qismi bilan urishning ketma-ket almashinib turishi. Bunda “tu-tu” va tilning orqa qismi bilan bir urishda hosil bo‘lgan “ku” bo‘g‘inlari talaffuz qilinadi ya’ni (“tu-tu-ku”). **Misol:**

Legato - tilni tegizish. Umumiy liga bilan birlashgan faqat birinchi notada o‘tish orqali tovush hosil qilishdagi asosiy usullar legatodir. Misol:



Nonlegato - tilning sekin tegishi bilan alohida bog‘lanmagan tovushlarni hosil qilish. Misol:

Portamento - tilning mayin tegishi yordami bilan yuzaga keladigan, tovushdan tovushga ravon o‘tishini ta’minlaydigan, tovushlarning maksimal uzunligini ushlab turishdagi umuman davomli havo oqimidan tovush hosil qilish usulidir. Misol:

Nazorat uchun savollar:

1. Nay cholg‘usida stakkatto usuli qanday ijro etiladi?
2. Nayda legato, nonlegato, portamento ijro usullari haqida nimalarni bilasiz?. Izohlab bering.
3. Nay cholg‘usining mohir ijrochilaridan kimlarni bilasiz?.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

www.nitropdf.com

Durdona

1. Nay pikkalo cholg‘usining diapazonini aniqlang.
2. Nay cholg‘usi taxminiy nechta registrga bo‘linishini o‘rganing.
3. G‘ajir nay haqida tushunchangizni izohlab bering.

Tayanch iboralar: Nay, stakkato, tilni ikki marta tegizish, tilni uch marta tegizish va legato, non legato, portamento.

Torli urma va chertma (chang, qonun) cholg‘ularda zarblardan unumli foydalanish

Chang. Chang cholg‘usining takomillashtirilishi natijasida: chang prima, chang pikolo, chang tenor va chang bas kabi turlari barpo etildi. Hozirgi kun amaliyotida chang prima ommalashgan. Chang pikkolo, chang tenor, chang bas kabi cholg‘ular amaliyotda juda oz qo‘llaniladi.

Urma zarb uslubi changda tovush chiqarishning asosiy ijrochilik uslubidir.

Cho‘plar bilan torlarga urilganda chuqur, to‘la tovush chiqishi kerak. Zarb qanchalik erkin bo‘lsa, torning jarangi shunchalik yorqin bo‘ladi.

Torlarni o‘ng yoki chap qo‘l bilan chertish quyidagicha belgilanadi:

P – o‘ng qo‘l zarbi;
V – chapq’o‘l zarbi;
PV – ikkala qo‘lda baravariga zarb.

Changda - tremolo, legato, cho‘p chertmak, barmoq chertmoq, pitssikato, urma-zarb, cho‘p tarak, tebratma, cho‘p-chizma, terma zarb, qo‘sh notalarni chalish, legato uslublari orqali tovush hosil qilinadi.

Tremolo - tremolo (rez) - ikkita cho‘p (tayoqcha) yordamida uzluksiz, tez zarblarning ketma-ketligidir. Changda uzluksiz tovushni faqat ikkita qo‘lning erkin harakati, tremolo uslubi yordamida chiqarish mumkin. Sifatli tovush ijrochining bir tekis va erkin zarbga erishishi orqali hosil qilinadi. Changda tremolo uslubini ikkitalik notalarda ijro etish imkoniyati ham bor.

Legato - (bog‘lama) - tordan torga sezilmas uzluksiz tremolo yordamida ehtiyotlik bilan o‘tish usulidir. Legato bir necha notani ijro etish pirovardida tekis uzluksiz tovush jarangini ta’minlab beradi. Bunda bilaklar harakati nihoyatda erkin bo‘lishi kerak. Shundagina legato ijro etilayotgan asarga o‘ziga xos bo‘yoq beradi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Cho‘p chertmak(pizz col legno) – tayoqchalarning tekis bo‘lgan orqa yassi qismi bilan torlarni tirnab chertish yordamida tovush hosil qilinadi. Bu uslubga o‘tilganda tayoqchalarni yuqoriga o‘girib, bosh va ko‘rsatkich barmoqlar yordamida siqiladi. Chertish xuddi zarbga o‘xshab ijro etiladi.

Barmoq chertmoq (pizzicato) - uslubida esa torlarga barmoqlar bilan mayin chertiladi. Bu uslub amaliyotga chang ijrochiligining takomillashuvi natijasida kiritildi. Changda pizzicato quyidagicha ijro etiladi: ikkita qo‘l barmoqlari bilan ikki va undan ko‘p tovushlarni chertish; qo‘llarning birida bittadan to uchtagacha tovushlarni chertish; bir vaqtning o‘zida bitta qo‘lda chertib, ikkinchi qo‘ldagi cho‘pda esa zarb berish yoki chertish ham mumkin.

Pissikato – uslubi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib unda uch, to‘rt, olti tovushdan iborat akkordlarni ijro etish mumkin. *Pizzicato col legno* usuli bilan esa faqatgina ikkita tovushni chalish mumkin. To‘rt tovushli akkordlarni ijro etish uchun katta va o‘rta barmoqlar qatnashadi. Olti tovushli akkordlarni ijro etishda esa katta, o‘rta va kichkina barmoqlar ishlatiladi.

Piццikato usuli cho‘p bilan ijro etilganda (*pizzlcol legno*) o‘tkir, jarangdor va aniq tovush hosil bo‘ladi. *Tremolo, col legno; pizz. col legno* va *pizzicato* usullari Chang chalishda ta’sirchanlik va texnik imkoniyatlarni ancha boyitadi. Ilgarilari bu usullar an’anaviy musiqa ijrochiligida qo‘llanilmas edi. Bu usullardan bir vaqtning o‘zida baravariga foydalanish ham mumkin.

www.nitropdf.com

Durdona

Urma-zarb (staccato con sordino) - uslubida bir qo‘l bilan torga berilgan zarbni bir zumda ikkinchi qo‘l barmog‘i bilan tovush ohangi so‘ndiriladi. Bu uslubning e’tiborlishi shundaki, uning yordamida tovush jarangining odatdagi uzunligi kamaytiriladi, tovush yumshatilib, kuchsizlantiriladi. Changda chaluvchi sozandalar urma-zarb uslubini kichik oktava soldan, birinchi oktava solgacha bo‘lgan diapazonda qo‘llashni tavsiya etadilar.

Cho‘p tarak (col legno) - uslubida tayoqchaning ikkinchi yassi, yalang qismi bilan torlarga zarb beriladi. Bu uslubni ijro etayotganda bilaklar va tayoqchalar zarbdan keyin bir zumda torlardan qochishi kerak. Shundagina jarangli uzluksiz tovush hosil bo‘ladi. Bu uslub birinchi marta S.Boboyevning xalq cholg‘ulari orkestri bilan ijro etgan “Konsertino” asarida qo‘llanilgan.

Tebratma (vibrato, vibratsiya) uslubida qo‘l barmoqlari bilan torga zarb berililadi, so‘ngra top ikkinchi qo‘l barmog‘i bilan asta-sekin tebratiladi. Bu uslubni cho‘p tarak uslubi bilan birgalikda qo‘llanilishi ohangni yahada mazmundor bo‘lishiga undaydi.

Cho‘p-chizma (glissando col legno, glissando) uslubida bir tordan boshqasiga cho‘pning yassi tomoni bilan kerakli tovushgacha sirg‘anib o‘tiladi. Glissandoni bir vaqtning o‘zida ikkita qo‘lda cholg‘uning butun diapazonida ijro etish ham mumkin. O‘ng qo‘l boshlaydi, chap qo‘l davom ettiradi yoki aksincha.

Sakratma-zarb (staccato, stakkato) uslubida o‘ng va chap qo‘llarda tayoqchalar torlarga yengil va tez zarb berilishi bilan tovush shakllantiriladi, natijada zarbdan so‘ng aniq bo‘lingan urg‘uli tovush hosil bo‘ladi. U bitta tordan yoki bir tordan boshqasiga o‘tilayotgan jarayonda ham ijro etilishi mumkin.

Terma zarb (arpejio, arpedjio) uslubi chang ijrosida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu uslubni changning butun ijro diapazonida qo‘llash mumkin. Bu uslubning xususiyatli tomonlaridan biri shundaki, u orqali garmonik akkordlar changda yaxshi jaranglaydi.

www.nitropdf.com

Durdona

Qo‘sh notalarni ijro qilish: Changda turli intervaldagi qo‘sh notalarni istalgan usulda ijro qilish mumkin. Lekin e’tiborni tortadigan tomonlaridan biri shundaki, qo‘sh notalar ijro etilish davrida ijroning tezligi ozgina sekinlashadi, chunki ijrochi bir qo‘lning o‘zida bir necha bor harakat qiladi.

Shunday qilib chang asosiy kuyni, jo‘rnavozlikni har xil interval, arpedjio, glissando, pissikato usullarini bemalol chaladi. Virtuoz asarlar chalish imkoniyatiga ega. **Masalan:**

Nazorat uchun savollar:

1. Chang cholg‘usida qanday uslubiy ijro imkoniyatlari mavjud?.
2. Changlar oilasi qaysi cholg‘ulardan iborat? Izohlab bering.
3. Qonun cholg‘usining qanday shtrix va ijro uslublarini bilasiz?.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Chang cholg‘usining tarixini o‘rganing.
2. Chang cholg‘usi sinfining namoyandalari faoliyatini o‘rganing.
3. Qonun cholg‘usida qanday shtrixlar va ijro uslublari qo‘llanilishini o‘rganing.

Tayanch iboralar: Cho‘p chertmak, barmoq chertmoq, pitssikato, urma-zarb, cho‘p tarak, tebratma, cho‘p-chizma, terma zarb, qo‘sh notalarni chalish.

DURDONA

Torli-mizrobli cholg‘ularda ijro etganda mizrobdan to‘g‘ri foydalanish, mayin va sifatli ovoz tarovatiga erishish usullari

Bu guruhda asosan asarning badiiy ifodasi hamda ritmik shaklini ijro qilish uchun bir qator cholg‘ular yig‘ilgan. Jumladan, rubob prima – o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrida diapazon jihatdan katta va ijro mahorati bo‘yicha asarning badiiy va akkamponoment qismini ijro qilish imkoniyati bor. Qashqar rubobi – o‘zbek milliy melizm hamda barcha ovozlar bilan uyg‘unlasha oladigan cholg‘u. Afg‘on rubobi asosan xarakteri jihatidan mungli va kuychan hamda akkamponoment (jo‘r bo‘lish) vazifasini bajaradi.

www.nitropdf.com

Durdona

Torli-mizrobli cholg‘ularda mediator - (grekcha vositachi ma’nosini anglatadi) vositasida tovush hosil qilinadi.

Rubob prima. Bu cholg‘uda pastga zarb, yuqoriga zarb, rez usuli, pitssikato, flojolet, stakkato, legato, glisando, forshlag, mordent, trel kabi turli shtrixlarni va ijro uslublarini ishlatish yo‘li bilan ijro qilish mumkin.

Pastga zarb – mediator yordamida harakat bilan torni tebrantirish natijasida tovush hosil etish usuli bo‘lib uni bajarilishida panjaning harakat masofasi barcha torlarda bir xil bo‘lishi kerak.

Yuqoriga zarb – mediator yordamida past zarbga qarshi tomon harakat qilish bilan amalga oshiriladi va o‘ng qo‘l panjasining yuqoriga bo‘lgan harakati pastga bo‘lgan harakatga nisbatan kuchsiz va noqulay. Shunga ko‘ra ijro uchun alohida mashq talab etadi. Bunda yuqoriga zarb bilan hosil etilayotgan tovushning kuchi pastga yo‘naltirilgan zarbning tovush kuchi bilan teng bo‘lishini ta’minlash kerak.

Rez usuli – zarblarni navbat bilan pastga va yuqoriga qilib jadal ravishda ijro etish usuli bo‘lib, rez usuli muvaffaqiyatli ijro etilishi uchun pastga va yuqoriga zarblar puxta va erkin bo‘lishi kerak.

Pitssikato – mediator o‘ng qo‘l orasiga olinadi va bosh barmoq yordamida yuqoridan pastga qarab ijro harakati bilan tovush hosil qilinadi. Sifatli tovush hosil bo‘lishiga erishish uchun bosh barmoq torning dastaga yaqin joyida ijro etilhsi kerak

Chap qo‘l bilan ijro etiladigan pitssikato usuli ham mavjud bo‘lib bunda bir yo‘la ikkita barmoq ishtirok etadi. Birinchi barmoq kerakli pardaga bosiladi, ikkinchisi esa shu pardani tebratib tovush hosil qilinadi. Tovush hosil qiladigan barmoqning harakati dastaning pardalar joylashgan sathiga parallel bo‘ladi.

Flajolet (fr. flageolet – naycha). Nayga o‘xshash va shu shakldagi puflama cholg‘u asbob. S.Turatov flajolet ushuli haqida quyidagich ta’tif beradi[11]: “Flajolet usuli bilan tovush hosil qilishda chap qo‘l barmog‘ini torga yengil tekiziladi va mediator yordamida shu tor chertilgan zahoti chap qo‘l barmog‘i tordan olinadi. Natijada, torning ma’lum qismi tebranib, nisbatan ingichka va tiniq tovush hosil bo‘ladi.Torning teng 2,3,4,5 va 6 qismiga bo‘lingan nuqtalarida tabiiy flajolet usuli bilan tovush hosil qilish mumkin”.

[11] S.Turatov Xalq cholg‘ularini o‘rganish. (O‘quv qo’llanma)T.: 2015. b.19-20

www.nitropdf.com

Durdona

Masalan:

Stakkato (it. Staccato – ajratilgan, alohida) – uslubida mediator zarbida tovushlarni qisqa-qisqa, birini boshqasidan pauzalar bilan ajratib ijro etiladi Nisbatan jadal tezlikda chalinadigan asarlarni bunday uslubda ijro etish imkoniyati bo‘lmaydi va bu holda tovushning qisqaligi tezlik hisobiga erishiladi.

Misol:

Legato (bog‘lab, silliqlab). Rubob primada ushbu uslub asosan rez bilan amalga oshiriladi va rez to‘xtatiladi. Rez holatini yuqoriga yo‘naltirilgan holda tamomlash maqsadga muvofiqdir. Rubob-primada legato uslubi tordan-torga o‘tib ijro qilish va shu bilan bir qatorda tovushlarni bir-biriga ulab ijro qilish ijrochidan katta mahoratni talab qiladi. **Misol:**

Glissando (it. Glissando, fr. glisser - sirg‘anib) – bir tovushdan ikkinchi tovushga silliq siljish, sirg‘alib o‘tish uslubi bo‘lib bir tovushdan ikkinchi tovushga sirg‘alish tezligi bir maromda bo‘lishi va ikkinchi tovush o‘z vaqtida chalinishi kerak.

Forshlag (нем. Vorschlag, Schlag- zarb)–bir yoki bir nechta tovushlardan iborat ohangdor bezak. Forshlag ijrosi o‘zidan so‘ng kelgan odatdagi asosiy nota bilan bog‘lanib keladi va o‘ziga qo‘shni notaning uzunlik miqdorini qisqartirish hisobiga ijro etiladi. Forshlagning ikkita turi mavjud. Birinchisi, chiziqchali forshlag oldingi cho‘zim hisobiga ijro etiladi.

Misol:

www.nitropdf.com

Durdona

Ikkinchisi, chiziqchasiz forshlag bo‘lib, asosan g‘arbiy yevropa klassik kompozitorlari asarlarida uchraydi va keyingi tovush hisobiga ijro etiladi.

Misol:

Mordent (it. mordente – "tishlash, o‘tkir”)– Ohangdor bezak, asosiy tovushning yordamchi bilan almashinishini bildiradi. Barcha mordentlar asosiy notaning davomiyligi yordamida amalga oshiriladi. Mordent, xuddi vibrato (shuningdek, trel) kabi, yozuvda bir xil to‘lqinli chiziq bilan ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Mordent:

Trel (it. trillare – titratmoq, tebranmoq) – bir soniya oralig‘ida joylashgan ikkita qo‘shni notaning tez almashinuvi.Trelning asosiy qiyinchiliklaridan biri o‘ng qo‘l va chap qo‘llar harakatining munosib kelishidir. Aynan 1, 2-barmoqlar boshqalariga nisbatan kuchliroq bo‘lib, ijro birmuncha qulay kechadi.

Yozilishi **Ijro etilishi**

Qashqar rubobi. Xalq orasida keng ommalashgan va eng sevimli cholg‘ulardan biri hisoblanadi. Qashqar rubobida qo‘llaniladigan shtrixlar va ijro uslublari quyidagilardan iborat:

Yakka zarb – rubob torlariga qarata pastga yoki yuqoriga bitta yagona zarb berish bilan amalga oshiriladi. Yakka zarb qo‘lni yuqoridan pastga harakatlantirib (zarb belgisi-**п**) va yuqoriga qarata (belgisi-**v**) zarb berish usuli bilan bajariladi. Bu usullardan asosan o‘rgatishning dastlabki bosqichida foydalaniladi.

www.nitropdf.com

Durdona

Misol:

Qo‘sh zarb – pastgi va yuqorigi zarblarni birin-ketin, bir tekisda urib chalinishiga aytiladi.

Misol:

Bilak zarb – O‘ng qo‘l panjasining barcha torlar bo‘ylab yuqoridan pastga yo‘naltirilgan sirg‘anma harakati bilan mazkur ijro usuli amalga oshiriladi. Bilak zarb usulini ijro etishda mizrob bilan barcha torlar bir tekisda (arpedjio tarzida) ravon chertiladi. Bu belgi nota oldida to_lqinsimon tik chiziq bilan belgilanadi.

Rez (cholg‘u asbobida hosil qilinadigan qisqa tovush) – noxun (mediator) bilan pastga va yuqoriga zarb berishning tez va ketma-ket almashtirib, tovushlarni bir-biriga bog‘lab (uzluksiz) ijro etish usuli hisoblanadi.

Musiaq ijrochiligida nafaqat katta cho‘zimli tovushlar, balki bir tovushni uzub-uzub rez chalish holatlari ko‘p uchraydi. Bu rezning “qisqa rez” rez usuli deb ataladigan turidir.

Qisqa rezni ijro etganda o‘ng qo‘l harakatining yengil bo‘lishi mumkin. Chunki bunda har bir rez alohida uzulgan, ya’ni mizrobni tordan bir oz tepaga ko‘tarilishi va keyingi rezni davom ettirishyo‘li bilan ijro etiladi. Qisqa rez albatta tepaga uzulishi bilan o‘ziga xos bo‘lib, bu rezning oxirida zarb berilmasligiga va yengil bo‘lishiga, shuningdek, o‘ng qo‘lning qotib qolmasligiga olib keladi.

Misol:

www.nitropdf.com

Durdona

Legato (it. “legato” – “bog‘lab”, “silliqlab”) –kompozitor tomonidan belgilangan bo‘lib, uni aynan legato, ya’ni tovushlarni bir-biriga bog‘lab chalish kerak bo‘ladi.

Legato tovushlarni ma’lum mazmun ostida birlashtiradi. Buni amalga oshirish qashqar rubobida rez usulida yoki torni mayin, yumshoq sarb bilan urish usulida amalga oshiriladi.

Misollar:

Stakkato mizrob bilan keskin urib, chap qo‘l barmoqlari yordamida tordagi ovozni keskin o‘chirish orqali amalga oshiriladi. Lekin ***ff*** chalganda ham **pp** chalganda ham stakkato usuli qo‘llaniladi. Bunday holda ham tovushning qisqa, aniq va shiddatli bo‘lishini seza bilish muhim. ***ff*** chalganda mizrobning o‘rtasi bilan qatytiq chalinsa, **pp** da esa mizrob uchi bilan nisbatan past ovozda keskin urib bunga erishish mumkin. O‘ng qo‘l harakat amplitudasining qisqa bo‘lishi tovush kengligini ta’minlab beradi.

Misol:

Stakkato shtrixlari har qaysi kuyda o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi. Sozanda ularga e’toborga olishi va shtrixlarni ijro etishda asarning xarakteridan kelib chiqishi maqsadga muvofiq.

Ufori zarb – o‘zbek xalq yalla va raqs kuylari uchun xarakterlidir. Mazkur usul an’anaviy musiqa ijrosiligida keng qo‘llaniladi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Teskari zarb – o‘ziga xos sinkopali ritm xarakteriga ega. Musiqa taktlarining kuchli hissalari bilan zarb aksentining mos kelmasligi teskari zarb usulini keltirib chiqaradi. U mizrob bilan bir tomon (past)ga zarb berishning ikkinchi choragiga qat‘iy rioya qilish va bir yo‘nalishdagi zarblarning oxirgi choragining sakkizdan uchini birlashtirilishi natijasida hosil bo‘ladi. Teskari zarbning bir necha turlari uchraydi.

Misollar:

DURDONA

Zarbi parron – chalish uslubi ijrochilikda ko‘p qo‘llaniladigan zarblardan hisoblanadi. U rubob bilan birga tanbur, ud, chang kabi cholg‘ular uchun ham xarakterlidir.

Bidratma – ikki yonma-yon tovush tebranishidan hosil qilinadi. U eng qisqa va eng uzun tebranishdan iborat bo‘lishi mumkin. Mezrob (mediator)ni torga urib va torga urmasdan ijro etish usuli bitratmaga ham taalluqlidir.

Trel - asosiy tovushning keyingi tovush bilan almashib turishi natijasida paydo bo_lgan tovush bidratma tovush deyiladi.

To‘lqinlatish (lot. vibratio-titrash, qaltirash). Deyarli barcha xalq cholg‘ulari va ashula ijrochiligi uchun xos bezak. Rubobda barmoq bosilgan pardada qimirlatib turish yo‘li bilan to‘lqinlashtirish hosil qilinadi.

www.nitropdf.com

Durdona

Nolish – yarim tongacha bo‘lgan o‘ziga xos yirik bidratma. Rubob ijro qilganda bu usul chap qo‘l barmoqlarini vertikal, bosib harakatlantirish bilan ijro etiladi.

Molish – barmoqni bir tovushdan ikkinchi tovushga ohangdor, ohista sirg‘altirish usuli. U “glissando”ga yaqin bo‘lib, badiiy talqin etishning muhim vositalaridan hisoblanadi. Shu bilan birga, tovush chiqarishning bir necha turlari bilan xarakterlanadi.

Kashish – yarim ton doirasida amalga oshiriladigan bezak usuli. Bunda barmoqlar rubob dastasida pardaga bosiladi va ikkinchi barmoq bilan vertikal holida yarim tongacha tor eziladi.

Afg‘on rubobi. Bu cholg‘uda ovoz chiqarish mezrob (mediator) yordamida amalga oshirilib, qashqar rubobida xos barcha ijro imkoniyatlarini qo‘llash mumkin.

Forshlag – kuyning asosiy tovushidan oldin keladigan, qisqa chertib o‘tiladigan tovushga aytiladi.

Durdona

Nazorat uchun savollar:

1. Mizrobli va chertma (tirnama) cholg‘ular guruhiga qaysi cholg‘ular kiradi?.
2. Qashqar rubobi qanday usullarda ijro etiladi? Tuchuntirib bering.
3. Rubob primada ijrochilik ko‘nikmalari qanday amalga oshiriladi?
4. Afg‘on rubobida mohir ijrochilardan kimlarni bilasiz?.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Mazkur guruhga kiruvchi barcha cholg‘ularning diapazoni, sozlanishi va ularda foydalaniladigan shtrixlarni o‘zlashtiring.
2. Biror musiqa asari bo‘lagini mezrobli cholg‘ulardan tashkil

www.nitropdf.com

Durdona

topgan ansambl ijrosiga moslashtirib ko‘ring.

3. Afg‘on rubobining bugungi kundagi musiqa ta’limidagi o‘rni va ahamiyatini izohlab bering.

4. Nolish, Molish, Kashish ijro uslublarini o‘zlashtiring.

Tayanch iboralar: Torli-mizrobli cholg‘ular, zarblar, ijro uslublari, melizmlar.

Torli-chertma cholg‘ularda mayin va sifatli ovoz tarovatiga erishish uslublari

Dutor. O‘zbekistonda keng tarqalgan cholg‘ulardan biri. Dutor kuylari asosan birinchi torda ijro etilsada, ikkinchi tor o‘sha kuyga qo‘shilib, doimiy sado berib turishi ushbu cholg‘uni boshqa cholg‘ulardan ajratib turadi.

Dutolar oilasiga mansub dutor prima, dutor sekunda va dutor tenor kabi cholg‘ular o‘zining ijro va jarang jihatidan sozanda talabiga javob bera olmaganligi bois amaliyotda juda kam qo‘llaniladi. Ular asosan ijro uchun tanlangan asarning mazmun-mohiyatiga qarab qo‘llanilmoqda**.**

S.Turatov[12] dutor cholg‘usida ijrochilik ko‘nikmalarini hosil qilishda quyidagi zarblarni va ijro uslubini egallash lozimligini bayon etadi.

Yakka zarb – (П-П) pastga panja, ya’ni 4,3,2,1 barmoqlar bilan dutor torlariga urib ijro qilinadi. (V) – bu belgi esa yuqoriga bosh barmoq bilan ijro qilishni bildiradi.

Misol:

Teskari zarb – bilak va alohida barmoqlar bilan quyidagicha ijro qilinadi. **Misol:**

[12] Turatov S. Xalq cholg‘ularini o‘rganish. (O’quv qo‘llanma): T.: 2015. b. 60-61.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Bu zarbni 1, 4 va 7 zarbi kuchli, ya’ni aksent bilan boshqa zarblar yuqoriga bosh va ko‘rsatgich barmoqlar bilan sadolantiriladi. Teskari zarbni terma zarb bilan bezab ijro qilish mumkin. **Misol:**

Ufori zarb – doyra zarbi nomi bilan atalib, dutor cholg‘usi ijrosida juda keng qo‘llaniladi. Yozilishi va ijro uslubi quyidagicha. **Misol:**



Pitssikato – dutor ijrochiligiga balalayka va gitara cholg‘ularidan kirib kelgan. U dutor cholg‘usida 2 xil ijro qilinadi. Bittalik pitssikato bosh barmoq bilan faqat pastga ijro qilishdir, bitta toridan tovush chiqariladi. Ikkitalik pitssikato pastga bosh barmoq va yuqoriga ko‘rsatgich barmoq bilan bitta toridan tovush chiqariladi va qisqartirib pizz. so‘zi bilan belgilanadi.

Dutor bas. Dutor bas chalishda mediator (lot. mediator-vositachi)dan foydalaniladi. Dutor-basda xilma-xil interval, uchtovushlik va to‘rt tovushlik akkordlarini qiyinchiliksiz ijro etish mumkin. Dutor bas cholg‘usini ijro qilish uchun qo‘llaniladagan turli shtrixlar va ijro uslublar quyidagilardan iborat:

Bir taraflama chertish – 1. Torlarni balanddan pastga qarab chertish. 2. Pastdan yuqoriga: bunda mediator pastdan yuqoriga qarab birdaniga bir necha tovush chiqarish uchun bir taraflama (nota ustidagi (∧) belgisi) zarb beradi.

Ikki taraflama (almashuvchi) – yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga qarab zarb berish usuli (belgilari ∨ (pastga), ∧ (yuqoriga). Mazkur usul tez sur’atli asarlarni ijro etishda qo‘llaniladi.

Stakkato – qisqa-qisqa, uzuq tovush, mediatorning torlarga pastga yoki balandga qarab sekin va mo‘tadil kelib urilishidan hosil bo‘ladi. Tez sur’atlarda stakkato mediatorning turli tomonlarga zarb berishi bilan ijro etiladi.

Tremolo (it.t remolo – titrab turuvchi) bir tovushni ko‘p marta tez-tez qaytarib chalish. Mizrobli cholg‘ularda mediatrning torga galma-galdan pastga-balandga, bir maromda tez-tez zarb berishi bilan

www.nitropdf.com

Durdona

paydo bo‘lib, har qanday uzoq davom etuvchi kuyga muntazam jarang beradi.

Pitssikato – torni bosh barmoqning yumshoq uchi bilan bosish. Bunda mayin, shirali ovoz chiqadi. Bas dutorda pitssikatoning akkordlari, ayniqsa arpedjiatoning ijro etishi yaxshi samara beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Dutorlar oilasi qanday cholg‘ulardan iborat?. Izohlab bering.
2. Nima uchun dutor kuylari asosan birinchi torda ijro etiladi?.
3. Dutorlarni chalishda qanday shtrixlar qo‘llaniladi?.
4. Dutor bas cholg‘usini o‘zlashtirishda qanday shtrixlar va uslublar qo‘llaniladi?.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Dutor oilasi tarkibiga kiruvchi cholg‘ularning sozlanishi, diapazoni, ishchi diapazonini yodlang, ularda ishlatiladigan shtrixlarni o‘rganing.
2. Internet orqali Markaziy Osiyo xalqlarida qo‘llaniladigan dutorsimon cholg‘ular to‘g‘risida ma’lumotlarni to‘plang va ularni o‘zbek dutori bilan taqqoslab ko‘ring.

Tayanch iboralar: Dutor, yakka zarb, teskari zarb, ufori zarb, bir taraflama chertish, ikki taraflama chertish.

DURDONA

Torli-kamonli cholg‘ularda yoqimli va sof ijroga erishish

Torli-kamonli cholg‘ular guruhiga g‘ijjak, g‘ijjak alt, g‘ijjak bas, g‘ijjak kontrabas cholg‘ulari kiradi.

G‘ijjak – O‘rta Osiyo xalqlari, xususan, o‘zbeklar orasida qadimdan keng tarqalgan kamoncha bilan ijro qilinadigan torli cholg‘udir.

G‘ijjak cholg‘usida ijro qilishda qo‘llaniladigan shtrixlar va ijro uslublari:

Detashe (fr.detache, detacher – bo‘lish, ajratish).



Kamon g‘ijjakni simlarida, qaysi barmoq bosishidan qat’iy nazar, pastdan yoki yuqoridan ravon, juda mayin, har bir tovush aniq,

www.nitropdf.com

Durdona

dona-dona ijro etilishi bilan xarakterlanadi va notalar alohida punktir chiziqlar bilan belgilanadi.

Detashe asarning xarakteri, sur‘ati, dinamikasiga qarab kamonning butun uzunligi bilan hamda pastki, o‘rta va yuqori qismlarida ham qo‘llanadi.

Legato – notalarni uzluksiz ijro etish uslubi. Ya’ni, kamonning bir tomonga harakatida ikki va undan ortiq tovushlarni bir-biriga ulab chalish.

Bu shtrix orqali g`ijjakning mayin, nafis, kuychanlik sifatlari yaqqol ko`rinadi. Nechta tovush kamon harakatining bir tomoniga ijro etilishiga qarab, kamon ham teng taqsimlanishi kerak.

Legato bir torda va bir necha torlarda ijro etilganida, navbatdagi torga o‘tishdan oldin kamonni o‘sha torga asta yaqinlashtiriladi va shu usul orqali tovushlarning tekisligi, mayinligi va yumshoqligi saqlab qolinadi.

Liga chizig‘i bilan birlashtirilgan notalarning ustiga yoki ostiga qisqa chiziqchalar qo‘yilgan bo‘lsa, unda shu notalar kamonni pastga yo yuqoriga yo‘nalrtirish bilan yengil to‘xtatib, ajratib ijro etiladi. Bu shtrix ***portato*** (italyancha – ta’kidlash) deyiladi.

Portato. Notalar ostida yoki tepasida ligali chiziqchalar bilan ko‘rsatilgan. Ushbu shtrix dinamik ravishda teng, tovushning davomiyligi maksimal darajada oxirigacha, asosan sokin nuanslarda saqlanadi.

Portato shtrixi "legato" va "stakkato" o‘rtasida oraliq joyni egallaydi. U "legato" paytida tovushlarning artikulyatsiyasini oshirish uchun (ya’ni "legato" da notalarni ajratib ko‘rsatish, ta’kidlash uchun) va ma’lum bir to‘lqinga o‘xshash tovush samarasini yaratish uchun ishlatiladi. Shtrix muloyim va xushohangdagi yumshoq "stakkato" ga o‘xshaydi. Har bir legato tovushining boshida kamonning bosimini

www.nitropdf.com

Durdona

oshirish va keyin qo‘lning yumshoq harakatlari yordamida uni bo‘shatish orqali erishiladi.

Kamonli sozlarda juda ommalashib ketgan belgilaridan biri markatodir.

Markato (it. Marcato - tagiga chizilgan) – cholg‘u asboblarini chalishda artikulyatsiya usuli.

Kamonli torli cholg‘u asboblarini chalishda u detashe texnikasiga asoslanadi (har bir nota kamonning alohida harakati bilan chalinadi). Ushbu usulning mohiyati tovushning boshida qattiq hujum, keyin esa tovushning zaiflashishi. Har bir nota oldidan, kamon yo‘nalishi o‘zgargan joyda ijrochi qo‘l va kamon bilan ko‘rinmas to‘siqni olib tashlashga o‘xshash harakatni amalga oshiradi, bu notaning boshida yaxshi hujum qiladi. Keyinchalik, kamon sim bo‘ylab inertsiya bilan "o‘tib ketadi" va tabiiy ravishda sekinlashadi.

Ijroda bu uslub kamonni sozning torlariga zich bosib shahdam harakatlar bilan hosil qilinadi. Shuningdek, marcato - bu har bir tovushning kuchli hujumi bilan puflama asboblarini chalish usuli.

Martelé, martle (martelé, frantsuzcha marteler - urmoq, urish, zarb qilish) - kamonli musiqa asboblarini chalishda asosiy zarbalardan biri. Boshida keskin urg‘u va har doim tovushlar orasida pauza bilan keladigan zarb. Kamon shaxdam, tez tortiladi, keskin to‘xtatiladi va o‘zining cho‘zimini teng yarmi hisobida pauza xosil qilinishi shart. Martele notalar ustida xanjarga o‘xshash belgi bilan ifodalanadi.

Martle - skripka chalishdagi artikulyatsiya usuli bo‘lib, u detashe chalish texnikasiga asoslangan. Bu usul marcato zarbasiga juda o‘xshaydi (har bir nota kamonning alohida harakati, qattiq hujum, keyin ovozning zaiflashishi bilan), lekin farqi shundaki, boshida ijrochi kamonni bosib, notani tayyorlaydi. torni va o‘ng qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘ini kamonga bosib, xuddi tovush chiqarishdan oldin ipni tortganday, hujumga maxsus kuch beradi.

www.nitropdf.com

Durdona

Stakkato - qisqa uzib – uzib chalishga aytiladi. Bu uslub ham bizning ijrochiligimizga mos, o‘ziga xos xususiyatli belgilardandir. Uni har bir ijrochi amaliyotida, ma’noli ijrochiligimizning cholg‘u va ashula bo‘limlarida, bastakorlik ijodlarida uchratish mumkin. Stakkato belgisi nota tovushlarining ustki yoki ostki qismiga nuqtasimon (.) qilib belgilanadi.

Stakkato shtrixi asosan, ko‘proq hollarda kamonni yuqoriga yo‘nalishida qo‘llanadi.

Viotti shtrixi italyan kompozitori, skripkachi Viotti nomiga qo‘yilgan. Avval birinchi tovush alohida, keyin kamonni har bir yo‘nalishi bo‘yicha ikkitadan notalar chalinadi. Bunda ikkitadan chalinadigan notalarning birinchisi kuchsiz, ikkinchisi kuchliroq, bo‘rttirib ijro etiladi. Bu holat tovush cho‘zimlarining sinkopa, ya’ni kuchli hissa kuchsiz hissaga o‘tishidek tarzda ifodalanadi.

Spiccato (italyancha spiccare – uzub tshlash, ajratish) - bu torli cholg‘u asboblarida ishlatiladigan musiqiy shtrix. Kamonni sim ustida sakrab – sakrab harakatlantirish orqali qisqa, keskin tovushi chiqariladi. Bu uslub ijroda o‘zlashtirilgandan so‘ng, asta – sekinlik bilan chiqariladigan ijro usuli hisoblanadi.

Bu shtrixni ijro etishda kamonning ayni kerak joyidan foydalanish tavsiya etiladi. Kamonning boshlanish ya’ni (kolodka) qismidan o‘rta

www.nitropdf.com

Durdona

qismiga (ammo teng o‘rta qismi emas) yaqin joyida ijro etilsa shtrix o‘z sifatini to‘liq ko‘rsatadi. Chunki shu joyda kamonning taranglik xususiyati ko‘proq.

Sautille (fransuzcha sautiller - sakrash, irg‘ish, sapchish) - "sakrash" shtrixlari guruhiga kiruvchi kamonli- torli cholg‘u asboblarining shtrixi. Sautille shtrixi - bu tafsilotning keskin tezlashishi, kamon sonini va uni torga bosish kuchini kamaytirish bilan yuzaga keladigan engil va virtuoz teginish. Notalar ustidagi nuqtalar va nota shtilida tire bilan ko‘rsatilgan. Sotille og‘irlik markaziga yaqin (yoki biroz balandroq) kamonning o‘rtasida amalga oshiriladi. Spikkatodan farqli o‘laroq, sotillet chalganda kamon torga sakramaydi, balki u tomonidan orqaga sakraydi. Spiccato va sautilleni tovush va artikulyatsiya tabiati nuqtai nazaridan, shuningdek, ba’zi texnik jihatlari nuqtai nazaridan taqqoslab, ushbu shtrixlarni bog‘liq deb hisoblashimiz mumkin.

Temp tezlashganda, kamon o‘zining o‘rta qismiga o‘tadi. Shu bilan birga, kamon qilining o‘z tebranishlari kuchayadi va u xuddi o‘z-o‘zidan tordan sakrab tusha boshlaydi va qo‘l uni umumiy nazorat

qiladi, endi bitta tovushga emas, balki ritmik ravishda tashkil etilgan to‘rt yoki tovush guruhiga qaratiladi: sakkizta, o‘n oltita nota (tempga qarab). Shunday qilib, spiccato tovuch organik ravishda sautilga o‘tadi. Shunga o‘xshash, ammo teskari tartibda, sautilledan spiccatoga o‘tish jarayoni sodir bo‘ladi.

Pitssikato (italyancha pizzicato, pizzicare dan — yulib uzmoq) — kamon cholg‘u asboblarida chalish texnikasi bo‘lib, tovush odatdagidek kamon bilan emas, torni yulib chiqarish orqali hosil bo‘ladi, bu esa uni davomiyligini xiraroq, jimroq va qisqaroq qiladi. Ushbuni texnika bilan chalishning boshlanishi "pizza" deb qisqartirilgan, oxiri "arco" (italyanchadan kamon bilan) yoki "coll'arco" (kamon) bilan belgilanadi. Shuningdek, "Pizzikato" to‘liq yoki asosan ushbu texnikadan foydalangan holda ijro etilgan cholg‘u asariga berilgan nom hamdir.

www.nitropdf.com

Durdona

Pizzikato odatda o‘ng qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘i bilan ijro etiladi, musiqachi qolgan barmoqlari bilan kamonni ushlab turadi, chunki ko‘pincha pizzikatoni ijro etgandan so‘ng, bastakor odatdagi ovoz chiqarish usuliga qaytishni talab qiladi (notalarda bu qaytish "arco" yoki "coll'arco" sifatida qayd etilgan bo‘ladi). Agar notalar pitsikato chalish uchun yetarlicha uzoq vaqtni ta’minlasa va shu bilan birga musiqachi pauza shaklida ma’lum vaqtga ega bo‘lsa, kamon chetga (musiqa stendida) qo‘yiladi va ijrochi o‘ng qo‘lining barcha barmoqlaridan foydalanishi mumkin, bu unga juda murakkab ritmik formulalarni bajarishga imkon beradi.

Ba’zida bastakor butun akkordlarning pitsikato ijrosini talab qiladi, bu holda o‘ng bosh barmog‘i ishlatiladi, bu musiqachi ikki, uch yoki to‘rt notadagi hamohanglikni qo‘lga kiritib, torlar bo‘ylab (odatda pastdan yuqoriga) keskin olib boradi.

Misol:

Vibratsiya (tebranish). Tebranish kengroq tushunchadan hosil bo‘lgan so‘z - "vibrato" (vibrato - italyan, vibratio - lot.), "tebranish" degan ma’noni anglatadi. Musiqada tovush tebranishi uning tusi va tembrini o‘zgartirish uchun ishlatiladi. Ammo turli asboblarda tebranishning texnik usullari bir-biridan farq qiladi: agar damli cholg‘ularda tebranish vokalchilar kabi havo oqimidagi bosimning o‘zgarishi natijasida yuzaga kelsa, torli asboblarda tovush tebranishlari barmoqni torga silkitishdan kelib chiqadi.

G‘ijjak cholg‘usida tebranish torni bosgan barmoqning tebranishidan hosil bo‘ladi. Torni asosiy holatidan yuqori yoki pastroq bosish orqali barmoq bir tekis harakatlanadi va tovushning davriy o‘sishi va pasayishiga olib keladi.



Tebranish tovushlarga o‘ziga xos rang, ohangdorlik beradi, ularning ifodaliligini, shuningdek, ayniqsa, yuqori sharoitida dinamiklikni oshiradi. Vibratsiyaning tabiati va undan qanday foydalanish ijrochining individual talqin uslubi va badiiy jo‘shqinlik, serg‘ayratlilik bilan belgilanadi.

www.nitropdf.com

Durdona

Vibratsiya kamonli cholg‘ular musiqasida eng ifodali vositalardan biridir. Uning yordami bilan hissiy tarkibni to‘liq yetkazish mumkin. Aynan tebranish tovushga o‘ziga xos ohangdorlik va go‘zallik baxsh etadi.

Barmoq torni kerakli joyga bosadi, tez sur'atda tebranadi. Barmoqning tordagi holatini o‘zgartirish tovush balandligining biroz oshishi yoki pasayishiga olib keladi, bu tez tebranishlar paytida sezilmas bo‘lib qoladi va faqat chiroyli tebranish tovushi quloqda payqap olinadi.

Nazorat uchun savollar:

1. G‘ijjak cholg‘usi qanday shtirixlarda ijro etiladi?
2. G‘ijjakda Detashe, Markato shtrixlari qo‘llaqnilganda qanday talablar bajariladi?
3. G‘ijjak cholg‘usi bo‘yicha mashhur sozandalar faoliyatini bilasizmi?.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Mazkur guruh tarkibiga kiruvchi cholg‘ularning sozlanishi, diapazoni va ijro shtrixlarini o‘rganing.
2. Kamonli cholg‘ularda ijro etiladiga shtrixlari to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plang.
3. Vibratsiya kamonli cholg‘ular musiqasida eng ifodali vositalardan bir ekanligini izohlab bering.

Tayanch iboralar: G‘ijjak, kamon, ijro uslublari, stakkato, spiccato, pitssikato, detashe, markato, legato, tebranish.

Zarbli cholg‘ularda ifodali ovoz tarovatiga erishish va ijro mahoratini egallash usullari

Doyra – o‘zbek musiqiy ijrochiligida usul (ritm) beruvchi eng asosiy cholg‘u hisoblanadi. Doyra usullari o‘zbek musiqasida ahamiyatli va zarur jihatlarni o‘ziga mujassam etgan. Doyrada ovoz tarannum etishning o‘z falsafasi bor. Zarblar sifati ularning kuchi bilan belgilanmaydi. Zarbning salohiyati uning mazmunidadir. Doyra tabiatdan usul ijrosi uchun moslashgan cholg‘u. Doyra ijrochilik amaliyotida jo‘r soz, jo‘rnavoz soz sifatida hattoki, simfonik orkestrlar tarkibidan ham o‘rin oldi.

www.nitropdf.com

Durdona

Doyrani chalishda qo‘llaniladigan ritm birliklari (naqralar) haqida qadimiy manbalarda yozilgan. Yuqorida qayd qilib o‘tilganidek, doyra usuli odatda ikki xil zarbdan iborat. Biri — *bak* (baka, bako, bakka, bakko). Bak doyra gardishiga yaqin joyga urilganda chiqadigan tovushdir. Ikkinchi zarb — *bum*. Bumni chalish uchun barmoqlarni cho‘zib doyraning o‘rtaroq qismiga uriladi. Xullas, doyrada hosil qilinadigan bo‘g‘iq tovush – bum, jarangdor tovush – bak, o‘ta jarangdor tovush esa – noxun, deb yuritiladi.

Doyrada ifodali ovoz tarovatiga erishish va rang-barang usullarni ijro etish mahoratini egallash uchun membranaga (teriga) to‘g‘ri urish kerak. Ikkala qo‘l barmoqlari ham bir xil harakat qilgani ma’qul. Tovush samaradorligiga erishishda ikkala qo‘l va barmoqlar bir xil xizmat qiladi.

O‘ng qo‘l uchun mo‘ljallangan katta bum 4 barmoqni zich juftlagan holda membranaga urib ijro etiladi. Bosh barmoqqa kiygizilgan tasma doyra gardishi o‘rtasiga zich tegib turishi lozim.

Misol: Katta bum

O‘ng qo‘l uchun mo‘ljallangan kichik bum o‘rta barmoqni sal bukib uriladi. O‘ng qo‘l bilan ijro etiladigan hamma holatlarda bosh barmoq katta bum uchun ko‘rsatilgan vaziyatda bo‘ladi.

Misol: Kichik bum

O‘ng qo‘l uchun mo‘ljallangan kichik bak membrananing cheti – gardishga yaqin joyiga to‘rtinchi barmoqni keskin urib ijro etiladi. Boshqa barmoqlar kerilgan holatda bo‘lib, membranaga tegmasligi kerak.

Misol: Kichik bak



Noxun jimjiloqni to‘rtinchi barmoq ustidan sirg‘antirilib doyraning chekkasiga chertganday urib ijro etiladi. Qo‘l barmoqlari harakatga kelmaydi.

Misol: Noxun



Noxun chap qo‘l orqali ijro etilganda ham o‘ng qo‘ldagi holatni takrorlaydi – jimjiloq nomsiz barmoq ustidan sirg‘anib membrananing gardishga yaqin qismiga uriladi.

www.nitropdf.com

Durdona

Chap qo‘l uchun mo‘ljallangan katta va kichik bum quyidagi belgi bilan izohlanadi. Masalan:

Nazorat uchun savollar:

1. Zarbli cholg‘ular guruhiga qaysi cholg‘ular kiradi?.
2. Membrafon va idiofon degani nima?.
3. Doyra chalishda qanday usullar qo‘llaniladi?
4. Hozirgi kunda doyra usullarini to‘liq notaga tushirish uchun qanday tizimdan foydalanilmoqda va qaysi chiziqda qaysi usullar yoziladi?.
5. Qayroq qanday usullarda ijro etiladi?.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Internetdan foydalanib dunyo zarbli cholg‘ulari va ularning tasnifi to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plang.
2. Biron bir musiqa asariga doyra va nog‘ora usullarini yozib ko‘ring.
3. Qayroq chalishni mashq qiling.

Tayanch iboralar: Doyra, nog‘ora, qoshiq, bum, bak.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

UCHİNCHİ BO‘LİM.

Musiqiy bezak(melizm) haqida tushuncha

Melizmlar (yun. “melisma”, ayrim manbalarda “melos” — qo‘shiq, kuy), ornamentika(musiqiy tovushlar, bezaklar majmui), musiqa bezaklari — vokal va cholg‘u musiqada muayyan shaklga ega barcha ohang bezaklari (masalan, trel, forshlag, giruppetto, mordent, kashish va boshqalar; yoki erkin tarzda ijro etiladigan passaj, qochirim, nola, molish), kuyning asosiy pog‘onalarini o‘zgartiradigan qo‘shimcha tovushlardir. Melizmlar kuy ohangdorligi va ta’sirchanligini oshiruvchi, ko‘proq lirik mazmunni boyituvchi vositalar sifatida musiqa san’atiga keng joriy etilmoqda. Melizmlar xalq musiqa ijodiyoti va ijrochiligi, xususan, bastakorlik hamda kompozitorlik ijodiyotida uzoq o‘tmishdan davom etib kelayotgan an’analarning mahsulidir. Melizmlarga oid ma’lumotlar O‘rta asr Sharq musiqa risolalarida o‘z aksini topgan: Mahmud ash-Sheroziy (13-asr) sozlarda ijro etish uslublari borasida fikr yuritib, sozandalar kuylarni bezaklar bilan boyitishi lozimligini ta’kidlagan, Jomiy esa kuy bezaklarida malaka hosil qilish ijrochining o‘ziga bog‘likligini uqtirgan va o‘z zamonasi amaliyotidan misollar keltirgan.

Har bir xalq musiqasidagi melizmlar o‘ziga xos ko‘rinishlarga ega. O‘zbek milliy ijrochiligida qochirim, nola, molish, xonish, kashish kabi melizmlar mavjud. Ulardan torli (tanbur, dutor, g‘ijjak, sato kabi) va puflama (nay, surnay, qo‘shnay, bo‘lamon) musiqa cholg‘ulari va, ayniqsa, xonandalikda keng foydalaniladi.

Melizmlarning nota belgilari 15—16-asrlarda Germaniyada paydo bo‘lib, Yevropada, ayniqsa, 17—18-asrlar (Fransiya, Angliya va boshqalar)da keng rivoj topdi va o‘zining muayyan shakllariga ega bo‘ldi.

Bezaklar barokko (17-asr - 18-asr o‘rtalarida san’atda rasm bo‘lgan serhasham badiiy usul) davri Yevropa bastakorlari tomonidan faol ishlatilgan. O‘sha davrda musiqiy bezakning mohirlik va boyligi rag‘batlantirildi. 19-asrning romantik bastakorlari real tasvirlarni - qushlar qo‘shig‘ini, bolalar ovozini, qizaloq kulgsini yetkazish uchun melismalarda o‘ziga xos musiqiy bo‘yoq izlashgan.

O‘rta asrlardagi Yevropa musiqasida har qanday qo‘shiqlar melizmlarga tegishli edi va ba’zida bu qo‘shiq uchun maxsus yozilgan

www.nitropdf.com

Durdona

musiqa nomi edi. Merriham-Webster American Dictionary ingliz tilida "melism" so‘zining zamonaviy ma’nosida birinchi marta 1837 yilga to‘g‘ri keladi.

Bugungi kunda musiqashunoslar melismalarning ko‘p turlarini ajratib ko‘rsatishadi: forshlag, mordent, gruppetto, trel, vibratsiya, arpedjio, fioritura (qo‘shimcha ovozlar bilan ohangni bezash), passaj va boshqalar.

Melizmlar partiturada kichik notalar yoki maxsus belgilar bilan yozilishi mumkin yoki ular improvizatsiya usulida - musiqachining iltimosiga binoan ijro etilishi mumkin

Sharq musiqasi an’anaviy tarzda melizmga boy edi. Shuning uchun kompozitorlar ulardan asarlarga sharqona lazzat qo‘shish uchun foydalanganlar.

Melismaning asosiy vazifasi ohangga yanada go‘zallik va mahorat berishdir. Ohangning bunday bezaklari nafaqat zamonaviy xorijiy estradada, balki klassik barokko musiqa asarlarida, xalq qo‘shiqlarida (arab, arman, ozarbayjon, o‘zbek va boshqalarda) ham qo‘llaniladi.

Fanda musiqiy tovushlar, bezaklar majumi ma’nosiga ega bo‘lgan ornamentika so‘zi qo‘llaniladi. **Ornamentika (lotincha ornamentum — bezak**) — musiqada kuyni bezash usullari. Ohanglarni maxsus musiqa texnikasi yordamida bezash usullari haqidagi ta’lim ham shunday nomlanadi. Ohangning qo‘shimcha figura(ibora)lar bilan bezatilishining o‘zi ornamentatsiya (majmua, uslub) deyiladi.

Musiqa asarini aranjirovka qilishning bu usuli ijrochiga asosiy partituradan uzoqlashmasdan, o‘z his-tuyg‘ularini va texnikasini ba’zi ohangdor figuralar yordamida improvizatsiya qilish imkonini beradi. Ornamentika ham vokal, ham cholg‘u kuylarida qo‘llaniladi. U ma’lum bir tuzilishning ohangdor formulalaridan qisqacha bezaklarga qadar bo‘lgan keng ko‘lamli usullarni o‘z ichiga oladi.

Musiqada ornamentatsiyadan foydalanish misollaridan biri 16-18-asrlardagi Yevropadir. Bu vaqt improvizatsiya ornamentatsiyasi bilan ajralib turdi, ya’ni dastlab bezakni ijrochi o‘z xohishiga ko‘ra improvizatsiya shaklida amalga oshirdi. Asta-sekin musiqada ohangdor bezaklarning barqaror turlari rivojlanib, ular kompozitorning o‘zi tomonidan qo‘shilgan (to‘liq yozilgan) maxsus belgiga ega bo‘lgan.

Ornamentatsiya fransuz klavesin musiqasi va cherkov xorlarida juda rivojlangan. Asbobning tuzilishiga ko‘ra, u tomonidan chiqarilgan

www.nitropdf.com

Durdona

tovushlar tezda xiralashib, o‘chib ketgan. Lekin ba’zi bezak texnikasi ovozni uzaytirishga yordam bergan. Cherkovlarda bunday usullardan foydalanish qo‘shiqlarning go‘zalligiga qo‘shimcha ifodalilik bag‘ishlagan. Italiya operasida ham vokal ornamenti rivojlangan.

Nazorat uchun savollar:

1. Musiqiy bezak(melizm)larning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Melizmlar qachondan boshlab amaliyotda qo‘llana boshlangan”?.
3. Ornamentika nima?. Izohalab bering.
4. Melizmlarga oid ma’lumotlar O‘rta asr Sharq allomalarining qaysi risolalarida o‘z aksini topgan?

DURDONA

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Melizmlar tarixini o‘rganing.
2. Melismaning asosiy vazifasi nimalardan iboratligini o‘rganing.
3. Melizmlarning musiqa asari ifodaliligа qanday rol o‘ynashini o‘rganing.
4. Ornamentikaning mazmun-mohiyatini o‘rganing.
5. Melizmlar kuy ohangdorligi va ta’sirchanligini oshirishda qanday ahamiyatga ega ekanligini o‘rganing.

Tayanch iboralar: Melizmlar, barokko, ornamentika, partitura.

Musiqiy bezak(melizm) turlari

Mumtoz musiqada kichik ohangdor bezaklar - melizmalar ishlatilgan. Forshlag, mordent, gruppetto, trel melismalarning asosiy turlaridir. Ushbu usullar nota matnidagi kichik notalarga yoziladi yoki musiqiy qisqartmalar - musiqiy notalarni qisqartirish uchun ishlatiladigan maxsus belgilar yordamida kerakli notalar yonida ko‘rsatiladi.

Masalan: Forshlag

www.nitropdf.com

Durdona

Yozilishi Ijro etilishi

Forshlag(𝅘𝅥𝅯). Bu bezak haqida yuqorida (rubob prima cholg‘usi ma’lumotlarida) tushuncha berib o‘tilgan edi. Takrorlash o‘rinliki forshlag — ohangning har qanday tovushidan oldingi bir yoki bir nechta tovushlardan iborat bo‘lgan va keyingi tovushning davom etishi munosabati bilan ijro etiladigan ohangdor bezakdir.

Forshlag asosiy nota oldida yozilgan kichik nota bilan ko‘rsatiladi. Forshlagni ikki turi mavjud: uzun va qisqa. Uzun - u bir tovush bilan hosil bo‘ladi va asosiy tovushning davomiyligiga kiradi. Qisqacha - ko‘pincha u bitta notadan iborat bo‘lib, musiqiy partituralarda u chizilgan kichik chiziq bilan sakkiztalik nota sifatida ko‘rsatiladi, lekin agar forshlag bir nechta notalardan iborat bo‘lsa, u holda ular chizilmasdan o‘n oltitalik notalar bilan belgilanadi.

Misollar:

Qisqa va uzun (appoggiatura) forshlag yozuvlari farqlanadi.

www.nitropdf.com

Durdona

Qisqa forshlag. Qisqa forshlagning uzun forshlagdan farqi shundaki, melodik (ohangdorlik) tayanch, urg‘u asosiy notaga tushadi.

Qisqa forshlag - kichik nota oddiy notadagidan ham qisqaroq ijro etiladi.

Forshlag unga yorqinlik, o‘tkirlik beradi, uning melodik ma’nosini alohida ajratib turadi. Qisqa forshlag kichik ko‘rinishdagi notaga qisqa chizilgan shtil (chiziq) belgisi bilan ifodalanadi.

Uzun forshlag. Uzun forshlag deyarli faqat klassikalar orasida topilgan. Biz buni Betxovenning dastlabki asarlarida topamiz. Uzun notalar musiqa asarining baravar vaqt davom etadigan bo‘lagida ijro etiladi. Qachonki u aniq ko‘rsatilgan bo‘lsa, uning qiymati qancha talab qilsa, shunchalik sadolanib eshitiladi. Notalar tizimi shubhali bo‘lsa - bastakor tomonidan belgilab qo‘yilgan bezakning davomiyligi shartli, deb o‘ylash uchun asos bor. Bunda boshqa qoidaga amal qilish mumkin, ya’ni: agar bezak ikki hissali notaning oldida bo‘lsa, u holda uning yarim qiymatini oladi; agar u uch hissali notadan oldin bo‘lsa, uchdan bir yoki ikki qiymatini oladi.

Uzun forshlagli nota akkorddan oldin kelganda, qisqa forshlag haqida yuqorida aytilganlar amal qiladi. Qisqa farshlagli nota singari, uzun forshlagli nota ham akkordning barcha tovushlari bilan bir vaqtda ijro etiladi, uning oldida turgan tovushdan tashqari: qisqa va uzun notalarning ijrosi bilan bog‘liq holda bitta ogohlantirish berilishi kerak.

www.nitropdf.com

Durdona

Ko‘pincha klassiklarning asarlarida forshlag yozuvi qisqa ijro etilishi kerak, deb taxmin qilish uchun asoslar mavjud bo‘lgan hollarda ham o‘zaro bog‘liq holda beriladi. Ba’zan buning aksi sodir bo‘ladi: bezak chizilgan holda beriladi va iboraning tabiatiga ko‘ra, u uzoq forshlag yozuvi sifatida bajarilishi kerakligi aniq. Maxsus yozilgan ayrim asarlarda chizilgan yoki kesib o‘tilmagan forshlag yozuvi qachon uzun forshlag yozuvi shaklida va qachon qisqa shaklda bajarilishi kerakligini belgilaydigan bir qator qoidalarni topish mumkin. Kvants shunday deydi: "Dissonanslar ehtiroslarni ifodalaydi (leiden-schaften), konsonanslar ularni tinchlantiradi, shuning uchun ijroni tinchroq amalga oshirish kerak." Bu uzoq forshlagning asosiy ma’nosidir.

Mordent - ohangdor bezak bo‘lib, u uchta tovush (ikkita asosiy va bitta yordamchi)dan iborat. Yordamchi tovush asosiy tovushga qo‘shni. U bir ton balandroq yoki pastroq bo‘lishi mumkin, ba’zan al’teratsiya belgilari yordamida asosiy va pastki tovushlar orasidagi masofani yarim tongacha qisqartirishi mumkin.

Yozilishi **Ijro etilishi**

Yozilishi **Ijro etilishi**

Oddiy (birlamchi) yuqori mordent yoki oddiygina mordent. U uchta tovushdan iborat: asosiy, yordamchi (sekunda yuqorida) va asosiyning takrorlanishi. Yordamchi tovushni o‘zgartirish kerak bo‘lsa, o‘zgartirish (al’teratsiya) belgisi mordentning ustiga qo‘yiladi.

Chiziqli (birlamchi) mordent yoki pastki mordent. U uchta tovushdan iborat: asosiy, yordamchi (sekunda pastda) va asosiyning takrorlanishi. Yordamchi tovushni o‘zgartirish kerak bo‘lsa, o‘zgartirish (al’teatsiya) belgisi chiziqli mordent ostiga qo‘yiladi.

Ikkilamchi yuqori mordent yoki faqat ikkilamchi mordent. Ikki oddiy (birlamchi) mordentdan iborat.

Ikkilamchi pastki mordent yoki ikki chiziqli mordent. Ikkita chiziq chizilgan mordentdan iborat. Mordent zamonaviy nota yozuvlarida juda kam qo‘llaniladi.

www.nitropdf.com

Durdona

Misollar:

Gruppetto - 4 yoki 5 tovushdan iborat bo‘lgan ohangdor bezak. U ∾ belgisi bilan ko‘rsatiladi. Guruhpetto qadim zamonlardan beri ma’lum bo‘lgan eng ohangdor bezaklardan biri bo‘lib - yuqori va pastki yordamchi tovushlar yordamida asosiy ohangni almashinishdir. Asosiy va pastki tovushlar orasidagi standart sekunda intervalini tashkil etadi. Agar gruppetto notalar orasida bo‘lsa, u oldingi notaning davomiyligi tufayli bajariladi.

Tarixiy davr va milliy an'anaga (shuningdek, individual kompozitor yoki ijro maktabiga) qarab, gruppetto turli usullarda ijro etilishi mumkin edi. Shu sababli, bu bezakni ko‘rib chiqish, avvalgi bezaklar kabi, tarixiy va milliy kontekstdan ajratilgan holda amalga oshirilmaydi.

Gruppetto (it. gruppetto) - bir nechta tovushlardan tashkil topgan melodik bezak: yuqori yordamchi, asosiy, pastki yordamchi va asosiy. Asosiy notaning davomiyligi tufayli amalga oshiriladi:

www.nitropdf.com

Durdona

Yozilishi Ijro etilishi

Yuqorida qayd etilganidek, agar gruppetto notalar orasida bo‘lsa, u oldingi notaning davomiyligi tufayli bajariladi:

Yozilishi Ijro etilishi

Agar mordent yoki gruppettoda yuqori yordamchi tovushni o‘zgartirish zarur bo‘lsa, u holda alteratsiya belgisi melizm belgisi ustiga qo‘yiladi. Agar pastki yordamchi tovushni o‘zgartirish zarur bo‘lsa, u holda alteratsiya belgisi melizm belgisi ostiga qo‘yiladi.

Misollar:

Trel - eng ko‘p ishlatiladigan melismalardan biri: katta yoki kichik sekunda oralig‘ida joylashgan ikkita qo‘shni notaning tez almashinuvi. Birinchi nota asosiy va garmoniyaga nisbatan - garmonik, ikkinchisi – yordamchi, deb ataladi. Odatda, yordamchi nota asosiydan yuqorida joylashadi.

Yozilishi Ijro etilishi

www.nitropdf.com

Durdona

Yozilishi **Ijro etilishi**

Yozilishi **Ijro etilishi**

Zamonaviy nota yozuvlarida trel faqat tr yoki tr ~~~~ so‘ng to‘lqinsimon chiziq (vibratodan kichikroq) bilan belgilanadi. tr dan keyingi to‘lqinli chiziq uzoq trellar uchun yoki trel bir nechta (yoki birlashtirilgan) notalarga qo‘llanilganda ishlatiladi. Bu belgilar asosiy (garmonik) notaning tepasida joylashgan bo‘ladi.

Trelni belgilashning eskirgan usuli faqat to‘lqinli chiziq bilan, zamonaviy notalarda notaning tepasida tr bo‘lmagan bitta to‘lqinli chiziq vibratoni bildiradi.

Trelning umumiy uzunligi yozilayotgan asosiy notaning uzunligiga bog‘liq. Uslubga qarab trelni ritmik tarzda, aniq teng notalar bilan yoki tezlashtirish bilan yoki oddiygina maksimal tezlikda erkin bajarish mumkin.

Zamonaviy notalarda uchraydigan trel:

Yozilishi **Ijro etilishi**

Agar trel belgisi tasodifiy belgiga ega bo‘lsa, u holda yordamchi tovush ushbu belgini hisobga olgan holda olinadi. Trel asosiy tovush bilan boshlanishi mumkin, shuningdek, yordamchi tovush bilan ham (yuqori va pastki). Bunday holda, qo‘shimcha tovushni ko‘rsatadigan treldan oldin kichik bir eslatma ko‘rsatiladi:

www.nitropdf.com

Durdona

Yozilishi **Ijro etilishi**

Agar ***tr*** harflari va asosiy nota yonida o‘zgartirish belgilari, forshlaglar va katta qavslar ichida kichik notalar bo‘lmasa ***tr*** asosiy notadan boshlab bir pog‘ona yuqoriga ijro etiladi.

Aks holda, qo‘shimcha belgilar quyidagilarni aniqlaydi:

• trel qaysi nota bilan boshlanishi kerak (asosiy yoki yordamchi). Trel asosiy notadan emas, balki yuqori yoki pastki yordamchi notadan boshlanishi kerak, agar yordamchi nota asosiy notaning oldiga nota forshlag shaklida yozilgan bo‘lsa;

• qaysi yo‘nalishda (yuqoriga yoki pastga). Trelni asosiy notadan boshlab yuqoriga emas, balki pastga qarab ijro etish kerak (agar asosiy notaning yonida qavs ichida yordamchi kichik nota yozilgan bo‘lsa);

• qaysi interval (yarim ton yoki bir ton) bilan. Trellarda asosiy va yordamchi notalar, agar yordamchi (tr harflari yonida joylashgan) notalarga tegishli o‘zgartirish belgilari qo‘llanilsa, bir tonlik interval bilan chalinmaydi.

Misollar:

Yozilishi **Ijro etilishi**



Yozilishi **Ijro etilishi**

Trelli zanjir (Trillerkette) - trellarning uzluksiz qatori, to‘g‘rirog‘i, harakatlanuvchi trel, buning natijasida faqat zanjirning oxirida naxshlag bilan jihozlangan bo‘ladi.

Naxchlag - (nem. Nachschlag), ikki turdagi bezak, deb ataladi:

1. Trelning oxirida ikkita nota qo‘shish: pastki yordamchi va asosiy.

www.nitropdf.com

Durdona

Yozilishi Ijro etilishi

Bunday naxshlag hozir oddiy notalarda yoziladi, lekin eski kompozitsiyalarda (Bax) trel belgisi oxirida maxsus ilgak (Nachschleife) yordamida belgilangan.

Naxshlag go‘yo trelning rasmiy xulosasini ifodalaydi va keyingi yuqori notaga qulayroq o‘tishga imkon beradi. Shuning uchun ham naxshlag treldan keyin baland nota kelgan holatni nazarda tutadi. Bu turdagi naxshlag - ayniqsa, qadimiy musiqada - ko‘pincha trelni yakunlash uchun xizmat qiladi: Treldan keyin qandaydir yozma shakl keladigan barcha holatlarda naxshlag, tabiiyki, ortiqcha bo‘ladi. (masalan, Betxovenning skripka sonatalari boshida). Aksincha, treldan pastki notaga o‘tishda naxshlag go‘yo oxirgisining kelishini hisobga olgan holda ijro etiladi. Bu turdagi naxshlag - ayniqsa, mumtoz musiqada - ko‘pincha trelni yakunlash uchun xizmat qiladi. Trellar hatti-harakati naxshlagni bajarmaydi (agar kompozitor buni maxsus talab qilmasa), chunki bu holda faqat bir qator trellarning harakati mavjud (rasmiy holda har birining xulosasi).

2. Forshlagning aksi, ya’ni keyingi notaga o‘tishda oxirida asosiy notaga biriktirilgan qisqa nota. Nota yozuvida ular bu turdagi qisqa forshlagdan farq qiladi, chunki ular notani oldingi, asosiy nota bilan bog‘laydi va takt oxirida xuddi shunday kichik notalar takt chizig‘idan keyin emas, balki oldin joylashtiriladi.

Yozilishi Ijro etilishi

Yozilishi Ijro etilishi

Qisqa yoki chizilgan naxshlagga misol:

www.nitropdf.com

Durdona



Yozilishi Ijro etilishi

Uzun yoki chizilgan naxshlagga misol:



Yozilishi Ijro etilishi

Nazorat uchun savollar:

1. Forshlag turlari qanday ijro etiladi?.
2. Mordent qanday ijro etiladi?.
3. Gruppetto qanday ijro etiladi?.
4. Naxshlag qanday bezak?. Izohlab bering.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Forshlag musiqa ijrochiligida qanday rol o‘ynashini o‘rganing.
2. Trel ijrosi qoidalarini tushuntirib bering.
3. Gruppettoli asar topib mashq qiling.
4. Mordenni ijro uslublarini mashq qiling.

Tayanch iboralar: Forshlag, mordent, gruppetto, trel, naxshlag.

O‘zbek an’anaviy musiqa ijrochiligiga xos bezaklar

O‘zbek xalq va ustozona musiqa ijrochiligida oddiy tovushlarni turli xildagi bezak va sayqallar bilan boyitib ijro etish muhim mezonlardan hisoblanishi haqida R.Qosimov “An’anaviy cholg‘u ijrochiligi” (Rubob)[13] nomli o‘quv qo‘llanmasida ko‘plab misollar keltirib, izoh bergan. Muallifning yozishicha, “tovushlarni sayqal bilan ijro etish har bir Sharq xalqlari ijrochiligiga xos an’anadir. Bu omil ohang mazmunini boyitib, xalqlar ruhiyatini ifodasi demakdir. Milliy ijrochiligida qo‘llaniladigan bezaklarning maxsus atamalar bilan nomlanishi ko‘pchilik sozanda va xonandalarga ma’lum. Masalan,

[13] R.Qosimov “An’anaviy cholg‘u ijrochiligi” (Rubob). Ikkinchi nashr. “Musiqa” nashriyoti, Toshkent. 2020. – 160 b.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

qochirim“, “to‘lqinlatish”, “nolish”, “kashish” va boshqalar. Ularning ayrimlari tovushning sifatini belgilayd”[14].

R.Qosimov o‘zbek an’anaviy musiqa ijrochiligiga xos bezaklar xususida alohida to‘xtalib o‘tadi va ularga quyidagi ta’riflarni beradi:

Qochirim – oddiy va murakkab melizm (kuyni turlicha qisqa tovushlar bilan bezatuvchi belgi)larning barcha turini o‘z ichiga oladi.

Forshlag turlari;

Trellar (bidratma) turlari;

Mordent (sayqal) turlari.

O‘zbek an’anviy musiqasida qo‘llaniladigan bezaklarning uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Oddiy – bir tovushdan tashkil topgan 
2. Qo‘sh – ikki tovushdan tashkil topgan  ;
3. Uchtalik – uch tovushdan tashkil topgan

Ijroda bu bezaklar yangrashi lozim bo‘lgan tovushlar hisoblanadi.

Misol (oddiy bezak uchun):

Misol (Qo‘sh bezak uchun):

Uchtalik bezak esa faqat bir tovushning takrorlanishi bilan ijro etiladi.

Misol:

Torga ulab ijro etiladigan bezaklar nota yozuvida keng rasm bo‘lib, qolgan zarb belgilarining biri (П) belgisi bilan, torga urilgan

[14] R.Qosimov “An’anaviy cholg‘u ijrochiligi” (Rubob). T.: b.19.

www.nitropdf.com

Durdona

holda erishiladigan bezaklar esa nota ustiga qo‘shuv (+) belgisini qo‘yish bilan belgilanadi.

Bidratma - ikki yonma-yon tovush tebranishidan hosil qilinadi. U eng qisqa va eng uzun tebranishdan iborat bo‘lishi mumkin.

Mizrobni torga urib va torga urmasdan ijro etish usuli bidratmaga ham taaluqlidir. Qoshuv belgisi bilan belgilanadigan trellar: quyidagicha ijro etiladi: birinchi tayanch tovush mizrobni torga urib chalinadi, qolgan amallar (yordamchi tovushlar) torga urmagan holda hosil qilinadi:

Qo‘shuv belgisi bo‘lmaganda tovushlar noxunni pastga va yuqoriga urish bilan ijro etiladi.

Sayqal (mordent) – bidratmadan tamomila farq qiladi. Agar bidratma uzun va qisqa notalarga (nota cho‘zimiga qarab) bevosita taaluqli bo‘lsa, sayqal uch yoki besh tovushdan tashkil topadi. Uni ijro etishda dastlabki asosiy notadan uni cho‘zimini yarimigacha qisqartiriladi. Sayqalning nota yozuvida quyidagicha belgilaymiz:

a) uch tovushdan iborat sayqal – oddiy mordentning melizmatik belgisi bilan belgilanadi.

b) pastda yotuvchi yordamchi tovush – oddiy o‘chirilgan mordent belgisi bilan belgilanadi.

v) besh tovushdan iborat sayqal – mordentning melizmatik belgisi bilan belgilanadi.

www.nitropdf.com

Durdona

g) pastga yotuvchi yordamchi tovush ton yoki yarim ton – qo‘sh chizilgan mordent belgisi bilan belgilanadi:

An’anaviy ijrochiligda sayqalning yuqorida keltirilgan barcha shakllari asosan torga bir zarb berish bilan ijro etiladi. Bu zarb asosiy tovushga to‘g‘ri keladi. Bunda mordentlarning (bittalik, qo‘shaloq, chizilgan) hamma belgilari ustiga qo‘shuv belgisi qo‘yiladi.

To‘lqinlatish (vibrato) – deyarli barcha xalq cholg‘ulari va ashula ijrochilari uchun xos bezak. Rubobda barmoqni pardaga bosib mizrob bilan urilgandan so‘ng barmoqning o‘zida torlarni titratish yo‘li bilan hosil qilinadi. Shuningdek, ushbu bezakdan butun, yarimtalik, choraktalik va nimchorak notalarni ijro etganda foydalanish mumkin.

www.nitropdf.com

Durdona

Misol:

Soz **Garduni Dugoh**

Soz **Garduni Segoy**

Nolish – yarim tongacha bo‘lgan o‘ziga xos yirik bidratma. Qashqar va afg‘on ruboblarini chalganda bu usul chap qo‘l barmoqlarini bir teksda dastada ko‘ndalangiga harakatlantirish bilan ijro etiladi. Bu bezak belgisi orqali ifodalanadi.

Misol:

Molish – barmoqni bir tovushdan ikkinchi tovushga ohngdor, ohista sirg‘alatish usuli. U “glissando”ga yaqin bo‘lib, badiiy talqin qilishning muhim vositalaridan hisoblanadi. Shu bilan birga, tovush chiqarishning bir necha turlari bilan xarakterlanadi:

a) kvartadan oktavagacha va undan ham ortiq intervallarda (pastdan yuqoriga, shuningdek, yuqoridan pastga) bir tovushdan ikkinchi tovushga sirg‘alib o‘tish. Bunda sirg‘alish boshlang‘ich tovushni oluvchi barmoqdan boshlanadi, keyingi ton boshqa barmoq bilan olinadi.

b) kichik va katta sekunda ham tertsiya intervalida pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga bir tovushdan ikkinchi tovushga bir

www.nitropdf.com

Durdona

barmoqda sirg‘alib o‘tiladi. Bir barmoqning sirg‘alishi boshqa (yuqoridagi yoki pastdagi) barmoq bilan almashtirilgan usul ham uchrab turadi. Bu holda, qo‘lning rubob dastasiga ko‘proq tayanch holda bo‘lishida o‘ziga xos glissando hosil bo‘ladi. Bunda tor bir xil kuch bilan tekis musiqiy sado beradi.

v) barmoqning bir necha yondosh tovushlar (ton yoki yarim ton) bo‘yicha birin-ketin sirg‘alishi. Bu usul faqat bir barmoq bilan bajariladi.

Molish an’anaviy musiqa ijrochiligida keng qo‘llaniladi.

Misol:

Mushkuloti Dugoh Talqinchasi

Surnay Dashtnavosi

O‘rtacha tez

Navro‘zi Sabo

Kashish – yarim ton doirasida amalga oshiriladigan bezak usuli. Bunda barmoqlar rubob dastasida ko‘ndalang turgani holda torni yuqoriga va pastga tortgandek harakat qiladi.

www.nitropdf.com

Durdona

Butun ton doirasidagi kashish – uchi yumaloq mordent bilan belgilanad:



a) bir zarbli kashish: 

b) ikki zarbli kashish:

v) uch, to‘rt zarbli kashish (bunda zarblar ixtiyoriy ravishda har xil bo‘lishi mumkin): 

g) rez (tremolo) – usulli kashish:

Kashishning barcha ko‘rinishi og‘zaki an’anadagi mumtoz kuylarda, ayniqsa, maqom ijrochiligida keng qo‘llaniladi. Yarim ton doirasidagi bir, ikki, uch - to‘rt va rez usulli kashishlarni kuy ijrolarida qo‘llanilganligiga (qisqa kuy jumlalari orqali) misollar:

Tasnifi Navo

1 xona

4 xona

5 xona

Tasnifi Dugoh

Nazorat uchun savollar:

1. O‘zbek an’anviy musiqasi ijrochiligida qanday bezaklar qo‘llaniladi?.

2. Bidratma qanday tovush tebranishidan hosil qilinadi?. Misollarda izohlab bering.

3. Molish tovush chiqarishning qaysi turlari bilan xarakterlanadi?.

www.nitropdf.com

Durdona

4. Kashish qanday ijro xususiyatlariga ega? Misollarda izohlab bering.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Bezaklar aks ettirilgan asarlarni mashq qiling.
2. Sayqal (mordent)ni o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganing.
3. Molish bezagining turlarini o‘rganing.
4. To‘lqinlatish (vibrato) usulini cholg‘u ijrosida o‘rganing.

Tayanch iboralar: Qochirim, bidratma, nolish, sayqal, molish, kashish, to‘lqinlashtirish.

Applikatura va uning cholg‘u ijrochiligi san’atidagi ahamiyati

Applikatura (nem. Applikatur, lot. Applico — qo‘llash, bosish) — cholg‘u asbobini chalishda barmoqlarning joylashishi va almashinish tartibi. Barmoqlar, shuningdek, raqamlar yordamida yoki kamroq tez-tez, boshqa yo‘l bilan notalarda barmoqlarni ko‘rsatish, deb ataladi. Barmoqlar klavishli va torli cholg‘ular uchun, ayniqsa muhimdir. Barmoq harakatini rivojlantirish qobiliyati ijrochi mahoratining muhim tarkibiy qismidir.

Barmoqni ko‘pincha asar muallifining o‘zi yozadi va qo‘lyozmada ko‘rsatiladi. Masalan, Shopen pianinochi bo‘lgan va pianino asarlarida u deyarli har doim o‘z notalarda barmoqlarini ko‘rsatgan, bu ko‘pincha shu qadar qulay ediki, keyingi muharrirlarga o‘z variantini taklif qilishning hojati yo‘q edi. Boshqa hollarda, notalar asarning eng muvaffaqiyatli ijrochilari yoki musiqa nashriyoti muharrirlari tomonidan ishlab chiqilgan barmoq bilan chop etiladi.

Barmoqlar bilan ishlash qoidalariga alohida e’tibor qaratish kerak. Mashhur fortepiano o‘qituvchisi G.Neygauzning fikricha, barmoqni pardaga bosish birinchi navbatda musiqiy asar ijrosining ifodaliligiga, ikkinchidan esa – ijroning qulayligiga hissa qo‘shishi kerak. Shunday qilib, masalan, agar zarurat bo‘lmasa, kuchli hissa (yonma-yon turgan notadan ko‘ra balandroq chalish kerak bo‘lgan nota)ni eng zaif bo‘lgan kichik barmoq bilan olmaslik kerak. Ikkinchidan, barmoqlar ijrochi uchun qulay bo‘lishi kerak. Qulaylik juda individualdir va shaxsiy anatomik xususiyatlar bilan belgilanadi.

www.nitropdf.com

Durdona

Standart applikatura. Ayrim hollarda, ma’lum bir asar yoki uning qismlari yoki parchalarining ko‘p ijrochilar tomonidan qo‘llaniladigan u yoki bu applikatura standart (shablon), deb ataladi. Kamdan-kam hollarda (ayniqsa, orkestr musiqasida) notalarning o‘ziga xosligi yoki musiqiy materialning murakkabligi sababli, ijroning istalgan izchilligi va uyg‘unligiga erishishga imkon beradigan barmoqdan foydalanish odatiy holdir.

Agar bir qator yirik musiqachilarning ijrosini sinchkovlik bilan o‘rgansak, ularning applikaturasi bilan ijrosi bir xil tarzda farq qilishini ko‘rish oson. Individual talqin natijasida ijrochida badiiy obrazni gavdalantirishning o‘ziga xos usuli, ya’ni ijro uslubi shakllanadi.

Musiqachi asarni ijro etar ekan, unda kompozitorning niyatini yetkazishga, aniq badiiy obrazni ifodali vositalar orqali gavdalantirishga intiladi. Ijrochi uchun umumiy vazifalarni hal qilish, ishlashga ta’sir qiluvchi omillarning ko‘pligi tufayli individual vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Avvalo, "barmoqlar - bu individual hodisa: qo‘lning shakli, barmoqlarning tuzilishi va kuchi har bir sozanda uchun muhim bo‘lib u qaysi barmoqda chalish osonroq yoki qiyinroq ekanligini aniqlaydi. Bir qo‘l uchun qulay bo‘lgan barmoq jadvali boshqasiga mos kelmasligi mumkin”.

Bu bajaruvchi apparatning anatomik tuzilishi: qo‘llar, barmoqlar bilan izohlanadi. Cholg‘uchilar keng va tor kaftlarga egaligi, barmoqlarining uzunligi va cho‘zilish darajasi bilan farqlanadi. Cholg‘uchi barmoqlarini cho‘zmaslik uchun tez-tez pozitsiyani o‘zgartirish mumkin. Barmoqlar bukulishlariga keraksiz harakatdan (sirg‘alishdan) qochishga yordam berganda izn beriladi.

Qo‘lning xususiyatlarini, barmoqlarning kuchi va faolligini bilgan holda, ijrochi barmoqlarning umumiy tamoyillaridan kelib chiqib, individual ravishda qulay barmoqni tanlaydi. Tabiiyki, bu barmoqni tanlash ijrochi oldida turgan badiiy vazifaga bo‘ysunadi.

Hatto qo‘li kichik, kalta bo‘lgan cholg‘uchi musiqani tushunsa va yaxshi ijro madaniyatiga ega bo‘lsa, musiqiy mazmun-mohiyatga ega bo‘lgan barmoq harakatlariga hamisha rioya qilishi mumkin bo‘ladi va u o‘zining shaxsiy vositalaridan foydalangan holda faoliyat yuritadi.

Nazorat uchun savollar:

www.nitropdf.com

Durdona

Tayanch iboralar: Ansambl, orekestr, sozanda, ijro, mahorat, zarb, sinxronlik.

Orkestr va ansambl sozandalarning hamkorlikda chalish malakalari

www.nitropdf.com

Durdona

Talabaga mutaxassislik cholg‘u asbobi sinfida ansambl va orkestr asarlai ustida ishlashni o‘rgatish o‘qitiuvchining muhim pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Shunga ko‘ra o‘qituvchi mutaxassislik cholg‘u asbobi sinfida ta’lim berishning dastlabki mashg‘ulotlaridanoq talabada ansamblchi va orkestrchiga xos zarur fazilatlarni singdirib, unda shu turdagi ijodiy faoliyatga yangicha qiziqish uyg‘otishi kerak. Cholg‘uda yakka tartibda o‘qitishda bunday ish uchun ob'ektiv shartlar mavjud. O‘qish vaqtining ko‘p qismi musiqa asarini pianino jo‘rligida ijro etish sharoitida o‘tkaziladi. Bu jarayonning xususiyatli tomonidan biri shundaki, unda zamonaviy musiqa ta’limidagi o‘ziga xos ansambl xarakterini kasb etmoqda.

Ma’limki, ansambl yoki orkestr asarlarini maxsus o‘rganish minimal ijrochilar soni uchun mo‘ljallangan. Jumladan, bir xil ansambllarning ijrosi uchun duet, trio, kvartet va boshqa shakldagi ijro ansambllari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu xildagi ansambllar orkestr asarlari parchalarini o‘rganishga ham qo‘l keladi.

Mutaxassislik cholg‘u asbobi o‘qituvchisi shogirdini o‘z partiyasini ijro etishga mazmunli munosabatda bo‘lishga va musiqiy tarkibni ochishning har bir bosqichida uning rolini tushunishga, ansambl ijrosining mohiyatini belgilovchi sifat va malakalarni tarbiyalash uchun katta imkoniyatlarga ega. Ansambl va orkestr asarlarini o‘rganishning alohida sinflarda o‘tkazilishi o‘qituvchining musiqa san’atining turli kompozitorlik uslublari va yo‘nalishlarini o‘rganish imkoniyatlarini ancha kengaytiradi.

Bu talabalarga o‘z ta’limining yakuniy maqsadlarini - jamoaviy ijro faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rish va ijrochi jamoaning bo‘lajak a’zosi – ansambl (orkestr) ijrochisining zarur fazilatlarini egallash istagini amalga oshirishga yordam beradi.

Ansambl va orkestr bo‘yicha o‘qituvchining ish uslublari ko‘p jihatdan musiqiy, badiiy va o‘quv materiali ustida ishlash usullariga o‘xshash, ammo ma’lum bir o‘ziga xoslik ham mavjud. Yakkaxon asar ustida ishlashning ma’lum bosqichida mutaxassislik cholg‘u asbobi bo‘yicha o‘qituvchiga konsertmeystrning ishtiroki yordam beradi, uning yordamida yakkaxon qismning umumiy tovush fonida tutgan o‘rni va ahamiyati aniq tushuntiriladi. Ansambl yoki orkestrda ishlaganda o‘qituvchi bunday imkoniyatlarga ega bo‘lmaydi va ko‘pincha majoziy so‘z yordamida, qiyoslash orqali, ba’zan esa ovozda

www.nitropdf.com

Durdona

yoki cholg‘uda illyustratsiyalar yordamida turli tovush assotsiatsiya(birikma, to‘da)larini keltirib chiqarishga majbur bo‘ladi.

Ansambl(orkestr) ijrochiligi tushunchasi musiqa asarining badiiy maqsadini intonatsiya va dinamik izchillik, tembr birlik, ijroning ritmik va zarb birligi, badiiy jihatdan to‘g‘ri ochib berish kabi birlikka erishishga qaratilgan bir guruh musiqachilarning jamoaviy ijro harakatini, gomofoniya va polifoniya qonunlariga ko‘ra rivojlanayotgan tovushlarning to‘g‘ri, badiiy jihatdan asoslangan vaqtini, korrelyatsiyasi va munosobatini anglatadi.

Ansambl(orkest)ning umumiy ijrochilik mahorati deganda – har bir ijrochining malakasi tushuniladi. Shunga ko‘ra:

1. Ijrochi sozanda ansambl (orkestr)ning bir a’zosi sifatida o‘zining va umumiy cholg‘ular partiyasi ijrosini tinglashi;
2. Cholg‘ular ansamblining ovozlari bilan o‘z partiyasining xarakterli, tembrli, dinamik, intonatsion izchilligiga erishishi;
3. Ijroning frazrovka bilan aloqadorlik bo‘lgan moslashuvchanligiga erishish va bir zumda ohangdan hamrohlikka va aksincha, hamrohlikdan ohangga o‘tishga erishishi kerak.

Ma’lumki, orkestrda cholg‘u asboblarining o‘zaro ansambli teng ovozlar hamjamiyatidir, bu yerda kuy hamma tomonidan navbatma-navbat ijro etiladi. Ohangni boshqaradigan musiqachi, ya’ni yakkaxon boshqa ovozlarga mohirona tayanishi juda muhim, chunki bu shunchaki jo‘r bo‘lgan kuy emas, balki ansambldagi kuy. Ohang rivojlanish holatida bo‘lganligi sababli, tovushlarning tom ma’noda ko‘chirilishi emas, balki ijro birligiga, ya’ni birinchi navbatda umumiy talqinga erishish muhimdir. Ohangni bir ovozdan ikkinchisiga o‘tkaza olish ham muhimdir. Cholg‘u tomonidan davom ettirilayotgan kuy (mavzu) bo‘limining oxirgi tovushi kuyning davomi sifatida boshqa tovush qabul qilgunga qadar to‘liq saqlanib qolishi va o‘chmasligi kerak.

Ansambl(orkestr)da ijro etishda intonatsiya masalasiga katta ahamiyat beriladi. Ohang intonatsiyasining barcha asosiy qoidalari saqlanib qolinadi, lekin orkestrdagi cholg‘ular ansamblida nafaqat "gorizontal", balki "vertikal" intonatsiya qilish qobiliyati ham eng katta ahamiyatga ega.

Har qanday zamonaviy musiqachi-cholg‘uchining ansamb (orkest) faoliyati konsert amaliyoti, repetitsiya ishi va mustaqil ta’limni o‘z ichiga olgan ijodiy jarayondir.

www.nitropdf.com

Durdona

Konsert amaliyoti ansambl (orkestr) faoliyati maboyinida o‘zidan yorqin iz qoldiradigan xilma-xil turlariga ega. Masalan, rejalashtirilgan chiqishlar (shu jumladan rejali konsertlar); rejadan tashqari konsertlar; ansambl (orkestr) bilan gastrollar; ovoz yozish ishlarida ishtirok etish va boshqalar. Konsert chiqishlari ansambl (orkestr)ning doimiy rahbari ishtirokida, shuningdek, mehmonlar ishtirokida mashq qilinadi.

Ushbu turdagi konsert tadbirlarining muvaffaqiyati, o‘z navbatida, ko‘p jihatdan quyidagilarga bog‘liq:

- ansambl (orkestr)ning umumiy mashqlaridan tashqari, qoida tariqasida, cholg‘u asboblari hamrohlari tomonidan olib boriladigan guruh mashg‘ulotlarini o‘z ichiga olgan repetitsiya ishini tashkil etish;
- ijro apparatini doimiy shaklda saqlash va ansambl (orkestr) qismlarida uchraydigan musiqiy matnning murakkab jumlalari, sololar ijrosini takomillashtirishga qaratilgan har bir sozandadan muntazam ravishda mustaqil mashq qilishini talab qiluvchi qo‘shimcha ishlarni o‘rganishi.

Shunday qilib, cholg‘u ijrochisining ansambl (orkestr) faoliyatining butun jarayoni quyidagi uzluksiz ketma-ketlikda aks ettirilgan:

- ijro apparatida mustaqil ishlash va ansambl (orkestr) qiyinchiliklari;
- bir xil cholg‘u asboblari guruhida ansambl (orkestr) qiyinchiliklari ustida ishlash;
- ansambl (orkestr) guruhi tarkibida ijro qiyinchiliklari ustida ishlash;
- repetitsiya amaliyotida ansambl (orkestr) tarkibida mashq qilish;
- konsert ijrosi (yoki ovoz yozishda ishtirok etish).

Cholg‘u ijrochisining ansambl (orkestr) faoliyatining asosiy masalalari mazmunini ochib, ularni batafsil tahlil qilishning bir necha darajalarini aniqlash kerak: ansambl (orkestr) takibida chalish, ansambl (orkestr)ning cholg‘u asboblari guruhida chalish va bir xil cholg‘ualr guruhida chalish. Ansambl (orkestr) faoliyatining taqdim etilgan tuzilishi uning mazmunini qisman ochib beradi.

Repetitsiya bosqichida musiqiy asarlar ustida dastlabki ish olib boriladi, ularning xarakteri faoliyat dasturini tayyorlash uchun qancha repetisiya ajratilganligi va ushbu dasturga qancha yangi musiqiy material kiritilganligiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, mashq qilish

www.nitropdf.com

Durdona

jarayonida kasbiy fikrlashning umumiy tamoyillari, jumladan, ansambl (orkestr) sozandasining eshitish faoliyatining xususiyatlari, notalarni o‘qish va ansambl (orkestr) ustida ishlash, cholg‘ular qismlarida uchraydigan o‘ziga xos xususiyatlarini talab qiladi.

Konsert ijrosi va repetitsiya faoliyati o‘rtasidagi farqlarning xususiyatlari texnologik va psixologik masalalarni (shu jumladan bir xil cholg‘u asboblari guruhidagi hamkasblar bilan, shuningdek, boshqa cholg‘u asboblari guruhlari a’zolari bilan, boshqa ansambl (orkestr) guruhlari sozandalari bilan o‘zaro munosabatlarning texnologik va psixologik jihatlarini) o‘z ichiga oladi.

Ijrochining faoliyat texnologiyasi va psixologiyasi asosan cholg‘u asboblarining o‘zaro ansambl ijrosi tamoyillariga asoslanadi, chunki bu turdagi ijroning o‘zi ansambl musiqasi ijrosidan kelib chiqqan. Qoidaga ko‘ra, ansambl (orkestr) ijrochilik faoliyatida sozandaning yakkaxon chalishiga kam vaqt ajratiladi, vaqtning asosiy qismi cholg‘ular guruhi tarkibida ansambl bo‘lib chalishga bag‘ishlangan. Orkestr va ansambl ijrochiligi o‘rtasida umumiy jihatlar ko‘p, biroq orkestrning cholg‘u asboblari guruhlariga bo‘linishi bilan bog‘liq sezilarli farqlar ham borki, ansambl amaliyotida bunday bo‘lmaydi.

Orkestr musiqachilarining ko‘p qirrali, chuqur mazmunga ega bo‘lgan asarni ijro etishga tayyorligi orkestrning barcha guruhlari musiqachilarining asarning umumiy shaklini, uning tuzilishi va rivojlanishidagi guruhlarning funktsiyalarini bilish darajasi bilan, shuningdek, asarning orkestr teksturasi (tarkibiy tuzilishi)ning turiga ko‘ra farqlanadigan alohida parchalarida har bir guruhning roli bilan belgilanadi. Ana shunday holatda sozanda ongida o‘ziga xos ijro xususiyatlari shakllanadi. Texnologik va badiiy-moddiy jihatlarning bunday birligi cholg‘u madaniyati tarixining ilk davrida polifonik musiqa va ilk barokko musiqasini ijro etish an'analaridan boshlangan. Keyin u klassik musiqada o‘zining navbatdagi rivojlanishni topdi va nihoyat romantik kompozitorlar musiqasida mustahkamlandi.

Professional orkestr cholg‘uchisining eshitish faoliyatining har bir holatda o‘ziga xos algoritmi (majmui)ni shakllantirish uchun asos - bu allaqachon muallif nomiga kiritilgan musiqiy asarning yaratilish uslubi, janri, davri, mumkin bo‘lgan dastur to‘g‘risidagi ma’lumotlardir. Bu ma’lumotlar musiqa asarining artikulyatsiyasi, zarb madaniyati, tembri va dinamik palitrasi, uning tempi va ritmik tuzilishi haqida ma’lum fikrlarni bildiradi. Orkestr tovushi tabiatining ushbu g‘oyalarga

www.nitropdf.com

Durdona

bog‘liqligi turli mamlakatlar orkestr madaniyatida bir oz farq qiladi, lekin umuman olganda, u bir xil o‘zgarmas qonunlarga bo‘ysunadi.

Cholg‘u asboblar guruhidagi bir xil tekstura elementi musiqa asarining dastlabki va oxirgi qismlaridah garchi bir xil darajada ifodali eshitilmasada, lekin ijro etilayotgan musiqa asarining shakl, janr va uslubi cholg‘u ijrochisi tuyg‘usiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib butun orkestr (ansambl) faoliyatida ijodiy iz qoldiradi.

Cholg‘ulashtirish tamoyillarining sozandalarning orkestr yoki ansambl faoliyatiga ta’siri haqida ham shunday deyish mumkin. Bir qator mamlakatlarning cholg‘u maktablari amaliyoti tembr ranglarini aralashtirish tabiati bilan ajralib turadi. Masalan, Yevropa bastakorlari orkestr cholg‘ulari tembrlarini aralashtirishga, hatto sof tembr ranglarini individuallashtirishga moyildirlar, bu Italiya orkestr an’analarida yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Rus bastakorlari musiqasini ijro etishda esa cholg‘u ijrochilarining orkestr faoliyati zamirida akkordning umumiy ovoz balandligini ifodalovchi yagona vertikal sifatidagi tushunchasi yotadi. Vaholanki, cholg‘u asboblarini chalish har bir asbobning alohida individual xususiyatlarini butun orkestr vertikaliga bo‘ysunish printsipi bilan belgilanishi kerak. Chunonchi, o‘zbek xalq cholg‘ulari ijrosidagi musiqa asarlari boshqa yondashuv bilan ajralib turadi: nafaqat kuy, balki barcha garmonik tovushlar ham chiziqli rivojlanish bilan ajralib turadi. Shuning uchun ko‘pincha o‘zbek kompozitorlarining milliy cholg‘ular uchun yaratgan musiqa asarlari ijrosidagi asboblarning garmonik to‘qimasi bir nechta gorizontal chiziqlar yig‘indisida uyg‘unlashadi.

Buni bilish va eng muhimi, uni umumiy ovozda eshitish qobiliyati yuqori malakali cholg‘uchining chalishini anglatadi. Uning melodik va garmonik eshitishi shu ehtiyojga muvofiq ishlaydi. Garmonik intonatsiya, qo‘shimcha ravishda, cholg‘uning sof sozlanishida chalishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi. Orkestr va ansambl faoliyati davomida cholg‘u ijrochisining intonatsiyasini belgilovchi asosiy tushuncha tizimning nisbiyligi bo‘lib, intonatsiyaning aniqligiga ta’sir qiluvchi eng muhim shart - bu ansambl ijrosiga qaraganda unsonlarning kengroq bo‘lishidir. Orkestr va ansamblda chalishda doimiy sozlash paytida cholg‘uning intonatsiyasini tuzatish uchun bajariladigan ijro harakatlarini shakllantirish jarayoni quyidagi ketma-ketlikda ifodalanishi mumkin:

www.nitropdf.com

Durdona

- melodik gorizontal va garmonik vertikalning orkestr yoki ansambl fakturasining umumiy tuzilishi bilan bog‘liqligi;

- boshqa ansambl yoki orkestr guruhlari intonatsiyasini hisobga olgan holda ohangning korrelyatsiyasi (o‘zaro bog‘likligi);

- guruh ichidagi tovushlar ovozini intonatsion tahlil qilish;

- guruhdagi har bir ijrochi tomonidan intonatsiyani tuzatish bo‘yicha ijro qarorini qabul qilish.

Ma’lumki, cholg‘uning orkestr ovoziga xosligi yakkaxon yoki ansambl ovozidan farq qiladi. **Tembr** - har bir ijrochining cholg‘uni chalishdagi individual sifati bo‘lib, u ko‘plab sub'ektiv va ob'ektiv omillarga bog‘liq. Orkestr, ansambl yoki yakkaxon ijro tovushining yaratilishidan oldin ohanglarning individual spektri (tembrning sifat xususiyatlari) nuqtai nazaridan uning xarakteriga bilvosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan printsipial jihatdan o‘xshash artikulyar harakatlar amalga oshiriladi. Yakkaxon va ansambl tovushining orkestr tovushidan farqi, avvalo, uning hajmi, intensivligi (tembrning miqdoriy xarakteristikalari) va nihoyat, orkestr asboblari guruhida ataylab individual xususiyatlardan mahrum bo‘lgan har bir musiqachiga xos tovush tabiatidadir(masalan, vibrato).

Orkestr va ansambl sozandasining ichki eshitishi nafaqat intonatsiya balandligiga, balki ijro etilayotgan har bir tovushining boshqa miqdoriy va sifat xususiyatlariga ham qaratilgan. Har safar uning izlanishidan oldin cholg‘ular guruhi va bir oiladosh cholg‘u asboblari guruhining umumiy ovozini idrok etish asosida asbobning ovozi haqida dastlabki g‘oyani shakllantirish amalga oshiriladi. Aynan tembrni oldindan bilish cholg‘uning tovushini ob'ektiv sharoitlar imkon beradigan darajada shakllantirishga qodir.

Cholg‘u ijrochisining orkestr faoliyatidagi artikulyatsiya va zarblarning roli ansambl ijrosidagi rolidan biroz farq qiladi. Kamer ansambl ijrosidagi artikulyatsiya va zarblar ansambli orkestrga o‘tgandan keyin boshqa faoliyat sharoitlari ta’sirida o‘zgartiriladi. Bu yerda eng muhim omil miqdoriy bo‘ladi va bu muqarrar ravishda artikulyatsiya va zarb ansamblidagi sifat o‘zgarishlariga olib keladi.

Cholg‘u ijrochisining orkestr va ansambl faoliyatining boshqa masalalari qatorida dinamika masalasi eng muhim o‘rinlardan birini egallaydi, chunki cholg‘u asboblari orkestrning hamda ansablning dinamik asosidir. Tembr bilan solishtirganda dinamika cholg‘u asboblari tovushining miqdoriy xarakteristikasidir, shuning uchun

www.nitropdf.com

Durdona

orkestr yoki ansamblda chalishdagi asboblarning dinamik muvozanati eng muhim muammodir. Bir tomondan, guruhlarning nisbatan ixcham joylashishi, ikkinchi tomondan, turli guruhlardagi musiqachilarning bir-biridan sezilarli masofada joylashganligi, ba'zan cholg'u asboblarining dinamik muvozanatining buzilishiga olib keladi. Bir xildagi cholg'u asboblarining katta guruhida chalishda sozandalar guruh ichida ham, butun orkestrda ham dinamik muvozanatni eshitish nazoratini sezilarli darajada faollashtirishga majbur bo'lishadi.

Jamoaviy cholg'u ijrochiligi qiyinchiliklari ustida ishlash - ijro jarayonining eng qiyin tomonlarini ongli ravishda modellashtirishdir. Bunday modellashtirishning maqsadi – jamoaviy ijrodan tashqaridagi tekstura elementi ustidagi barcha ichki texnologik ishlarni bajarish va cholg'ularda chalish jarayonida faqat asar teksturasining boshqa elementlari bilan uyg'un kombinatsiyasiga e'tibor berishdir. Yosh cholg'u ichrochilari ko'pincha jamoaviy ijrodagi qiyinchiliklarini yoddan o'rganadilar. Ansambl va orkestr jamoaviy cholg'u ijrochiligi faoliyatining ko'plab ijro vazifalarini hal qilish uchun professional vosita rolini o'ynaydi.

Ijrochi musiqachining faoliyatini umumiy masalalarini ko'rib chiqib, jamoaviy cholg'u ijrosining mohiyatini quyidagicha shakllantirishimiz mumkin: orkestr va ansambl ijrosi - bu cholg'u musiqasining butun texnologik mexanizmini tushunish bilan tavsiflangan musiqiy va badiiy faoliyat, cholg'ularning barcha guruhlari dramatik funktsiyalarini yaratish va xabardor qilish turlaridan biridir.

DURDONA

Nazorat uchun savollar:

1. Ansambl va orkestr ijrosi bo'yicha o'qituvchining qanday ish uslublari mavjud?.
2. Cholg'u ijrochisining ansambl (orkestr) faoliyatining butun jarayoni qanday uzluksiz ketma-ketliklarga ega?.
3. Ijrochining faoliyat texnologiyasiga nimalar kiradi?.
4. Orkestr va ansambl sozandalari hamkorlikda chalishi uchun qanday malakalarga ega bo'lishi kerak?.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:

1. Ansambl(orkest)ning umumiy ijrochilik xususiyatlarini o'rganing.
2. Konsert ijrosi va repetitsiya faoliyati o'rtasidagi farqlarning xususiyatli texnologik va psixologik masalalarnini tahlil qiling.

www.nitropdf.com

Durdona

3. Orkestr va ansamblda chalishda cholg‘uning intonatsiyasini tuzatish uchun bajariladigan ijro harakatlarining ketma-ketlikda ifodalanishini tushuntirib bering.

4. Ansamb va orkestr faoliyatida artikulyatsiya va zarblarning rolini izohlab bering.

Tayanch iboralar: yakka ijro, jamoaviy ijro, hamkorlik, ijro apparati, repetitsiya, badiiy-moddiy jihatlar, melodik gorizontal, garmonik vertikal.

Orkestr va ansambl sozandasining vazifalari

Musiqa asboblarida jamoaviy chalish sozandalarning musiqiy ijodga o‘rgatish va tarbiyalash vositasidir. Jamoaviy ijro ma’suliyat tuyg‘usini rivojlantiradi, musiqiy qobiliyatni faollashtiradi, nozik asabiy faoliyat uchun javob beradigan aqliy mexanizmlarni jalb qiladi va uyg‘otadi. Musiqachini tarbiyalashda katta badiiylikka ega ansambl (orkestr) musiqasi bilan tanishish va ijroviy munosobat o‘rnatish muhim rol o‘ynayd. Ansambl va orkestrda chalish juda qiziqarli bo‘lib ijodiy va estetik zavq beradi, sozandaning ijtimoiy muhitga yaxshiroq moslashishiga yordam beradi, muloqotni rivojlantiradi, boshqalarni tinglashga va birgalikda vazifalarni bajarishga o‘rgatadi. Bunday fazilatlar har qanday ijrochining hayotida zarurdir. Ansambl (orkestr)da chalish jarayonida ijrochilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish eng intensiv tarzda amalga oshiriladi.

Ma’lumki, orkestr sinfida talabalar quyidagilarni o‘rganishlari kerak:

- individual sinfda va ansambl sinfida egallagan cholg‘u chalishning amaliy ko‘nikmalarini orkestrda ijro etishni;
- musiqa asarini eshitish va tushunish, uning asosiy vazifalarini butun orkestr jamoasi hamda alohida orkestr guruhlari tomonidan ijro etilishini;
- dirijyorning niyati va talqiniga amal qilgan holda asarning hab bir qismini ijro etishni;
- dirijyorning imo-ishoralarini tushunishni;
- varaqdan nota matnini o‘qish va unda harakatlana olishni;
- o‘z-o‘zini nazorat qilish va jamoaviy chalish harakatlariga uyg‘unlashishni;
- temp aniqligiga erishishni;
- ritm aniqligiga erishishni;

www.nitropdf.com

Durdona

- zarb(shtix)lar aniqligiga erishishni;
- dinamikaning aniqligiga erishishni;
- agogikaning aniqligiga erishishni.

Shularga ko‘ra butun ta’lim jarayonida ular zimmasiga quyidagi vazifalar yuklanadi:

- kompozitor niyati va dirijyor talabiga ko‘ra orkestrda ijro etish (uslub va shakl masalalari);
- varaqdan ravon o‘qish;
- butun jamoa va alohida guruhlar ijro etgan musiqani tinglash va tushunish; - musiqiy mavzu yo‘nalishi, aks-sadolar va jo‘rnavozlikni eshitish;
- solist va qo‘shiqqa (xorga) jo‘rnavozlik qilish qobiliyatini shakllantirish;
- barmoq va zarblar yordamida bir xil ijro texnikasiga erishish;
- bajarilayotgan ish haqida gapirishni o‘rganish.

Talabalar orkestri

“So‘g‘diyona” kamer orkestri

Orkestr faoliyatidagi muhim ishlardan biri – bu barcha ijrochilarning dirijyor talabiga muvofiq keluvchi ijro sifatini ta’minlashining muhimligidir. Orkestr faoliyatida dirijyorning muloqot qilish qobiliyati uning iste'dodining tarkibiy qismlaridan biri sifatida namayon bo‘ladi. Dirijyor va musiqiy guruh o‘rtasida shakllanadigan yaxshi shaxslararo munosabatlar musiqachilar va dirijyorning yaxshi aloqada bo‘lishiga va ularning san’atiga ishtiyoq bilan xizmat qilishga yordam beradi. Sozandaning dirijyorlik elementlarini yaxshi o‘zlashtirishi orkestr jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Sozanda dirijyorning xatti-harakatlari orqali musiqa asarining ritmik tuzilishini tushunishi bilan birga, shu asarning kechinma va tuyg‘ularni sezishi hamda unga o‘zining munosabatini bildirishi mumkin.

www.nitropdf.com

Durdona

Bo‘lajak sozandalar orasida tez-tez uchrab turadigan kamchiliklardan biri - asar ijrosi sur’ati talablariga to‘liq rioya qilmaslik, ijro davomida tezlashib yoki sekinlashib ketishdir. Mutaxassislar bunday kamchilikni bartaraf etish uchun quyidagi chora qo‘llanishini taklif qiladi:

- sozanda-talaba ijro paytida barcha harakatlarini to‘xtatishi, bir-ikki taktni faqat ovoz chiqarib (ijro etmasdan) sanashi, so‘ng ijroni yana davom ettirishi. Bundan tashqari, mutaxassislar - sozanda asarning ritmi jihatdan yaxshi va to‘g‘ri ijro etilayotgan bo‘laklarini kamchiligi bo‘lgan qismlar bilan taqqoslashi ham yaxshi natija berishini ta’kidlaydilar.

Manbalarda musiqa fanida ijrochi uchun eng zarur bo‘lgan: eshitish qobiliyati, musiqa ritmi tuyg‘usi va eslab qolish qobiliyati (xotira)ning sifat birligi haqida gap yuritiladi. Olimlarning fikricha, musiqa ijrochiligi uchun obrazli eshitishning foydasi katta. Musiqa eshitish orqali qabul qilinib, taassurot olinadigan san’at turi bo‘lganligi tufayli musiqa xotirasi birinchi navbatda eshitish xotirasidir. Musiqa xotirasini mustahkamlash ustida talabaning muntazam ishlashi xotiraning takomillashishini ta’minlaydi.

Ansambl(orkestr) asarlari ustida ishlashning eng muhim shartlaridan biri, bu, har bir talaba bilan individual yoki guruh shaklida ishlash bo‘lib, bu iboralar, zarblar, ritm va hokazolar ustida yanada puxta ishlash imkonini beradi.

Orkestr sozandasining muhim fazifalaridan biri bu – musiqa asari matnini notaga qarab ijro etishidir. Bu murakkab jarayon hisoblanadi. Musiqa asari matnini notaga qarab ijro qilish maxsus mashqlar yordamida, asar ustida mukammal ishlash natijasida o‘zlashtiriladi. Shunga ko‘ra, notani varaqdan o‘qib cholg‘u asbobida ijro etish jarayonida: notaning shaklan sozanda ongiga yetib borishi va ongda qanday harakatni amalga oshirish kerakligini aniqlanishi hamda berilgan notani kerakli harakatlar yordamida ijro etilishi muhim vazifalardan hisoblanadi. Notani varaqdan o‘qib ijro etishning muhim shartlaridan yana biri ijrochining nigohi nota matnidan uzulmasligidir. Shuningdek, ijro etilishni amalga oshirayotgan paytda ijrochi-sozandaning nota yozuvidagi barcha musiqiy belgilarni o‘qiy olishi va ular talablariga qat’iy rioya qilishdir. Sozandaning ichki eshituv qobiliyatini ma’lum darajada rivojlantirish uchun esa asarning nota yozuvini ko‘zdan kechirib, cholg‘usiz “dilda” ijro etish mumkin.

www.nitropdf.com

Durdona

Nota matnini varaqdan o‘qish mahorati musiqani o‘rganish va har qanday asbobni chalishda sifatli hamda samarali darajalarga erishtiradi.

Cholg‘u asbobida ijro etish mahoratni rivojlantirish uchun sozanda:

1. Nota matnini yozib olish qoidalarini, ya’ni musiqiy imlo va tinish belgilar turlarini bilishi;

2. Cholg‘u chalishning asosiy texnikasiga ega bo‘lishni (Agar gammani ravon chalish mahorati yaxshi shakllangan bo‘lmsa notani varaqdan ko‘rib o‘qishga urinishdan foyda o‘ta sust bo‘ladi);

3. Bir vaqtning o‘zida oldingi ikkita nuqta(band)ni va ovozli musiqiylikni birlashtirish uchun ko‘p soatlik mashq qilishni bilishi kerak.

Ularning har biri haqida biroz batafsilroq to‘xtalib o‘tamiz.

1. Avvalo, har bir sozanda musiqaning notalarda qanday yozilishini (notalanganligini), tovush balandligini, uning davomiyligini, tempi va ovoz balandligini, ijro texnikasini va boshqalarni ko‘rsatish uchun qanday belgilar ishlatilishini tushunishi kerak. Ulardan ba’zilari yo‘l belgilariga o‘xshash, ijro ketma-ketligini yoki musiqa tezligini ko‘rsatadigan sof texnik funktsiyaga ega. Bu qandaydir o‘ziga xos qurilma, ramka. Boshqalari esa ohang va ijro uslublari bilan bog‘liq bo‘lib, musiqiy matnning "tanasi, eti" bo‘lgan haqiqiy musiqani yozib olish uchun ishlatiladi. Bu yerda sozandaga musiqiylik, uslub hissi va boshqa ijodiy komponentlar kerak bo‘ladi.

2. Notalarda ifodalangan matnni varaqdan o‘qish ancha yuqori darajadagi konsentratsiyani talab qiladi. Shuning uchun, ba’zi texnik ma’lumotlarga ega bo‘lish muhimdir. Agar sozanda matndagi notalarni o‘qishga harakat qilsa va shu bilan birga qaysi barmog‘i bilan parda(nota)ni bosish va qaysi bir barmog‘ini sim(tor)ga o‘tkazish haqida o‘ylayotgan bo‘lsa, unda uning nota o‘qishlari ushbu foydali mahoratni egallash istagini abadiy so‘ndiradigan azobga aylantiradi. Cholg‘uda ijro texnikani rivojlantirish uchun gammalar, arpedjolar yordam beradi, albatta. Shuningdek, pozitsiyalarni o‘zgartirish, turli intervallarni ijrosi (chalish) uchun mashqlar va boshqalar ijobiy yordam beradi. Umuman olganda, bularning barchasi, tovushlarni chiqarishning avtomatizmga yetkazishga yordam beradigan narsalar hisoblanadi.

3. Bu yerda hamma narsa individualdir. Ba’zilar yangi ko‘nikmalarni tezroq, ba’zilari esa sekinroq egallaydilar. Sozandaning qaysi guruhga mansubligidan qat'i nazar, yangi mahoratni rivojlantirish uchun har

www.nitropdf.com

Durdona

kuni cholg‘uda mashq qilishi, chalishga biroz vaqt ajratishi kerak bo‘ladi. Oddiydan murakkabroqqa, eng sekin sur'atdan eng tezga o‘tish kerak. Cholg‘u asbobini tez va beparvo chalgandan ko‘ra, sekin va to‘g‘ri chalgan ma’qul.

Notalarni o‘qishni o‘rganishda "modullilik"ga erishish va ko‘nikmalarni alohida-alohida oshirish muhimdir. Eng oddiy holatda, varaqdan bitta taktdagi notalarni cholg‘uda chalish uchun biz ritmik naqshni o‘qishimiz, cholg‘u pardalaridagi notalarni topishimiz, barmoqlarni sim(tor)larga o‘tkazish mo‘ljalini to‘g‘ri olishimiz va barchasini birlashtirishimiz kerak.

Musiqa asari ustida ishlashni boshlaganda o‘qituvchi uning musiqiy mazmuni haqida umumiy tushuncha berishi kerak. Buning uchun asarni bir butun sifatida chalish yoki uni magnit tasma yozuvida tasvirlash kerak. Yangi asarni oldindan birgalikda o‘qishdan so‘ng, mashq qilish davri boshlanadi. Musiqa asarining musiqachilar guruhi tomonidan ijro etilishi, o‘zaro tushunish va o‘z harakatlarini guruh sa’y-harakatlarining yakuniy natijasi uchun mas’ul bo‘lgan dirijyorning yagona irodasiga bo‘ysundira bilishni talab qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Aansambl (orkestr) sinfida talabalar nimalarni o‘rganishlari kerak?.
2. Anasambl(orkestr) ta’limi jarayonida talabalar zimmasiga qanday vazifalar yuklanadi? .
3. Jamoaviy chalishni sinxronlashtirish asosiy texnik talablardan biridir, deganda nimalarni tushunasiz?.
4. Nima uchun ritm musiqaning markaziy elementlaridan biri, deyiladi?. Tushuntirib bering.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Cholg‘ular ansamblining zaruriy sharti va xususiyatlarini o‘rganing.
2. Cholg‘ularda tovush chiqarish texnikasining birligi masalalarinini tahlil qiling va tushunchangizni izohlab bering.
3. Barcha ijrochilarning dirijyor talabiga muvofiq keluvchi ijro sifatini ta’minlash usullarini tushuntirib bering.
4. Notani varaqdan o‘qib cholg‘u asbobida ijro etish qoidalarini o‘rganing va mashq qiling.

Tayanch iboralar: tovush chiqarish texnikasi, zarb, izchillik, temp-ritm birligi, dinamika, tovush kuchi, sinxronlashtirish, ritm, varpaqdan o‘qish.

www.nitropdf.com

Durdona

Ruziyev Davron Yuldashevich

Jamoa ijrochiligida dirijyor faoliyati

Dirijyorlik talaba-sozanda shaxsini musiqiy-estetik rivojlantirish va uning ma’naviy madaniyatini shakllantirish vositasidir. Dirijorlik ta’limi o‘quvchining vokal-xor, cholg‘u, musiqiy-nazariy va musiqiy-pedagogik tayyorgarligini o‘zida mujassam etgan.

Dirijorlik faoliyatining psixologik o‘ziga xosligi shundan iboratki:

***** u ko‘plab shaxslardan tashkil topgan, har xil xarakter, temperament va psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan musiqachilar jamoasi tarkibib bilan bog‘liq;

- dirijyor faoliyatining muhim xarakterli xususiyati – bu kommunikativlik (aloqa, fikr almashish)dir;
- dirijyor muallif va ijrochilar o‘rtasida vositachi, tarjimon;
- dirijyorning ijrochilik faoliyati tovushni kutish bilan bog‘liq, shuning uchun dirijyorning fikrlashi va ichki eshitishi yetakchi dirijyorlik imo-ishoralarida o‘z ifodasini topishi kerak;
- dirijyor orkestr faoliyatining asosiy xususiyati uning ko‘p funksiyaliligi bo‘lib, u tashkilotchi, o‘qituvchi, rahbar va hokazo vazifalarni bajarishdan iborat.

Pedagogik ishning samaradorligi o‘qituvchining tayyorgarligiga, jumladan, uning nazariy savodxonligiga bog‘liq. Jamoaviy ijroni boshqaradigan pedagogik faoliyatning yuksak natijalarga erishtirish uchun o‘qituvchi dirijyorlik qobiliyatni, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish asosidagi aqliy va jismoniy, xatti-harakat jarayonlarining mohiyatini, tuzilishini yaxshi bilishi kerak.

Dirijyor va orkestr o‘rtasidagi asosiy aloqa vositasi dirijyorlik imo-ishorasidir. Ifodali imo-ishoralar va mimikalar yordamida jamoaviy

www.nitropdf.com

Durdona

ijroga yo‘naltirilgan jamoa (orkestr, xor) rahbari o‘zining ijodiy niyatlarini, musiqiy-badiiy obrazning rivojlanish dinamikasini ochib beradi va jamo ijrosiga irodaviy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuning uchun, uning faoliyatidagi har bir imo-ishora to‘g‘ri ishlab chiqilishi, juda aniq hissiy va ma’noviy yukni ko‘tarishi hamda madaniyat, harakatlar estetikasi haqida umumiy g‘oyalarga javob berishi kerak. Dirijyorning ishchi imo-ishorani o‘zlashtirish mahorati intonatsiyani to‘g‘rilash, matn va polifonik qiyinchiliklarini ko‘rsatish, tovushning tembr ranglanishi va qiyin ritmik elementlarni ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

Musiqani dastlabki eshitish ichidagi xabardorlik uning qo‘lda (manual)-plastik, imo-ishorali timsoli uchun zaruriy shartdir. Manual dirijyorlik texnikasi - (lat.manualis so‘zidan - qo‘lda) dirijyorning musiqiy va obrazli chiqishlarini yetkazuvchi maxsus qo‘l harakatlari - dirijyor texnikasining ajralmas qismidir.

Estetik jihatdan mukammal ijro dirijyorda ijro etilayotgan asar haqida uning ifodali vositalari va mazmuni to‘liqligida chuqur, mazmunli g‘oyalar shakllangandagina mumkin bo‘ladi. Ammo ijro sifati nafaqat musiqaning badiiy mazmun-mohiyatini chuqur anglash, balki uning manual-plastik timsoli sifatiga ham bog‘liq. Eshitish - motor aloqalarining shakllanishi bilan dirijyorning qo‘llari asta-sekin "eshitish", "fikrlash", "gapirish"ga aylanadi. Dirijyor apparatining ifodaliligi nuqtai nazaridan dirijyorning yuz ifodalari, uning nigohi katta rol o‘ynaydi. Dirijyorning ijrochilarga ta’siri jarayonida harakat namoyon bo‘lishining tashqi shakli - bu musiqa asarining mazmuninigina emas, balki dirijyorning ichki dunyosini ham ochib beradigan nozik san’atdir.

Umuman olganda, dirijyor - bu kompozitsiyalarni ijro etish paytida musiqachilarni nazorat qiladigan musiqa arbobi. U ansambl, orkestr, xor, opera ish profiliga ega. Nomidan ko‘rinib turibdiki, orkestr

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

dirijyori musiqachilar uyushmasining ushbu shakli bilan ishlaydi. Bundan tashqari, dirijyor va orkestr faqat tandemda mavjud bo‘lgan yagona organizm turidir. Barcha ishtirokchilar bir-birlarining ijro qilish uslubining o‘ziga xos xususiyatlarini, birovning kayfiyatini his qilish va unga moslashish qobiliyatini yaxshi bilishadi. Shu bilan birga, dirijyor shunchaki rahbar emas. Uning roli texnik yoki rasmiylikdan uzoqdir. Dirijyor - bu asarlarni o‘z idroki orqali ularga urg‘u beradigan shaxs. U kalitlarni o‘zgartirishi, pauzalarni uzaytirishi yoki tinglovchilarning diqqatini muayyan cholg‘u qismlariga qaratishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, orkestr dirijyori sahna rejissyorining musiqiy analogidir. Unda asarning asl materiali bor, lekin u unga dunyo haqidagi o‘zining idroklarini olib keladi. Qolaversa, orkestr dirijyori, albatta, jamoa ijrosining musaffoligi uchun javobgardir. Orkestr ijrosi muvaffaqiyatli chiqishi yoki ommaga yoqmasligi ko‘p jihatdan dirijyorga bog‘liq. Bir so‘z bilan aytganda, dirijyorlik kasbi nafaqat yetakchilik qobiliyatini, balki benuqson eshitish va iste'dodni ham talab qiladi.

Dirijyorning imo-ishorasi - bu dirijyorning qo‘llari, tanasi yoki boshi harakatlari, shuningdek, uning yuz ifodalari, ijrochilarga o‘ziga xos musiqiy tasvirni yetkazish. Dirijyorlik o‘lchovi (yunoncha metron - o‘lchov, me’yor) - taktdagi dirijyorlik hissalar soni. Dirijyorlik o‘lchovi nota yozuvidagi takt o‘lchoviga mos kelmasligi mumkin.

Dirijyor - bu ko‘plab asboblarni bittaga, ko‘plab tovushlarni esa bitta musiqa matosiga birlashtiradigan kishi. U ulkan musiqa asarlarini notalar tilidan tovushlar tiliga “tarjima qiladi”. Dirijyor - bastakorlar tasavvurida tug‘ilgan musiqiy qahramonlarni konsert sahnasiga olib chiqadigan shaxs. Musiqani yorqin tushuntiradigan, sezdiradigan odam. O‘z qalbini musiqaga qo‘ygan odam butun orkestrni, undan keyin esa butun konsert zalini ilhomlantiradi. Dirijyor ajoyib eshitish, ritm hissi va musiqiy xotiraga ega bo‘lishi kerak. Dirijyor qanday qilib shunchalik og‘ir ishni - bir vaqtning o‘zida juda ko‘p odamlarning his-tuyg‘ularini, fikrlarini o‘ziga bo‘ysundiradi, boshqaradi? Buning uchun maxsus til - yuz ifodalari va imo-ishoralar tili mavjud bo‘lib, uning yordamida dirijyor orkestr bilan muloqot qiladi. Dirijyor maxsus imo-ishoralar, tana harakatlari va mimikalar yordamida orkestrga metrik to‘rni (o‘lchovni), dinamikani (tovushning kuchi), zarblarni (ijro qilish usulini), musiqa tempini, har bir qismning kirish va olib tashlash vaqtini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, dirijyor butun orkestr uchun ham, uning alohida guruhlari va a’zolari uchun ham musiqa ijrosi xarakterini

www.nitropdf.com

Durdona

ko‘rsatadi. Ammo bularning barchasini "qanday boshqarish kerak", degan savolga bog‘lash mumkin. Buning uchun professional orkestr dirijyori quyidagi fazilatlarga ega bo‘lishi kerak:

1. xushmuomalalik; 2. rivojlangan fantaziya; 3. musiqiy did; 4. tashkilotchilik qobiliyati; 5. yaxshi xotira.

Nazorat uchun savollar:

1. Dirijyor faoliyatning o‘ziga xos qanday xususiyatlari mavjud?.
2. Dirijyor va orkestr o‘rtasidagi asosiy aloqa vositalari nimalardan iborat?.
3. Dirijyor qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak?.
4. Nima uchun orkestr dirijyorini sahna rejissyorining musiqiy analogi, deb qiyoslanadi?.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Dirijyor faoliyatining muhim xarakterli xususiyatlarini o‘rganing.
2. Dirijyor muallif va ijrochilar o‘rtasida vositachi, tarjimon ekanligini tushuntirib bering.
3. Dirijyor va orkestr o‘rtasidagi asosiy aloqa vositasi dirijyorlik imo-ishorasidir, degan iboraning misollarda izohlab bering.
4. O‘zbekistonlik dirijyorlar faoliyatini o‘rganing.

Tayanch iboralar: Dirijyor, orkestr, dirijyorlik imo-ishora, dirijyorlik texnikasi, faoliyat.

DURDONA

BESHİNCHİ BO‘LİM.

Musiqiy asar ustida ishlashning eng yuqori bosqichi sifatida konsert namoyishiga tayorgarlik faoliyati

Musiqachi-ijrochining shaxsiyatiga konsert faoliyati katta ta’sir ko‘rsatadi va bizning fikrimizcha, konsert davomida ruhiy-ijodiy ko‘tarilish holatini shakllantirish uchun quyidagi ehtiyojlar eng qimmatlidir: ishtirok etish orqali tovushlar vositasida ifodalanadigan musiqiy go‘zalliklar dunyosiga qo‘shilish zarurati, ya’ni ansambldagi sheriklar va jamoatchilik bilan ijodiy muloqot qilish zarurati, o‘z musiqiy g‘oyasini boshqalarga yetkazish, saqlash istagida o‘zini namoyon qilish zarurati.

Konsert faoliyatining namoyish etilishi - bu hal qiluvchi ijodiy faoliyat bo‘lib har bir musiqachining (ham yetuk, ham boshlang‘ich)

www.nitropdf.com

Durdona

asar ustida uzoq yillik ishining natijasidir. Va, albatta, bularning barchasi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ta’lim va musiqachi bo‘lish tizimidagi zarur bosqich hisoblanadi. Ta’lim – bu musiqiy fikrlash, ijodiy tasavvur, eshitish, texnik ko‘nikmalar, xotira, ish rejimida konsentratsiya va umumiy madaniyatdir.

Ko‘pincha konsert bosqichlarida tanaffuslar ro‘y beradi, bu hatto iqtidorli ijrochilarga ham jiddiy ruhiy shikast yetkazadi, bu esa ba’zida konsert faoliyatini namoyish etishda bosh tortishiga ham sabab bo‘ladi. Ijrochi bilan sahnada sodir bo‘lgan tanaffuslarning sabablarini ko‘rib chiqib, hayajon muammosi - "omma oldida" ichki ozodlik muammosi, o‘zini asabiy taranglikdan ozod qilish qobiliyati haqida batafsil to‘xtalib o‘tish lozim.

Rus teatr rejissyori, aktyor va o‘qituvchi, nazariyotchi va teatr islohotchisi K.Stanislavskiy nozik psixologik kuzatuv bilan aktyorning sahnada boshdan kechirgan og‘riqli va g‘ayritabiiy holatini shunday tasvirlaydi: “Biror kishi - san’atkor minglab odamlar oldida sahnaga chiqqanda, qo‘rquvdan, uyatchanlikdan, mas'uliyatdan o‘zini yo‘qotadi, ruhiy qiyinchiliklarni sezadi. Bu daqiqalarda u gapira olmaydi, ko‘ra olmaydi, tinglay olmaydi, o‘ylay olmaydi, xohlamaydi, his qila olmaydi ". Bunday holatlar musiqachilar faoliyatida ham sodir bo‘ladi, albatta. Ya’ni, musiqachi-ijrochining hayajoni aktyorning tasvirlangan hissiyotidan farq qilmaydi, javobgarlik ongi, notanish muhit, muvaffaqiyatsizlik qo‘rquvi - bularning hammasi ijodiy qobiliyatni tartibsizlikka uchrashiga sabab bo‘ladi.

Ko‘pgina talabalar uchun konsertda chiqish oson emas. Sahnadan qo‘rqqan va odatda o‘z darajasidan ancha past bo‘lgan tomoshabinlar oldida chiqish qilgan, zo‘r virtuozlarda ham hayajon kuchli bo‘lgan. Masalan, G.Noyxaus "Pianino chalish san’ati to‘g‘risida" kitobida A.Rubinshteyn, L.Godovskiy va boshqalar kabi mashhur san’atkorlar konsertlar oldidan qanday tashvishlanganini eslaydi. A.Goldenveiserning yozishicha, konsert oldidagi hayajon ko‘pchilik buyuk rassomlarga ham xos bo‘lgan. Bu qoidadan kamdan-kam istisno sifatida u konsertdan oldin umuman tashvishlanmagan I.Xoffman haqida gapiradi. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, ijrochini konsertga tayyorlash bosqichining mohiyatini, uning xususiyatlarini, sahna hayajonini yengishning asosiy usullari va texnikasining xususiyatlarini ochib berish maqsadida har bir amaliy ishga alohida

www.nitropdf.com

Durdona

e’tibor qaratish, ijodiy faoliyatning puxta ta’minlanishiga jiddiy yondashish kerak.

Musiqiy asar ustida ishlashning eng yuqori bosqichi - bu ijrochining konsert va sahna chiqishidir. Uzoq va mashaqqatli mehnat natijalarini omma oldida taqdim etish o‘z-o‘zidan javobgarlik hisini shakllanishidir. Ikkinchi tomondan qaraganda, bu jarayon tinglovchiga yoqqan asarni ko‘rsatish, o‘z hissiy hayajonini badiiy ijod bilan yetkazish imkoniyati hamdir. Shuningdek, ijrochi uchun bu jarayon asarning konseptsiyasi va mazmun-mohiyatini puxta egallab olish, tasvirlab berish, tovushlar vositasida ifodalanadigan har bir detalini his qilishi va tushunishi hamdir. Agar konsert hisobot davri yutuqlari baholanadigan va baho qo‘yiladigan hisobot konserti bo‘lsa - jamoaviy ijro bo‘ladimi yoki yakka ijro sharoiti bo‘ladimi ta’lim jarayoniga bo‘lgan mas'uliyat ortadi.

O‘qituvchining kuchli nazorati ostida o‘tadigan butun tarbiya jarayoniga qaramay, konsert faoliyati asosan musiqachining individual qobiliyatiga bog‘liq. Sahnada o‘zini tutish, ijro paytida his qilish, tomoshabinlarning munosabatiga munosabat - bularning barchasi har bir ijrochida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

Konsert dasturiga tayyorgarlik. Konsert dasturiga tayyorgarlik usuli -musiqachi-o‘qituvchilarning diqqatini tortadi. Bugungi kunga qadar musiqiy va pedagogik amaliyotda samarali qo‘llaniladigan turli xil texnikalar ishlab chiqilgan.

Ma’lumki, konsertda o‘z mahoratini namoyish etish davomida ruhiy energiyaning tez, maksimal konsentratsiyasini, aqliy, jismoniy va intellektual resurslarni maxsus safarbar qilish va qat'iy ichki tartib bilan musiqa asarini omma oldida ijro etish paytida hissiy va jismoniy chidamlilikni talab qiladi.

Konsert dasturiga tayyorgarlik musuqa asarini tanlashdan boshlanadi. Albatta, talabaning ta’lim repertuarini tuzishda o‘qituvchi dastur talablarini, o‘z o‘quvchisining kasbiy fazilatlarini rivojlantirishning yaqin, eng dolzarb vazifalarini, uning xohish-istaklarini inobatga oladi. Talaba ijro etish uchun tanlangan asarlarni yoqtirishi, uning eng yaxshi shaxsiy fazilatlari asarlar ijrosi davomida yaqqol namoyon bo‘lishi uchun ularni o‘zlashtirish istagini uyg‘otishi maqsadga muvofiqdir. Bu, asarlarning texnik va badiiy murakkablik darajasi uning rivojlanish bosqichida talabaning ijro qobiliyatidan oshmasligi kerak, lekin shu bilan birga, agar uning asarlari bosqichma-

www.nitropdf.com

Durdona

bosqich o‘sib borayotganini ko‘rsatish mumkin bo‘lsa, foydali bo‘ladi. Aynan shunday asarlar ijrochiga mashg‘ulotning istalgan bosqichida dasturning badiiy va texnik tayyorgarligining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lgan improvizatsiya erkinligini eshitishga imkon beradi. Bunday improvizatsiya erkinligi ijrochiga sahnada o‘z mahoratini namoyish qilish, o‘z faoliyatidan zavqlanishga olib keladi. Shu bilan birga, ijrochining kasbiy ta’limiga qo‘yilgan zarur shartlarni bajarilishini ta’minlaydi.

Konsertlar jarayonida talabaning o‘ta sa’y-harakatlarini talab qiladigan ishlarni bajarishi tavsiya etilmaydi, lekin ular talabaning shaxsiy xohishiga mos keladigan bo‘lsa, unda ularni ijro repertuariga kiritish juda foydali.

Albatta, musiqiy asarning omma qarshisida ijrosi nafaqat talabaning shaxsiy iste'dodini, iqtidorini, balki, birinchi navbatda, kasbiy mustaqillik darajasini ko‘rsatadi. Shu sababli, konsertga tayyorgarlik paytida va musiqiy asarning kishilar qarshisida ijrosi jarayonida talaba o‘zini tartibga solishi, o‘zini nazorat qilishi va konsertdan so‘ng uning ijrosiga mustaqil baho berishi juda muhim.

Konsert namayonishining eng muhim qismlari: yakuniy repetitsiya, chiqish kunidagi xatti-harakatlar, sahnaga chiqish va uni tark etish, konserning boshlanishi. Ular bilan bog‘liq ba’zi ko‘rsatmalarga e'tibor qarataylik:

Yakuniy mashq xonaning o‘zi va uning akustikasi bilan tanishish maqsadida konsert o‘tkaziladigan xonada o‘tkaziladi. Ijrochining mas'uliyatini oshirish uchun auditoriyani ushbu mashg‘ulotga (boshqa o‘qituvchilar, sinf o‘quvchilari, do‘stlarni) taklif qilish juda foydali. Yakuniy repetitsiya konsertda ijro etiladigan asarlar ketma-ketligi tartibida bir martalik, eng mas'uliyatli tarzda bajarilishini nazarda tutadi. Yakuniy repetitsiyadan oldin dastlabki mashg‘ulotlarni o‘tkazish kerak. Bunday mashg‘ulotlar uyda ham, boshqa xonada ham o‘tkazilishi va butun dasturni to‘liq takrorlash mumkin. *Konsert kuni* aksariyat ijrochilarda "konsert oldidan hayajon" mavjud bo‘adi. Hayajonning intensivligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijro sifatiga bog‘liq emas: hatto juda kuchli hayajon bilan ham yuqori natijalarga erishish mumkin. Bu borada mutaxassisilar: “hayajon bo‘lmasa, siz bo‘shashib, yomon ijro etasiz”, degan fikrni bildiradilar.

Sahnaga chiqish(dasturni yakuniy namoyishi) kunidagi xatti–harakatlar, ko‘rsatmalar, talablar bir xilda bo‘lishiga erishish kerak.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Nevropsixik energiyani tejash, ko‘p o‘qimaslik, gapirmaslik, televizor ko‘rmaslik kerak. Biroz mashq tavsiya etiladi va asarlar sekin sur'atda, hissiy jihatdan cheklangan holatda mashq qilinishi kerak.

Sahnaga chiqishdan oldin ma’nosiz suhbatlar o‘tkazish tavsiya etilmaydi. Bundan tashqari, hayajon bosimi ostida xona(sahna)da yurishning hojati yo‘q. Mushaklar bo‘shashgan holda qulay holatda jim o‘tirish yaxshiroq (o‘qituvchi buni oldindan o‘rgatishi kerak). Agar konsertdan oldin asarlarni mashq qilish istagi paydo bo‘lsa, unda, dastlab sekin-asta sur’atda etyudlar, gammalar yoki konsert asarlari parchalari, alohida epizodlarini mashq qilsh mumkin. Ammo dasturning turli epizodlarini cholg‘u asbobsiz, xotiraga tayangan holda xayoldan o‘tkazish foydalidir.

Sahnaga chiqishdan oldin *tasvirga kirish* juda muhim lahzadir. Garchi konsert kuni ijrochi o‘zining konsert dasturi tasvirlarida yashasa-da, lekin konsert boshlanishidan oldin, ayniqsa, ijodiy, emotsional ko‘tarilgan kayfiyatni uyg‘otish kerak.

Talabaning *sahnaga chiqish va uni tark etishini* qayta-qayta takrorlash kerak. Bu yerda eng maqbul energiya va chidamlilik, qadr-qimmat va kamtarlik hissi oshadi. Sahna(xona)da qulay joy tanlash, qo‘llar tarangligini bo‘shatish, behuda harakatlar qilish va h.k. - bularning barchasi haddan tashqari hayajonlanmasdan, tezda bajarilishi kerak. Talabaga sahnaga chiqish va ijroni boshlanishi orasidagi soniyalardan foydalanishni o‘rgatish, cholg‘u asbobining holatini tekshirish, kerakli hissiy va mushak uyg‘unligini yaratish va boshlang‘ich tempni o‘rnatish uchun foydalidir. Konsert dasturi tugagandan so‘ng, tanaffusga hojat yo‘q. Pauza qilish, musiqaga "to‘xtash" imkoniyatini berish kerak, shundan so‘ng hurmat bilan o‘rnidan turib, tomoshabinlar oldida ta’zim qilib, sahnani sokin sur'atda tark etish kerak.

Qo‘shimcha qilish mumkinki, eng maqsadli tayyorgarlik ishlari ijrochini konsert paytida mashaqqatli faoliyatdan ozod qilmaydi. Shuga ko‘ra ijodiy faoliyat o‘zini nazorat qilish va o‘zini tuta bilish bilan birlashtirilishi kerak, bu esa o‘z faoliyatini boshqarishga va eng samarali badiiy natijalarga erishishga imkon beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Musiqiy asar ustida ishlashning eng yuqori bosqichida qanday ishlar amalga oshiriladi?.

www.nitropdf.com

Durdona

2. Konsert dasturiga tayyorgarlik qanday usullarda amalga oshiriladi?.

3. Yakuniy mashq nima maqsadda amalga oshiriladi?.

4. Sahnaga chiqish va uni tark etishning qanday qoidalariga rioya qilinadi?.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Konsert namoyishiga tayorgarlik ko‘rish jarayoniga tegishli ishlarni tushuntirib bering.

2. Konsert namayonishining eng muhim qismlari:

a) yakuniy repetitsiya;

b) chiqish kunidagi xatti-harakatlar;

v) sahnaga chiqish va uni tark etish;

g) konserning boshlanishiga oid ishlar jarayonini misollarda izohlab bering.

Tayuanch iboralar: mashq, yakuniy mashq, sahnaga chiqish va uni tark etish, konsert.

DURDONA

Konser dasturi namoyishida hayajonlanishning psixologik asoslari. Uni bartaraf etish usullari va uslublari

b) talabaning musiqa asarini cholg‘u asbobida mustaqil chalib o‘rganishi jarayoni erishayotgan muvaffaqiyatini muntazam nazorat qilish kerak. Bu borada o‘qituvchining individual maslahatlari zarur. Bu yerda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi shaxsiy pedagogik muloqot fundamental ahamiyatga ega bo‘lib, bu cholg‘u sinfdagi mashg‘ulotlarning individual shakli bilan osonlashadi.

Shunday qilib, talabaning musiqa asarini cholg‘u asbobida mustaqil chalish faoliyati quyidagi jihatlarga asoslanishi kerak:

- talabaga ta’lim muassasaidagi o‘z mavqeini ro‘yobga chiqarishga yordam berish va bilim olish hamda o‘quv faoliyatining turli ko‘nikmalarini egallashda faol mustaqil ishlashga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish, ya’ni, o‘rganish uchun motivatsiya yaratish;

- ta’lim jarayonida talabalarni o‘quv faoliyatining turli shakllarini o‘zlashtirishga rag‘batlantirish (o‘qituvchi bilan sinfda o‘rganilgan

www.nitropdf.com

Durdona

o‘quv materialini individual tarzda mustahkamlash; varaqdan o‘qib musiqa asari tuzulmalarining o‘rganish, ansamblda chalish va h.k.). Omma oldida akademik konsertlar berish, imtihonda chalish va o‘z ijrosi bo‘yicha og‘zaki tushuncha berish, erishilgan natijalarni keyinchalik muhokama qilish imkoniyatini ta’minlash;

- talaba uchun o‘quv intizomi bo‘yicha o‘z ustida mustaqil islashining butun hajmini belgilash va uning alohida turlarini bajarish muddatlarini ko‘rsatish.

Semestr boshida o‘qituvchi birinchi darsdayoq talabani maqsad, vositalar, mehnat intensivligi, muddatlari, nazorat va o‘zini o‘zi nazorat qilish shakllari bilan tanishtirishi kerak.

Talabalarni kichik kurslardan boshlab cholg‘u asbobida chalish, musiqa asari ustida ishlash, o‘z mahoratini o‘stirib borish bo‘yicha mustaqil ishlarini rejalashtirishgacha o‘rgatish kerak. Cholg‘u asboblari xususiyatidan kelib chiqib mustaqil ish jadvallari har bir talaba uchun alohida tuzilishi maqsadga muvoffaq bo‘ladi. Bunda quyidagilar hisobga olinadi:

a) vaqt (mustaqil ish uchun belgilangan vaqt miqdori);

b) har bir bosqichda turli ishlarni o‘z ichiga olgan mazmun tomoni;

v) o‘quv fanining mazmuni o‘zgaruvchanligi va mustaqil ish uchun turli topshiriqlar majmuasi orqali har bir talabaga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkonini berish.

Fan bo‘yicha uy vazifasi - asosiy cholg‘u asboblariga tegishli barcha turdagi vazifalarni, bajarish texnikasi va usullarini o‘z ichiga olishi, ularni talabalar o‘z nazoratidan muvaffaqiyatli o‘tkazishlari uchun dars jarayonida o‘qituvchi bilan birgalikda ishlashda o‘zlashtirishlari kerak.

Cholg‘u asbobida bajariladigan topshiriq, vazifalarni semestr boshida berish tavsiya etiladi. Bunda topshiriq va vazifalarni bajarish muddatlari aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Mustaqil ish uchun topshiriqlar ikkita qismdan - majburiy va fakultativ(ixtiyoriy) bo‘lishi mumkin. Bular cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha ko‘proq tayyorgarlik ko‘rgan talabalar uchun mo‘ljallangan, ularning bajarilishi yakuniy nazoratda hisobga olinadi. Masalan:

- 15-20 daqiqa davomida talaba mustaqil ravishda ishlab chiqqan musiqiy matn parchasi ko‘rgazmasini tayyorlash;

www.nitropdf.com

Durdona

- musiqa asarini mustaqil tahlil qilish (tarixiy-nazariy va iloji bo‘lsa ijro etish), tahririyatning turli ko‘rsatmalari bilan tanishish;

- muallifning asardagi mulohazalarini o‘rganish va tushunish.

Talabalarga quyidagi topshiriq berish tavsiya etiladi: individual rejaga kiritilgan musiqiy asarlarning turli ijro talqinlari bilan mustaqil tanishish va ularni taqqoslash. Bu o‘z navbatida talabada mustaqil fikr-mulohazalarni shakllantirishga yordam beradi.

O‘z ustida mustaqil ishlash ham texnik o‘quv qurollari, ham axborot resurslari bilan ta’minlanishi kerak (masalan, kafedrada ishlab chiqilgan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, uslubiy tavsiyalar, musiqa va boshqa adabiyotlar). Talabalarning joriy yutuqlari va ularning kafedradagi mustaqil ishlari natijalarini aniqlash maqsadida har bir talaba muvaffaqiyatini baholashning reyting tizimini joriy etish kerak. Mustaqil ish uchun auditoriyaning mavjudligini ta’minlash kerak.

Cholg‘u ijrochiligi sinfi amaliyotida talabaning o‘z ustida mustaqil ishlashini faollashtirish uchun musiqa asarini ko‘zdan kechirish va konturni (sirtqi ko‘rinish, shaklini) o‘rganish kabi mashg‘ulotlarni faolroq joriy etish zarur.

Asarni ko‘zdan kechirish va cholg‘u asbobida chalib o‘rganish - bu varaqdan o‘qish va asarni puxta o‘zlashtirish o‘rtasidagi oraliq sifatida tavsiflanishi mumkin bo‘lgan o‘quv faoliyatining maxsus turi, u tomonidan ishlab chiqilgan musiqiy material miqdorining sezilarli darajada oshishiga, o‘quv faoliyati jarayonida o‘rgangan va o‘zlashtirgan narsalarni sezilarli darajada o‘sishiga olib keladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, cholg‘u asbobida o‘qitishda qo‘llaniladigan musiqiy material hajmining ko‘payishi va uni o‘tish tezligining tezlashishi bo‘lajak sozandaning kamolotini rag‘batlantiradi, musiqa asarlari bilan har tomonlama tanishish uchun keng imkoniyatlar ochadi, bu asosan talaba-musiqachining mustaqil ishi jarayonida yuzaga kelishi kerak.

Shunday qilib, shogird-musiqachining o‘z-o‘zini tayyorlashi nafaqat alohida fanni o‘zlashtirish, balki o‘quv faoliyatida mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, mas'uliyatni o‘z zimmasiga olish, muammoni mustaqil hal qilish va konstruktiv (asos bo‘la oladigan) yechimlarni topish uchun zarurdir. Oliy ta’lim muassasaida o‘qituvchi faqat talabaning bilish faoliyatini tashkil qiladi, bilib olishni esa talabaning o‘zi amalga oshiradi. Mustaqil ish darajasini bosqichma-bosqich takomillashtirish va oshirish ushbu faoliyatda eng qimmatli

www.nitropdf.com

Durdona

tajribani shakllantirishga imkon beradi, bu birinchi navbatda "o‘z-o‘zini ijodkorlikka" yo‘naltiriladi va shaxsga hayotda yordam beradigan turtki bo‘ladi. Mustaqil amaliy faoliyatda shu bilan to‘xtab qolmay, doimo o‘z bilimini to‘ldirishga, kasbiy mahoratini oshirishga intiltiradi.

Oliy o‘quv yurtlarining cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishida o‘qitishning mavjud amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, talabalarning darslarga o‘z-o‘zini tayyorlashi tartibsiz va samarasiz bo‘lib, bu ijrochilik ta’limining past sifatiga, professional yoki havaskor musiqiy va ijodiy faoliyatga qo‘llash uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarning yetishmasligiga olib keladi.

Ko‘rinib turibdiki, talabalarning mustaqil ishini tashkil etish bilan birga malakani shakllantirishda ham asosiy rol o‘qituvchiga tegishli. Biroq, mavjud uslubiy adabiyotlarda ushbu muammoni hal qilishning kontseptual yondashuvi hali mavjud emas, shuning uchun amalda u cholg‘u asbobi o‘qituvchining shaxsiy imtiyozlari, uning professional ijrochiligi va pedagogik tajribasi asosida hal qilinadi. Yuqoridagi muammoni hal etishga hissa qo‘shish bo‘lajak o‘qituvchi-musiqachining mustaqil ishining parametrlarini, shuningdek, uni tashkil etishning fundamental omillarini oydinlashtirishda ko‘rinadi.

Bo‘lajak sozandalarnng cholg‘u sinfida mustaqil ishini tashkil etishda oqilona yondashuvni rivojlantirish yo‘llarini izlash umumiy pedagogikaning didaktik asoslariga murojaat qilishni talab qiladi. Masalan, olimlar o‘z asarlarida "o‘quv jarayoni ta’lim beruvchi va o‘rganuvchining o‘zaro ta’siri"da bo‘lishini hamda talabalar ijobiy ta’lim natijasiga erishish uchun o‘qituvchining bergan vazifasi yoki faoliyati tufayli o‘z oldiga maqsad qo‘yadilar, deb ta’kidlaydilar. Olimlar o‘qituvchining protsessual ketma-ketligini va namunaviy kasbiy faoliyatini, shu jumladan maqsad, metodlar, fan bo‘yicha bilimlarni shakllantirish vositalarini belgilaydilar. Ular talabalarga bilim va ko‘nikmalarni uzatish jarayonida o‘qituvchi ishini o‘rganishning tadqiqot tajribasini umumlashtirish, ularni o‘quv materiali bilan mustaqil ishlash usullari bilan qurollantirishni ham belgilaydilar. Olimlar, shuningdek, o‘qituvchining ijodiy faoliyatining protsessual (jarayonga oid) xususiyatlarga ega ro‘yxatni tuzadilar va unga quyidagilar kirishini ta’kidlaydilar:

www.nitropdf.com

Durdona

1. Bilim va ko‘nikmalarni yangi vaziyatga yaqin va uzoqligini, tizim ichidagi va tizimlararo o‘tkazishni mustaqil ravishda amalga oshirish;

2. An’anaviy vaziyatda yangi muammoni ko‘rish;

3. An'anaviydan farqli o‘laroq, ob'ektning yangi funktsiyasini ko‘rish;

4. Muammoni hal qilishda muqobil variantlarni ko‘rib chiqish;

5. Yangi muammoni hal qilishda ilgari ma’lum bo‘lgan faoliyat usullarini birlashtirish va o‘zgartirish;

6. Ma’lum bo‘lgan hamma narsadan voz kechish va tubdan yangi yondashuvni yaratish.

Olimlarning berilgan ushbu nazariy pozitsiyalari "ijodiy faoliyatning sifat xususiyatlarini yoki ijodiy faoliyat xususiyatlarini, uning protsessual tomonini" ochib beradi hamda musiqa pedagogika nazariyasi va amaliyotida umumiy e'tirof etilgan uslubiy tamoyillar bilan bog‘laydi, shuningdek, darslarga o‘z-o‘zini tayyorlash jarayonida cholg‘uchini tarbiyalash bo‘yicha quyidagi ko‘rsatmalarni beradi:

a) talabaga ish kunini to‘g‘ri tashkil etishga yordam berish kerak, agar iloji bo‘lsa, ertalab yoki hech bo‘lmaganda tushdan keyin cholg‘u asbobi ustida ishlash uchun vaqt ajratish va shu tariqa tizimli kundalik ishlarga erishish kerak;

b) talaba ishida uyushqoqlikka erishish kerak. Uni shunchaki cholg‘u asbobida chalishga emas, balki doimo muayyan muammolarni hal qilishga o‘zini o‘rgatish, ishdagi qiyin joylarni qoldirmaslik, balki birinchi navbatda ular bilan shug‘ullanish kerak;

v) cholg‘u asbobda chalish qat'iyatni talab qiladi. O‘quv materilalini yetarli miqdordagi takrorlash orqali maqsadga erisha olish kerak, ammo takrorlashlar mexanik emas, balki maqsadli bo‘lishi kerak;

d) mehnatga fidoyilik bo‘lmasa, matonat maqsadga erishmaydi;

e) ishning boshqa muhim jihati, ya’ni ishda mahorat bo‘lmasa, qat'iyatlilikning ishtiyoq bilan uyg‘unligi maqsadga erishmaydi, shuning uchun ham vaqt va kuchni tejaydigan mulohazali metodlarni talabaning ish amaliyotiga chuqur joriy etish uning mehnat qobiliyatini tarbiyalashning majburiy tomoni hisoblanadi.

Ma’lumki, musiqa asari san’at asarining bir turi sifatida doimo ma’lum bir badiiy obrazni aks ettiradi, u ijrochi uchun maqsad vazifasini bajaradi, unga erishishning usul va vositalarini belgilaydi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Musiqiy asarni adekvat ijro etish uchun shogird-musiqachi kompozitor ijodiy obrazining o‘ziga xos xususiyatlarini his qilishi, asar yaratilish davrini tavsiflovchi asosiy xususiyatlarni bilishi, asar musiqiy obrazining rivojlanish dramaturgiyasini uning strukturaviy (tuzilish) xususiyatlari bilan bog‘liqligida tushunish kerak.

Yuqorida aytilganlarning barchasi ancha murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, birinchi navbatda, nota yozuvining shartliligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu "musiqiy intonatsiyaning eng xilma-xil tomonlarini aks ettiruvchi turli xil belgilar, shuningdek, artikulyatsiya, dinamika, temp”ning majmuasidir. Cholg‘u ijrochiligini o‘rgatishning o‘ziga xosligi shundan iboratki, talabaning ijodiy mustaqil ishi darsda o‘rganilgan malaka va ko‘nikmalarni mustaqil mashg‘ulot sharoitiga o‘tkazmasdan, texnik, ritmik, dinamik vazifalarni va tovush chiqarish usullarini o‘zlashtirmasdan turib amalga oshirib bo‘lmaydi.

Bu shuningdek, musiqa asarini tizimli tahlil qilishni, matnning o‘xshash qismlarini topishni, ketma-ketlik burilishlarini, ritmik va garmonik formulalarni aniqlashni talab qiladi. Bularning barchasi asarning mazmun-mohiyatini o‘rganish jarayoniga yordam beradi. Musiqa asarini yodlash amaliyotida ilgari olingan ko‘nikma va malakalar katta ahamiyatga ega. Mustaqil ishning ushbu bosqichi musiqiy matnni yodlashning o‘rnatilgan algoritmi mavjudligi bilan birga, doimo mavjud malakalar asosida shakllanadigan yangi usullar, vositalar, yo‘llar bilan to‘ldiriladi.

Ma’lumki, o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish muammosini hal qilishda umumta’lim maktabi mashg‘ulotlari va o‘rganilgan paragraflar uchun tayyor yechimlar shaklida darslarga tayyorgarlik ko‘rishning belgilangan namunasini beradi. Xuddi shunday, darslarga tayyorgarlik cholg‘u asbobida chalisni o‘rganishning dastlabki bosqichida amalga oshiriladi. Biroq, musiqa materiali murakkablashib borishi natijasida o‘qituvchi talabalarning mustaqil ravishda o‘rganishni istamasligi va qobiliyatsizligi bilan duch keladi. Dars davomida o‘qituvchining yuqori professional ishi talabalarning sifatsiz o‘z-o‘zini tayyorlashi bilan tekislanadi. Shunday qilib, cholg‘u ijrochiligini o‘zlashtirishning murakkabligi bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining mustaqil ishini, ayniqsa ahamiyatli qiladi, chunki u o‘qituvchi tomonidan ma’lum bir asarga va butun ijro dasturiga nisbatan belgilab berilgan yo‘nalishni davom ettirishi kerak.

www.nitropdf.com

Durdona

Shu bilan birga, ko‘pincha talabalar cholg‘u ijrochiligi fanlari bo‘yicha mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rishi jarayonida mustaqil ish vazifalarini aniq tushunmaydigan vaziyatlarga duch keladi, bu ularga asarni yodlash usullarini, texnik muammolarni yengish tamoyillarini yoddan to‘g‘ri ishlatishga, qiyinchiliklarni, tovush chiqarish muammolarini hal qilish yo‘llarini tushunish, asarlarni ijro etishda janr farqlariga erishish imkonini bermaydi.

Shubhasiz, oliy ta’limda o‘qitiladigan cholg‘u ijrochiligi fanlari sinfidagi umumiy qabul qilingan haftalik dars soatlari omma oldida chiqib chalish (konseri namoyishi, imtihon)ga to‘g‘ri tayyorgarlik ko‘rishga imkon bermaydi. Shuning uchun bo‘lajak sozandaning yuqori sifatli ijro darajasiga erishishi uchun asosiy shart - bu professional o‘qituvchi yordamida bilimni o‘stirishga yo‘naltirilgan mustaqil ish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish kerak. Biroq, amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarning mustaqil ishi ko‘p hollarda dars davomida qo‘yilgan vazifalarga mos kelmaydi, shunchaki rasmiy va samarasiz ko‘rinishda bo‘ladi (ayniqsa, cholg‘u ijrochiligini o‘rgatishning dastlabki bosqichida) yoki umuman bo‘lmaydi.

Ijodiy mustaqil ishlash qobiliyatini shakllantirish bolalar musiqa maktablari, musiqa janrlariga ixtisoslashtirilgan maktablarida o‘qish jarayonida sodir bo‘lishi amaliyotdan ma’lum. Bu jarayonning xususiyatli tomonlaridan biri shundaki, talabalarning shu maktablarda olgan bilimlari, shakllangan malakalari va ko‘nikmalari ko‘p jihatdan oliy ta’limda cholg‘u asbobida ijro etish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ta’kidlash kerakki, hozirgi vaqtda oliy o‘quv yurtlarida ham cholg‘ushunoslik, ham ijrochilik ta’limiga talab ortib bormoqda, bu musiqa maktabining ijtimoiy institut sifatidagi tarbiyaviy funktsiyalari bilan bog‘liq, albatta.

Xalq cholg‘u asboblarida o‘qitishning dastlabki bosqichida talabaning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi qiyinchiliklar, kamchiliklar oliy ta’lim o‘qituvchilarida abituriyentlarning tayyorgarlik darajasida ko‘pgina kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligi sababli norozilikka olib keladi.

Oliy o‘quv yurtlarining cholg‘u ijrochiligi ta’lim yo‘nalishidan dars beruvchi o‘qituvchilar talabalarda musiqiy materialni umumlashtirish va tahlil qilish ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmaganligi, musiqiy ma’lumotlarni tuza olmasliklari qayd

www.nitropdf.com

Durdona

etilgan. Xuddi shunday kamchiliklar kasb-hunar musiqa ta’limi muassasalari o‘quvchilari orasida ham kuzatiladi.

Ijodiy mustaqil ish uchun umumiy qabul qilingan talab uning muntazamligidir. Shu bilan birga, kam sonli o‘qituvchilar talabalardan cholg‘u asbobini chalish bo‘yicha mustaqil ta’lim olish uchun maxsus rejaga ega bo‘lishni talab qiladi.

Cholg‘u asbobidan dars beruvchi o‘qituvchilarning katta qismi mustaqil ta’lim talabalar uchun faqat imtihon talablarini bajarish uchun majburiy bo‘lgan faoliyat, deb tushunishadi. Buning sabablari nafaqat talabalarning oliy ta’limda o‘qish jarayonidagi yuklamasi, balki cholg‘uni professional tarzda o‘zlashtirishni xohlamaslik, motivatsiyaning deyarli yo‘qolib borishiga olib keladi.

Yuqoridagilarga asoslanib, bir qator xulosalar chiqarish mumkin. Oliy o‘quv yurtida cholg‘u ijrochiligidan dars beruvchi o‘qituvchining faoliyati izchil va asosli bo‘lishi kerak. Bo‘lajak sozandaning rivojlanishining barcha bosqichlarida uning mustaqil ishini tashkil etish bo‘yicha vazifalarni tushuntirishi va aniq tavsiyalarn berib borishi, ayniqsa uning ijodiy komponentini rivojlantirib borishi kerak. Cholg‘u sinfdagi darslar ijro dasturning barcha elementlari va tarkibiy qismlarini ketma-ket o‘zlashtirish jarayonining eng muhim bosqichlarini o‘z ichiga olgan mustaqil ish namunasi sifatida tuzilishi kerak. Shuni ta’kidlash kerakki, bu omillar ularning munosabatlarida samarali bo‘ladi va hatto ulardan birini chiqarib tashlash kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Cholg‘u ijrochilik fanlarini o‘rganish amaliyotida mustaqil ijodiy ishlash ko‘nikmasini shakllantirishning eng muhim omili bu, musiqa asosini tashkil etuvchi barcha fanlarga tayanishdir. Ushbu fanlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning uyg‘unligi ijroning nazariy, intonatsion, eshitish asoslarini shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

Shunday qilib, cholg‘u ijrochiligi fanlarini o‘rganish sharoitida bo‘lajak sozandaning mustaqil ishi bilan bog‘liq muammolar markazida o‘qituvchining shaxsiyati turadi, uning kasbiy mahorati ko‘p jihatdan bunday ishning ijodiy darajasini belgilaydi. Boshqacha aytganda, cholg‘u asbobidan dars beruvchi o‘qituvchi talabaning cholg‘u ijrochilik faoliyatini sinfdan tashqari mazmunli mustaqil ish jarayoniga muntazam aylantirish uchun sharoit yaratishi shart.

Nazorat uchun savollar:

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

1. Talabaning musiqaga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishning qanday shakl va usullarini bilasiz?.
2. O‘z ustida mustaqil ishlashning muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlaydigan qanday shartlari mavjud?. Tushuntirib bering.
3. Nima uchun cholg‘u asbobida bajariladigan topshiriq, vazifalarni semestr boshida berish tavsiya etiladi? Izohlab bering.
4. Qanday shakl va usullarda musiqa asari ustida ijodiy mustaqil ishlash qobiliyatini shakllantirish mumkin?. Izohlab bering.
5. Darslarga o‘z-o‘zini tayyorlash jarayonida cholg‘uchini tarbiyalash bo‘yicha qanday ko‘rsatmalar berilishi mumkin?
6. Bo‘lajak sozandaning yuqori sifatli ijro darajasiga erishishning qanday usullarini bilasiz?. Izohlab bering.

DURDONA

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Kasbni puxta egallash uchun mustaqil ta’limni izchil olib borish shakl va usullarini o‘rganing.
2. Musiqa asarini cholg‘u asbobida mustaqil chalish shakl va usullarini izohlab bering.
3. O‘z ustida mustaqil ishlarni tashkil etish asoslarini misollarda tushuntirib bering.
4. Cholg‘u asbobida mustaqil chalib mahoratni o‘stirishning afzaliklari haqida so‘zlab, tushuntirib bering.

Tayuanch iboralar: Mustaqil ish, musiqa materiali, musiqiy ijrochilik, ijodiy faoliyat, o‘z-o‘zini tayyorlash, bilim, malaka, ko‘nikma.

www.nitropdf.com

Durdona

GLOSSARİY

Avj (arab.- choʻqqi, baland) – 1. Musiqa asarining eng yuqori choʻqqisi, pardasi. 2. Oʻrta asr “Oʻn ikki maqom” tizimidagi ma’lum shoʻba nomi. Yaqin va Oʻrta Sharq xalqlari mumtoz musiqasida kichik, oʻrta va katta (yuqori) avjlar ajratiladi.

Agiato (it. adjato - immilab) – ogʻir va tinch ijro sur’ati koʻrsatgichi.

Agitato (adjitato) – hayajonli, ta’sirlanib ijro etish.

Agogika (лот. Agoge – yurgizish, erishtirish) – musiqiy asarning ijrosida badiiy ifodaviyligini koʻzlab ayrim joylarda tezligini biroz oʻzgartirish.

Akkomponement - (fr. accompagner-joʻr boʻlish) - achula aytganda yoki biror cholgʻu asbobida chalganda unga joʻr boʻlish. Achulaga fortepiano xalq cholgʻu asboblari, turli ansambl (trio, kvartet, kvintet) va orkestrlarda joʻr boʻlish mumkin Akkomponement yakkaxon ashullachi yoki cholgʻuchiga garmonik va ritmik hamohang boʻlib musiqa asarining badiiy darajasini chuqurlashtiradi.

Ansambl – (fr. Anseble - birgalikda) 1. Vokal yo cholgʻu musiqasi asarini bir necha ijrochi tomonidan ijro etilichi. 2. Bir toʻda artistlarni bir butun badiiy jamoaviy holda chiqishi. 3. Uncha katta boʻlmagan ashulachi (vokal) yo cholgʻuchi (sozanda)lar jamoasi uchun yaratilgan musiqa asari ijrochilar soniga bu ansambllar turlicha ataladi. Agar ikki ijrochi uchun boʻlsa duet, uch ijrochi – trio, toʻrt ijrochi – kvartet, bech ijrochi kvintet, olti ijrochi – sekstet, etti ijrochi – septet, sakkiz ijrochi – oktet va h.k. Ansambl soʻzi orkestr yoki xor jamoalarining kichraytirilgan turiga yoki orkestr, xor va baletning kichik bir toʻdasiga nisbatan ham aytiladi. Opera, oratoriya, kantata va musiqali dramalarda ham ansambllar boʻladi.

Arkato (it. arkata – yoydan, kamondan) – kamoncha bilan. Arko (it. arko – kamoncha bilan chalish) – pitsikato yoʻli bilan chalingandan soʻng kamoncha bilan ijroga oʻtish.

An’anaviy soz – ajdodlarimiz qoʻllagan, koʻp holda diatonik tovushqator tartibida tuzilgan qadimiy sozlar

Akademik soz – qayta ta’mirlanib pardalar xromatik tartibda keltirilgan aksariyat holda nota bilan chalishga moslashtirilgan cholgʻular turi.

www.nitropdf.com

Durdona

Applikatura (nem. Applicatur - qo‘ymoq, bosmoq) – musiqa cholg‘u asboblarini ijro qilganda barmoqlarni to‘g‘ri qo‘yish va almashtirish tartibi. Bu tartibning notalarda ko‘rsatilishi ham applikatura deyiladi. Applikatura arab raqamlari bilan notalarning osti yoki ustiga qo‘yiladi.

Artikulyatsiya (lot. articulation, artikulo – bo‘linish, parchalanish) – nutq harakati unsurlari; chalish yoki kuylashda tovush hosil qilishning uslublari; talaffuzning aniqligi.

Attacca (it. attaka – bog‘la) – musiqa asarining bir qismidan ikinchisiga ko‘chishda to‘xtovsiz o‘tilishini ko‘rsatuvchi belgi.

Bidratma - trellar turlari. Sayqal - mordentlar turlari bo‘lib bidratmadan tomomila farq qiladi. To‘lqinlashtirish - (vibrator) deyarli barcha xalq cholg‘ulari va ashula ijrochiligi uchun xos. Nolish - yarim tongacha bo‘lgan o‘ziga xos yirik bidratma

Bir qismli asar (odnochastnoe proizvedeniye)-alohida bo‘laklarga bo‘linmaydigan bir qismli musiqa asari. Odatda yirik cholg‘u asari shu nom bilan yuritiladi. Masalan: simfonik poema, uvertyura va bochqalar. Shuningdek bir qismli sonata, konsert ham bo‘lishi mumkin.

Bilak zarb - Bunda noxunni simlar bo‘ylab yuqoridan pastga sirg‘atma bilan (arpedjato) yuqoriga harakatlantirish nazarda tutiladi.

Bo‘g‘iz (o‘zbekcha) – dutor, tanburlarning dasta va kosalarini birlashtiruvchi qism.

Vibratsiya (lot. vibratio- titrash, qaltirash) – tovushni to‘lqinlatish.

Virtuoz - (it. virtuoso. lot. Virtus talant, virtuoz)-musiqa asarlarini zo‘r mahorat bilan ijro etuvchi sozanda. Odatda virtuozlar murakkab, ta‘sirchan musiqa asarlarini chaladilar. Bunday musiqa asarlari ko‘proq etyud va konsert shaklida bo‘ladi.

Vokal musiqa (italyancha vocale — ovoz) — kuylash uchun musiqa — yakkaxon, jo‘rli yoki jo‘rsiz ansambl yoki xor.

Gamma (yunon alifbosining uchunchi harfi) – tovushqator, uning muayan lad (major, minor) tonalligiga bo‘ysinib, bir yoki bir nechta oktava hajmida ko‘tarilish yoki pasayish tartibida tovushlarning joylashuvi. Gammalarni ijro etish – cholg‘uchilik va xonandalik texnikasini, mahoratini o‘stirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Tarixdan: “gamma”, yunon alifbosining harfi bo‘lib, u bilan o‘rta asr nota yozuvida eng pastki tovush, ya’ni katta oktavadagi “sol” (G) tovushi ko‘rsatilar edi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Gastrol – (nem. Gast – mehmon va rolle - rol) – yakkaxon, yakkanavoz san’atkor yoki jamoa (teatr, ansambl, xor va b.)ning boshqa shahar, chet mamlakatlarga safar qilib konsert berishi, tomosha ko‘rsatishi.

Gruppetto – to‘rt notadan tarkib topgan kuychan shakl. Ijro etilishida yuqori yordamchi (asosiy tovushdan sekunda yuqorida bo‘ladi), asosiy tovush, pastki yordamchi (asosiy tovushdan sekunda pastda joylashgan) va yana asosiy tovush ijro etiladi.

Gulufar – Xorazmda cholg‘u asboblari ijrosida qo‘llaniladigan forshlag.

Dan’bur – o‘zbek va tojik xalqlari o‘rtasida keng tarqalgan tanburni xitoy uyg‘urlari shu nom bilan yuritadilar.

Detashe (fpans. detache, detacher – bo‘lish, ajratish). Torli-kamonchali cholg‘u asboblarda har bir tovush kamonchani bir tomon (past yoki yuqoriga) tortilishida olish (ijro etish).

Diatonik gamma – laddagi asosiy tovushlarning birin-ketin izchilligi. To‘liq diatonik gammada yettita tovush bo‘ladi.

Dialog (yun. dialogos — ikki kishi o‘rtasidagi suhbat) — operadagi ikki personaj o‘rtasidagi sahna suhbati; Muqobil qisqa musiqiy iboralar, go‘yo javob berayotgandek.

Divizi (it. divisi – bo‘linish, ajralish, qisqartirilgani – div.) – orkestrdagi torli-kamocha bilan chalinadigan cholg‘u asboblarda bir to‘da ijrochilarni ikki yo bir necha bo‘laklarga bo‘lib, har bir bo‘lingan to‘dani qo‘sh nota yoki akkord tovushlaridan birini ijro etishi. Qachonki divizi tugab birgalikda chalishi lozim bo‘lsa, unison (qisqachasi - unis) yoki non divisi – ya’ni bo‘linmasdan, birgalikda deb yoziladi.

Dinamik eshitish. Bu tovush hajmini va uning o‘zgarishini aniqlash qobiliyatidir. Bu ko‘p narsani eshitish va idrok etish darajasiga bog‘liq.

Dinamika - (yun. Dinamikos-kuchli) - musiqa tovushlarining qattiq-sekin ijro qilinishi. Dinamikada tovushni turlicha chiqazish, ya’ni bir yo‘la qattiq yoki sekin, asta-sekin kuchaytirish, yo sekinlashtirich, ayrim tovushlarni alohida ta’kidlab (qattiq) eshittirich va boshqa bo‘lishi mumkin. Dinamikaning asosiy turlari forte, (forte nota yozuvida qisqartirib - f holida, yoziladi)-qattiq, kuchli; piano (piano, nota yozuvida qisqartirib – p holida yoziladi)-sekin; crescendo

www.nitropdf.com

Durdona

(kreshchendo - tovushni asta-sekin kuchaytirish); diminuendo (diminuendo-tovushni asta-sekin pasaytirish.)

Dinamik tuslar - (dinamicheskie ottenki) -musiqa asarini ijro etishda badiiy chiqishini nazarda tutib, tovush kuchini o‘zgartirish. Buning uchun turlicha belgi va ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi. Bularning eng muhimlari; p(piano)-sekin; pp (pianissimo)- juda sekin; mp (metso piano)-o‘rtacha sekin, (pianodan qattiqroq, f dan sekin); f (forte)-qattiq kuchli; ff (fortessimo)-juda qattiq, kuchli; mf (metso forte) o‘rtacha qattiq; cresc. (krehendo)-tovushni tobora kuchaytirib borish. Dim (diminuendo)-tovushni sekinlatib borish.

Dinamik eshitish - ovoz balandligi va uning o‘zgarishlarini aniqlash qobiliyati. Pianodan dan fortegacha bo‘lgan barcha dinamik nyuanslarni farqlash va tasavvur qilish qobiliyati. Dinamik eshitish musiqa qayerda "ko‘tariladi" (kressendo), "pastga tushadi" (diminuendo), "to‘lqinlarda harakat qiladi", keskin urg‘u beradi va hokazolarni aniqlashga yordam beradi.

Dirijyor - (fr. diriger-bochqarich yo‘lga solich) - musiqa asarini ijro etuvchi jamoalar(solistlar, xor orkestr va boshqa)ga rahbarlik qiluvchi san’atkor. Dirijyor musiqa asarini ommaviy ijrosiga qadar ijrochi jamoa bilan bo‘lgan hamma tayyorgarlik (repetitsiya)ni olib boradi. Asosiy ijro vaqtida esa (konsertlar yoki spektaklda) asarning yo‘ynalish tezligi, dinamik tuslari, ayrim (to‘da) xor bo‘lib yoki yakka ijrochilarni to‘xtash yoki ijro qilish vaqtlarini ko‘rsatib turadi; jamoani birlachtiradi, ruhlantiradi va asarni badiiy ijrosi uchun harakat qiladi. Dirijyor o‘ng qo‘lida kichik tayoqcha ushlab musiqa asaridagi taktlarni birinchi kuchli sanog‘ini pastga tushirish bilan, ko‘rsatib turadi. Yuz, qo‘l, gavda va bosh harakatlari va mimikalar bilan asar mohiyatini ko‘rsatib qanday ijro etilishini bildiradi.

Duet (ital. duetto, ital va lot. duo - ikki) – ikki ijrochidan iborat bo‘lgan musiqiy ansambl yoki ushbu ansamblga yozilgan asar.

Duchava – o‘zbek raqslarida chalinadigan doyra usuli.

Jumla (yunoncha phrasis - nutqning aylanishi, ifoda) - musiqadagi qisqa, nisbatan tugallangan parcha, ohangning pauzalar (to‘xtamlar) bilan tuzilgan qismi.

Zarb (fors-toj. - urush) – o‘zbek musiqa san’atida torli (dutor, tanbur) va urma (doyra, nog‘ora) cholg‘ularida tovush chiqarish uchun qo‘l harakati bilan maxsus urushni bildiradigan atama.

www.nitropdf.com

Durdona

Zarbi parron - Bunda asosiy tovushni uni oldiga turish qo‘shimcha qisqa tovush bilan qo‘shib (forshlag) chalish nazarda tutiladi. Zarb qo‘shimcha tovushda yuqoriga qarata va asosiy tovushda pastga qarata uriladi.

Interval (boshqacha aytganda, nisbiy) eshitish - tovushlar balandligini kishiga allaqachon ma’lum bo‘lganlar bilan solishtirish orqali aniqlash qobiliyati. Uni mutlaqlik darajasiga qadar "o‘rgatish" mumkin. Ko‘pincha professional musiqachilar muvaffaqiyatga faqat mehnatsevarlik orqali erishadilar. Va bu iste'dodga tayanishdan va uni rivojlantirish uchun hech narsa qilmaslikdan ko‘ra xavfsizroqdir.

Intonassiya (lot. intonation, intono – qattiq aytaman, ohangli aytaman) – ohang; nutq va musiqada o‘ziga xos ohang. Musiqani aniq, sof va tiniq ijro etmoqlik.

Ichki eshitish. Bu aqliy ko‘payish, "eshitish" qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lib, shu orqali musiqa va cholg‘u asboblarining alohida qismlari qanday jaranglashini bilishi mumkin. Ichki eshitish musiqa, ohang va individual tovushlarni aqlan aniq tasavvur qilish va ularni boshida "eshitish" qobiliyatidir.

Yordamchi partiya - (побочная партия) - sonata shakli ekspozitsiyasida bosh partiyadan so‘ng keladigan ikkinchi partiya — mavzu. Yordamchi partiya o‘zga tonallikda yoziladi va bu tonallik mustahkamlanganidan so‘ng boshlanadi. Ba‘zan bosh partiyadan tugallanishini aniqlash mumkin bo‘lmay qoladi. Aksar vaqt yordamchi partiya bosh partiyaga nisbatan ko‘p hajmli bo‘ladi va aniq kuchli kadansda ekspozitsiyani tugatadi. Yordamchi partiyada bir necha partiyalar bo‘lish hodisalari ko‘p uchraydi. Reprizada yordamchi partiya asosiy yoki uning nomdosh tonalligida qaytariladi.

Janr - (fr. Genre-tur, uslub) -musiqa asarining turlari. Asarning tuzilishi, ijrochilarning tarkibi, xarakteri va boshqa holatlari bilan janrlar bir-biridan ajraladi va turlicha bo‘linadi.

Ijrochi - achula aytuvchi yoki biron cholg‘u asbobida chaladigan musiqachi. Ijrochilar maxsus o‘quv yurtlarida (musiqa bilim yurti va konservatoriyalarda) o‘rta va oliy ma’lumot oladilar.

Ikkinchi ovoz - 1. Ko‘p ovozli musiqa asarlarida yuqorigi ikkinchi ovoz. 2. Orkestr partituralarida bir xildagi cholg‘u asboblarining ikkinchisi.

Kakofoniya (yun. kakos – bema’ni, buzuq; phone - tovush) musiqada nosozlik, quloqqa yoqmaydigan xunuk, yoqimsiz.

www.nitropdf.com

Durdona

Kamera musiqasi (italyancha kamera - xona) - yakkaxon asboblar yoki ovozlar, kichik konsert zallarida chiqish uchun mo‘ljallangan kichik ansambllar uchun musiqa.

Kantata (italyancha cantare - kuylash) - yakkaxon xonandalar, xor va orkestr uchun bir qancha nomer (raqam)lar - ariyalar, rechitativlar, ansambllar, xorlardan iborat yirik asar. Kantata oratoriyadan batafsil va izchil gavdalangan syujetning yo‘qligi bilan ajralib turadi.

Kansonetta (italyancha canzonetta — qo‘shiq) — kichik kanson, kichik hajmdagi ohangdor vokal yoki cholg‘u asari.

Kanon (yun. kanon – qoida, nusxa) – bir kuyni imitasiya asosida bir necha *ovozda* oldin-ketin qaytariladigan ko‘povozli *musiqa* shakli.

Kvartet (lotincha quartus — to‘rtinchi) — to‘rt a’zodan iborat opera-vokal yoki cholg‘u (ko‘pincha torli) ansambli.

Kvintet (lotincha quintus — beshinchi) — besh a’zodan iborat opera vokal yoki cholg‘u ansambli.

Kirish - bu musiqali teatr spektaklining har qanday vokal yoki cholg‘u asarini, rasmini yoki harakatini bevosita tanishtiruvchi boshlang‘ich bo‘lim.

Klavir (qisqartirilgan nemischa Klavierauszug — fortepianodan parcha) — orkestr yoki ansambl uchun yozilgan asarni, shuningdek, opera, kantata yoki oratoriyani (vokal qismlari saqlanib qolgan holda) pianino uchun qayta ishlash, tartibga solish.

Koda (ital. coda — dum, oxir) — musiqa asarining yakuniy qismi bo‘lib, odatda baquvvat, tezkor xarakterga ega bo‘lib, uning asosiy g‘oyasini, hukmron obrazini tasdiqlaydi.

Kompozitsiya (lot. compositio — tuzish, tartibga solish) — 1. Musiqiy ijod, musiqiy asar yaratish jarayoni. 2. Musiqiy asarning ichki tuzilishi (musiqiy shakl bilan bir xil). 3. Alohida musiqa asari.

Konsert (lot. concerto — musobaqalashaman) — 1) oldindan e’lon qilingan dastur asosida san’atkorlarning maxsus joy (zal, sahna)da chiqishi; musiqa, adabiy, estrada asarlarini ommaviy ijro etish.

Konsert repertuari - keng ma’noda musiqada ijro etilgan asarlar ro‘yxati. Odatda bu ma’lum bir artist yoki ijodiy guruh tomonidan kontsertlarda (kontsert repertuari) ijro etish uchun musiqiy asarlar to‘plamidir.

Konsert mahoratini shakllantirish - barcha texnik va ijro texnikalarining: motor-texnik, tovush, eshitish, metro-ritmik, badiiy va

www.nitropdf.com

Durdona

obrazli o‘zaro bog‘liqligidir. Har qanday malaka singari u ham ko‘p marotoba takrorlash orqali shakllanib boradi va yuqori darajadaligi bilan ajralib turadi.

Konsert amaliyoti - ijrochilik tajribasini to‘plash, sahnada o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish, barqarorlikni oshirish.

Konsert namoyishi - Musiqiy asarlardan iborat konsert dasturlarini omma oldida ijro etish, o‘z ijro ishini kontsertda taqdim etish ko‘nikmalarini amaliy jihatdan namoyish etish.

Kontrast (frantsuzcha kontrast - qarama-qarshi) - xarakter jihatidan keskin farq qiluvchi turli xil musiqiy epizodlarning yaqinlashishi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarama-qarshiligidan iborat bo‘lgan yorqin ifodali musiqa vositasi. Musiqiy obrazli-emotsional kontrast temp, dinamik, tonal, registr, tembr va boshqa qarama-qarshiliklar yordamida amalga oshiriladi.

Kuy — (yun. melodia — achula aytich, kuylash) — turli baland va uzunlikdagi tovushlarning ma’lum bir ritm va ladda badiiy holatda kelishi. Musiqa asari bir yoki bir necha kuydan tuzilishi mumkin. Kuy asarning asosi hisoblanadi.

Kuy tuzulishi (lad)ni eshitish. Bu ma’lum bir musqiy asarda mavjud tovushlar o‘rtasidagi munosabatlarni, notaning keskinlik, tortishish, barqarorligi yoki beqarorligini idrok etish qobiliyati. Yevropa madaniyatida major va minor asosiy lad hisoblanadi.

Kulminatsiya (lot. culmen-cho‘qqi) - musiqa asari yo uning ma’lum bir qismining eng yuqorigi nuqtasi, avji.

Kuplet - (fr. coulpeet-strofa. band) — bir necha bor qaytariladigan qo‘shiqning bir band she’rda qaytarilishi. Kuy ikkinchi marta yangi she’r bilan qaytarilishida o‘zgarmay yo ba’zi o‘zgarichlar bilan aytilishi mumkin. Kuplet ko‘p vaqt boshlovchi ijrosi bilan boshlanib, naqorat bilan tugallanadi. Kupletni turli so‘zlar bilan bir necha marta qaytarilishidan kuplet shakli hosil bo‘ladi.

Lad – turg‘un va noturg‘un musiqiy tovush pog‘onalarining o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan tovushlar tizimi. Zamonaviy musiqada yetti pog‘onali major va minor ladlari asosiy ladlar hisoblanadi.

Liga (lot. liga – bog‘layman) – tovushlarni bir-biriga bog‘lab ijro etishni ko‘rsatadigan yoysimon belgi. Bir xil balandlikda liga bilan bog‘langan notalar qo‘shilgan holda ijro etiladi.

Marsh (fransuzcha marche — yurish, namoyish) — yurish ritmi bilan bog‘liq janr, aniq, o‘lchovli, shijoatli harakat bilan ajralib turadi.

www.nitropdf.com

Durdona

Marsh yurish, tantanali, motamli bo‘lishi mumkin; o‘lchovi 2/4 yoki 4/4 bo‘ladi.

Mashq - **(**Ingliz tili exercise - mashq qilish), bilim olish, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan takroriy harakatlar. Barcha fanlar, shu jumladan musiqar fanlar uchun talab qilinadi.

Mezrob, mizrob, mediator, plektr, noxun (arab. – urish quroli, lot. mediato – vositachi, yun. plektron, plesso - uraman) – torli tirnama cholg‘ularni (rubob, tanbur, sato, ud va boshqalarni) chertish uchun fil, toshboqa, plastmassa, metal, yog‘och, qattiq teri, halqa tirnoqdan tayorlangan har xil maxsus kichik moslamalar.

Melizm - kuyni turlicha qisqa tovushlar bilan bezatuvchi belgilar. Melizmlarga forchlag, gruppetto, mordent, chizilgan mordent, trel va boshqalar kiradi.

Melodik eshitish ohangni rivojlantirish jarayonida tovushlar dinamikasini balandlikda baholash imkonini beradi. Buni qanday tasavvur qilish mumkin? Asar ijrosi paytida tovushlar balandligi doimiy bo‘lib qolishi yoki yuqori yoki past chastotalarga "ketishi" mumkin. Balandlik o‘zgarishi asta-sekin yoki to‘satdan - go‘yo pag‘onalar bilan "sakrash" bilan sodir bo‘ladi.

Metroritmik eshitish tovushning kuchli va kuchsizligini, ularning davomiyligini ketma-ketlikda farqlash, boshqacha aytganda, ritm hissi, harakatlar (taqillatish, qarsak chalish) yordamida kompozitsiyani takrorlash qobiliyati bilan bog‘liq.

Monodiya (yun. monos – bir, ode – qo‘shiq) – birovozlik zaminida bo‘lgan musiqa san’ati. Monoxord (yun. monos – bir, chorde - tor) – 1. Yakka torli musiqa cholg‘ularning umumiy nomi. 2. Qadimiy Yunonistonda va Rimda keng tarqalgan musiqiy cholg‘u, akustika uskunasi.

Mordent (ital. mordent – uzib oladigan, o‘tkir) – musiqada muayan bezak belgisi, asosiy va unga qo‘shimcha tovushlarni tez chalishni ko‘rsatadi.

Molish - barmoqni bir tovushdan ikkinchi tovushga ohista sirg‘altirish usuli. Kashish - yarim ton doirasida amalga oshiradigan bezak usuli. Ajam - Arablardan tashqari xalqlarning musiqasi.

Motet (frans. motet, mot – so‘z) – ko‘povozli vocal, vocal-colg‘u, xor musiqasi janri. Fransiyada 12-asrda paydo bo‘lgan.

Musiqa asarlari tahlili - Turli xarakterdagi musiqa asarining mazmuni, uslubi, shakli va musiqaviy xususiyati bo‘yicha ilmiy

www.nitropdf.com

Durdona

tekshirish ishi olib borish. Bu ilmiy tekshirish musiqa asarining ma‘lum bir turida bo‘lishi mumkin. Bunday holda olib borilgan ishga qarab, garmonik tahlil, shakliy tahlil, polifonik tahlil va hokazo, deb ataladi.

Musiqiy taraqqiyot (rivojlanish) - musiqiy tasvirlarning harakati, ularning o‘zgarishi, to‘qnashuvi, o‘zaro o‘tishlari, inson yoki musiqali teatr spektakli qahramonining ruhiy hayotida, shuningdek, atrofdagi voqelikda sodir bo‘ladigan jarayonlarni aks ettiradi. Musiqiy rivojlanish musiqali dramaturgiyaning muhim omili bo‘lib, tinglovchi e’tiborini hikoyaning eng muhim qismlariga yo‘naltiradi. Musiqiy rivojlanish turli kompozitsion va ifodali usullar yordamida amalga oshiriladi; unda barcha musiqiy ifoda vositalari ishtirok etadi.

Musiqiy eshitish - musiqa yozish, ijro etish va faol idrok etish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar to‘plami. Musiqiy eshitish alohida musiqiy elementlarni yoki musiqiy tovushlarning sifatlarini (balandlik, ovoz balandligi, tembr) va musiqiy asardagi ular orasidagi funktsional aloqalarni (lad va ritm hissi) idrok etishning yuqori nozikligini anglatadi.

Musiqiy drama - asli opera bilan bir xil. O‘zining umumiy ma’nosiga ko‘ra, bu opera janrlaridan biri bo‘lib, u sahnada ochiladigan va musiqiy gavdalanish tamoyillarini belgilab beruvchi shiddatli dramatik harakatning etakchi roli bilan ajralib turadi.

Mutlaq tovush balandligi - an'anaviy ravishda musiqiy iste'dod bilan bog‘liq bo‘lgan eshitish turi. Inson o‘zida allaqachon ma’lum bo‘lgan har qanday notani boshqalar bilan solishtirmasdan taniy oladi. An'anaga ko‘ra, bunday eshitish tug‘ma hisoblanadi, ammo uning mavjudligi musiqa va qo‘shiqchilikda muvaffaqiyatga kafolat bermaydi.

Musiqiy shakl (lotincha forma — ko‘rinish, shakl) — 1. G‘oyaviy-majoziy mazmunni o‘zida mujassamlash vositalari, jumladan kuy, garmoniya, polifoniya, ritm, dinamika, tembr, shakl, shuningdek tuzlishning kompozitsion tamoyillari yoki tor ma’noda shakl. 2. Shakl tor ma’noda — musiqiy asar tuzilishining tarixan shakllangan va rivojlangan qonuniyatlari, musiqa asarining umumiy shaklini belgilovchi qismlar va bo‘limlarning joylashish tasvirlari va munosabatlari. Eng keng tarqalganlari uch qismli, kuplet, variatsiya, rondo, sonata, shuningdek, syuita, sonata va simfonik asarlarning tuzilishi.

www.nitropdf.com

Durdona

Musiqiy tsikl (yunoncha kyklos — doira, aylana) — ma’lum tartibda bir-biridan keyin keladigan ko‘p qismli asar qismlari yig‘indisidir. Tsikl kontrast printsipiga asoslanadi. Asosiy turlari - sonata-simfonik musiqa, syuita musiqasi; Tsiklik shakllarga rekviyem shakli ham kiradi.

Musiqiy ifodalilik (lotincha expressio — ifoda) musiqada - ifodalilikni oshirdi.

Musiqiy mavzu (yunoncha tema — hikoya predmeti) — nisbatan kichik, to‘liq, naqshdor, yorqin ifodali va esda qolarli ohangda ifodalangan, ishlab chiqiladigan asosiy musiqiy g‘oya.

Nag‘ma (arab. - kuy) – musiqa tovushi, musiqa, ohang, kuy.

Nola (arab. – yeig‘lash) – o‘zbek musiqasida kuy bezaklaridan biri. Kuylaganda ovozni tebratib cho‘zish.

Nyuans - (frans. - nuance - ohang, tus) - tovush ohangdoshligi. Musiqada dinamik va tovushlarning eshitilish xarakterini o‘zgartirish belgilari. Masalan, dolce -mayin, muloyim, appassionato –serzavq va boshqa nyuansni qo‘llash bilan ijro qilinadigan musiqa asarining shakli, ayrim joylarini bo‘rttirish yoki aksincha, sekin berilishiga, shuningdek, ijrochilik mahoratiga bog‘liq.

"Ovoz ishlab chiqarish usuli" tushunchasi. Ovoz chiqarish usuli cholg‘u asbobida tovush chiqarish jarayonining birinchi bosqichidir. "Ovoz ishlab chiqarish usuli" tushunchasi barmoqning (mediatorning) tor bilan bevosita aloqa qilish xususiyati bilan belgilanadi.

Oktet (lotincha okto — sakkiz) — sakkiz ishtirokchidan iborat ansambl.

Orkestr (yun. orchestra – sahna old maydonchasi) – turli cholg‘ularda ijro etuvchi sozandalarning katta jamoasi (simfonik, kamer, damli, xalq, estrada orkestrlari).

Orkestrlashtirish - orkestr partiturasini yaratish, musiqiy fikrni orkestr ifodaviyligi orqali gavdalantirish. Orkestrlashtirish – cholg‘ulashtirish bilan bir xil.

Partitura (ital. partitura — bo‘linish, taqsimlash) — ansambl, orkestr, opera, oratoriya-kantata va boshqalarning ko‘plab ijrochilarni talab qiladigan nota yozuvi. Qo‘shiq satrlari soni unga kiritilgan qismlar soniga qarab belgilanadi - cholg‘u, yakka-vokal va xor, ular ma’lum bir tartibda joylashtirilgan.

www.nitropdf.com

Durdona

Partiya - (lotincha pars — qism) — ansambl, opera va boshqa jamoalar musiqasining bir yoki bir guruh musiqachilar yoki xonandalar tomonidan ijro etiladigan qismi.

Pitsikato (ital. pizzicare – tirnalib) – torli-kamonli cholg‘ularda kamonsiz, barmoqlar bilan tirnab chalish uslubi.

Poliritm - bir vaqtning o‘zida turli xil tovushlarda aniq qarama-qarshi ritmik naqsh(shakl)lardan foydalanish.

Polifonik eshitish - bir vaqtning o‘zida yangrasa, lekin turli vaqtlarda mavjud bo‘lishi yoki yo‘qolishi mumkin bo‘lgan bir nechta kuylarni asar kontekstida o‘zini qanday tutishini tasavvur qilish qobiliyati. Boshqacha qilib aytganda, tovushni qanday jaranglaganini eshitish, eslash va uni notalar shaklida yozish.

Portamento (it. portamento – ko‘chirmoq) – 1. Torli-kamonchali cholg‘u asboblarda va ashula aytganda bir tovushdan ikkinchisiga sirg‘anib o‘tish. Portamento natijasida kuyning ohangdorligi mukammallashadi. 2. Ritmik va dinamik bir tekis va cho‘zib ijro etishni ko‘rsatuvchi belgi.

Portato (it. portato, portare – ta’kidlamoq, ifodalamoq) – torli-kamonchali cholg‘u asboblarda ayrim tovushlarni bo‘rttirib “har nafasda” ijro etilishi. Odatda portato musiqa asarini rubato sur’atida ijro etilganda qo‘llaniladi.

Qo‘sh zarb - Bu zarb noxun bilan rubob simini yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga bir tekisda urish bilan bajariladi.

Rez - Bu zarb noxun bilan simga oldinma-ketinlik bilan past va yuqoriga tez zarb berishga (tirillatish) orqali amalga oshiriladi. Teskari zarb - Bu zarb sinkopali ritm xarakteriga ega bo‘lib 1,4, 7-zarblar urg‘u (aksent) bilan chalinadi. 1, 3, 4, 6, 7-zarblar pastga, 2, 5, 8-zarblar esa yuqoriga uriladi.

Romans (frantsuzcha romantika) – cholg‘u jo‘r bo‘lgan yakkaxon lirik qo‘shiq bo‘lib, his-tuyg‘ularning intim tuzilishi, individuallashtirilgan mazmuni, o‘ziga xos nozikligi va jo‘rning ifodalilik xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Romansning vokal ohangida ko‘pincha rechitativ elementlar mavjud.

Sarahbor (boshlanish qism) - xor qo‘shig‘ining boshlanishi, uni bitta xonanda - etakchi xonanda ijro etadi.

Sekstet (lotincha sextus — oltinchi) — yetti a’zodan iborat opera vokal yoki cholg‘u ansambli.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Skertsio (ital. scherzo — hazil) — jonli, o‘ynoqi xarakterdagi, o‘tkir, tiniq ritmga ega, ba’zan dramatik ohanglarga ega bo‘lgan kichik cholg‘u yoki orkestr asari.

Sinkopa - (it. yun. sinkope — qisqartich) - qattiq chalinadigan (aktsentli) notaning odatdagi kuchli hissadan kuchsiz hissaga ko‘chishi. Sinkopa ritmda kutilmagan o‘zgarish va keskinlik paydo qiladi. Sinkopa quyidagi vaziyatlarda paydo bo‘ladi: a) 1- taktning so‘nggi kuchsiz hissasi, 2 - taktning kuchli hissasi bilan bog‘lanib kelsa: b) taktdagi kuchsiz hissalar kuchliroq hissalarga qo‘shilgan bo‘lsa: v) aktsentli hissa o‘rnida pauza kelsa. Sinkopa o‘zbek xalq ashulasi va maqomlari, umuman o‘zbek musiqasi uchun xarakterlidir.

Soz (turk-fors.) – 1. Musiqada tovushlarning past-balandligi holati va munosabati. 2. Musiqa cholg‘ularining umumiy nomi. 3. Torli tirnama musiqa cholg‘u asbobi, Ozarbayjon, Eron, Turkiya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan. 4. Xorazmda garmon shu nom bilan yuritiladi.

Sozanda – 1. Cholg‘u ijro qiluvchi, cholg‘uchi. 2. Musiqachi.

Solo (it. solo – bir, yakka) – bir ijrochining yakka o‘zi ijro etishi; ansambl, xor, orkestrda eng muhim partiya ijrosi.

Solist — (it. solista — yakkaxon, yakka ijrochi) – a) yakka ovoz yoki biror cholg‘u asbobi uchun yozilgan musiqa asarini ijro etuvchi — yakkaxon xonanda, yakkanavoz sozanda; b) musiqa asari ansamblda ijro etilganda ayrim partiyani bir ijrochi tomonidan oldingi planda bajarilishi.

Stakkato (it. *stakkato* – ajratilgan, alohida) – tovushlarni qisqa-qisqa, bir-biridan pauzalar bilan ajratib ijro etish. Stakkato har bir notaning ust yo ostiga qo‘yilgan nuqta yoki *stakkato*, deb yozilgan so‘z bilan ko‘rsatiladi. Torli-kamonchali asboblarda *stakkato* kamonchani qisqa harakatlar bilan uzib-uzib chalinadi. Stakkatoning turlari – *saltando, spiccato, sautille* kabilardir.

Surdina (it. sordo – sekin, past) – cholg‘u asboblar tovushini pasaytirish uchun qo‘llaniladigan maxsus moslama. Torli-kamonchali cholg‘u asboblarda xarak ustida torlarga kiygiziladigan taroq shaklida bo‘ladi, bu orqali torlarning tebranishi qisqarib, tovush past chiqadi.

Tembr (fr. tembre - qo‘ng‘iroq, ajratish belgisi) – tovush tusi, har bir musiqiy cholg‘u yoki xonanda ovozining o‘ziga xos tovush xarakteri. Cholg‘u asbobining tuzilishi va shakliga ko‘ra uning tembri turlicha bo‘ladi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Tembr - bu musiqa intonatsiyasining turli xil hissiy rang-baranglarini cholg‘u asbobida yaratadigan yoki ovozning tovush rangi. Tembr tovushning akustik xususiyatlarini aks ettiradi. Tembri eshitish - tembrlarni, ularning o‘ziga xos xususiyatlariga xos bo‘lgan xususiyatlarini tan olish qobiliyati.

Tembrni eshitish cholg‘uning o‘ziga xos tembr bo‘yog‘ini his qilish qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lib, u muayyan predmet bilan bog‘liq holda tasavvur, his-tuyg‘u, fikriy tavsiflanadi. Shunday qilib, tovushlar bo‘g‘iq (jarangdor), issiq yoki sovuq, mazmunga boy, to‘yingan, ping‘illagan bo‘lishi mumkin.

Temperatsiya (lot. Temperatio – to‘g‘ri munosabatda, bir o‘lchamda) –musiqiy pog‘onalar oralig‘idagi intervallar munosabatining tengligi. Oktava oralig‘ining teng 12 yarim tonga bo‘linishi bir tekis temperatsiya bo‘ladi.

Tessitura (it. tessitura) – cholg‘u asbobi yoki kishi ovozining biror musiqa asarida ishlatiladigan eng pastki va yuqorgi tovushlar orali‘gi (hajmi).

Tovush balandligini eshitish - turli balandlikdagi tovushlarni aniq tanib olishga yordam beradi. Tovush balandligini eshitish melodik va garmonikga bo‘linadi. Melodik eshitish bir ovozli ohangga nisbatan ohangdor eshitishdir, garmonik eshitish esa polifonik kuyga nisbatan. Maktabgacha yoshda garmonik eshitish yomon rivojlangan.

Torli cholg‘u asboblari tortilgan torlarning tebranishi (titrashi) natijasida tovush paydo bo‘ladigan asboblardir. Ovoz hosil qilish usuliga ko‘ra torli cholg‘u asboblari kamonli (skripka, g‘ijjak, qobus kontrabas), klaviatura (fortepiano va undan oldingilari) va chertma (arfa, mandolin, gitara, balalaika, rubob va boshqalar)ga bo‘linadi.

Trel’ (ital. trillare – titratmoq, tebranmoq) – musiqa bezagi, melizm. Trel’(tr) – belgisi qo‘yilgan nota yonidagi bilan birin-ketin tez va uzluksiz qaytarilib chalinadi.

Tremolo (ital. tremolo – titrab turuvchi) – torli, klavishali va boshqa musiqa cholg‘ularida qo‘llaniladigan ijro uslubi. Bir tovush, interval yoki akkordning ko‘p marta tez-tez qaytarib chalinishi.

Tutti (ital. tutti - hamma) – musiqa asarining orkest yoki xorda butun jamoa bir vaqtda ijro etiladigan qism lavhalari.

Uvertura (fransuzcha ouverture — ochilish, boshlanish) — 1. Opera yoki balet boshlanishidan oldin ijro etiladigan, odatda o‘zidan oldingi asar mavzulariga asoslanib, uning asosiy g‘oyasini ixcham

www.nitropdf.com

Durdona

tarzda ifodalovchi orkestr asari. 2. Koʻpincha dastur musiqasiga bogʻliq boʻlgan mustaqil bir harakatli orkestr asarining nomi.

Usul (arab. “asl” soʻzidan – asos, qonun) – uslub, yoʻl, ritm, sur’at, temp va uning andozasi. Sharq musiqa san’ati va musiqa nazariyasida usul – bu musiqiy ritm asoslarining umumiy tushunchasi. Musiqada usul – turli zarblarning almashinib kelishi, doyra va nogʻoralarda ijro etiladigan zarb tuzilmalari. Eng murakkab usullar maqomlarda uchraydi. Usul – Sharq musiqasining asosi va muhim ifoda vositalaridan biri, uning ritmoformulasidir.

Ufori zarb - ritmi oʻzbek xalq raqslari uchun xarakterli boʻlgan ritmdir. Ufor zarb asosan ikki usul bilan ijro etiladi.

Faktura (lotincha factura — boʻlinish, qayta ishlash) — musiqa asarining tovush toʻqimasining tuzilishi, jumladan kuy yoki koʻp ovozli tovushlar hamrohligi, joʻrnavozlik va boshqalar.

Fanfara (italyancha fanfara) - karnay signali, odatda bayramona, tantanali xarakterga ega.

Formanta (lot. formantis – hosil qiluvchi) – tovushning xususiyati, tusi, sifatini tashkil qiluvchi joyi (asosan, rezonatorlar).

Forshlag (nem. Vorschlag, vor – oldindan, Schlag - zarb) – musiqada kuy bezagi. Ikki qoʻshni tovushni birin-ketin juda tez ijro etish, bir hissa vaqtda.

Frazirovka – musiqa asari ijrosida ayrim jumlalarni aniq, badiiy boʻrttirib berish; har bir ijrochi (cholgʻuchi yo ashulachi)ning oʻziga xos ijro uslubi va xarakteri, ya’ni frazirovkasi boʻladi.

Xas parda – tanbur, ba’zan dutorlarga qoʻyiladigan qoʻshimcha parda; yuqori sadolarni olish uchun qoʻllaniladi. Xona – musiqada kuyni ifodalovchi tugal jumla. Oʻzbek, tojik, uygʻur mumtoz, ayniqsa, cholgʻu yoʻllari musiqasida xona oʻzgaruvchan, rivojlantirib boruvchi, kuy hajmini kengaytirib beruvchi tuzilmaning ifodasi (musiqiy fikr, jumla).

Xromatizm (yun. Chroma - rang) – diatonik laddagi pogʻonalarning yarim tondan oʻzgarishi. Ular alterasiya belgilari – diyez yoki bemol bilan koʻrsatiladi. Xromatik yarim ton bir pogʻonadagi ikki turli tovushdan tuziladi. Masalan, «do» va «do-diyez»

Yakka zarb - Bu zarb tovush chiqarishning eng oddiy usuli boʻlib, noxunni rubob simiga yuqoridan pastga qarata dona-dona urish bilan bajariladi.

www.nitropdf.com

Durdona

Qonun – changga o‘xshash qadimiy musiqa asbobi. Ui barmoqlar bilan tirnab chalinadi. 17-asrda Darvishali Changiy yozib qoldirgan “Risolai musiqiy”da Qonunni qadimiy cholg‘u asboblaridan ekanligi qayd qilinadi.

Qo‘sh qars - o‘zbek raqslarida chalinadigan doyra usuli.

Qo‘shtor – dutorning har ikki torini bir xil balandlikda (unison) sozlanishi. Qo‘shtot sozi dutorni yakka chalganda va ayrim cholg‘u asarlarni ijro etganda qo‘llaniladi. Qo‘shtor qilib chalinganda dutor tovushi birmuncha baland eshitiladi.

Harakatga soluvchi (motor) qobiliyatlari - bu harakatga soluvchi qobiliyat imkoniyatini aniqlaydigan individual xususiyatlar. Qobiliyatlar o‘rganish yoki faoliyatni amalga oshirishdagi yutuqlarga qarab baholanadi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

TEST SAVOLLARİ

1. Agar quloq tovushni eshitmasa unda…..?
a) Ibora munosobati buzulmaydi;
b) Ishlash harakati yaxshilanadi;
c) Ijro harakatlari bo‘shashadi;
d) Ibora munosobati muvofiqlashadi.

2. Agar quloq tovushni eshitmasa unda…..?
a) Ijro sifatiga ta’sir etmaydi;
b) Qo‘l barmoqlari passiv bo‘lib qoladi;
c) Qo‘l barmoqlari harakati tejlashib boradi;
d) Qo‘l barmoqlari harakati o‘ta faollashadi.

3. Ansambl ijrosi dinamikasining asosiy, ajralmas qoidasi – bu…..
a) Juda yorqin nyuans;
b) Dinamik belgilardagi zaif darajada ifodalangan farqlar;
c) Ijrochilarning sub'ektiv tuyg‘usi nuqtai nazaridan bo‘rttirilganligi:
d) a va c javoblar.

4. An’anaviy musiqa ijrochiligida qaysi zarb keng qo‘llaniladi?
a) Ufori zarb;
b) Glissando;
c) Stakkato;
d) Tebratma.

5. Asarni o‘rganishning yakuniy bosqichida ishning eng muhim nuqtasi ……
a) hissiy ijro dasturini, talqin rejasini yaratish;
b) ijroni tomoshabinlarga yo‘naltirish;
c) ijro etishning hissiy madaniyatini shakllantirish;
d) Barcha javoblar to‘g‘ri.

6. Asar ustida ishlash jarayonida nimalarga e’tibor berish kerak?.
a) Cholg‘uchining cholg‘uda ijpo etish holatini to‘g‘ri shakllantirishga;
b) Cholg‘ularda tovush hosil qilish va ijro ko‘nikmalar ustida ishlashga;
c) Ijrochini applikatura talablariga to‘liq rioya qilishga odatlantirib borishga;
d) Bacha javoblarga.

7. Asar ustida ishlash jarayonida nimalarga e’tibor berish kerak?.
a) Asarning musiqi-badiiy obraziga tegishli barcha ijpo yo‘nalishlarini o‘zlashtirishga;
b) Cholg‘uvhida ijpo madaniyatini shakllantirish borasida jiddiy ish olib borishga;
c) Cholg‘uvhida turli millat va xalqlar musiqa asarlaridagi musiqiy bezaklarni o‘z o‘rnida

www.nitropdf.com

Durdona

to‘g‘ri qo‘llash mahoratini muntazam oshirib borishga;
d) Bacha javoblarga.

8. Asar ustida ishlash jarayonining birinchi bosqich rejasida nimalarni kiritish mumkin?

a) Musiqiy asar bilan tanishish, tahlil qilib chiqishni;
b) Asar ijrosiga tegishli umumiy tasavvurni shakllantirishni;
c) Ijroga doir rejani ishlab chiqishni;
d) Barcha javoblarni.

9. Asar ustida ishlash jarayonida nimalarga e’tibor berish kerak?.

a) Musiqa asarlari ustida mustaqil ishlash ko‘nikmalarini takomillashtirishga;
b) Ijpo texnikasini o‘stirish ustida muntazam ishlashga;
c) Gamma va etyudlar ijrosigaga;
d) a va javoblarga.

10. Barmoq chertmak usuli qanday ijro etiladi?

a) Tordan torga uzluksiz tremolo yordamida o‘tish;
b) Cho‘pning ikkinchi yassi, yalang qismi bilan torlarga zarb berish;
c) Ikki cho‘p yordamida tez zarblar ketma-ketligi;
d) Torlarga barmoqlar bilan mayin chertish.

11. Bulamon boshqa damli cholg‘ulardan qanday ovozi bilan ajralib turadi?.

a) Nozik va jozibali ovozi bilan;
b) O‘ta qo‘rs ovozi bilan;
c) Keskin jarangdorligi bilan;
d) b va g javoblari.

12. Darslar jarayonida sozanda (talaba) tomonidan hal etilishi lozim bo‘lgan topshiriq va mashqlarga nimalar kiradi?

a) asardagi ifoda vositalarini to‘g‘ri anglash va tushunib olish;
b) cholg‘u asbobida tovushlarni balandlik jihatdan aniq, sof ijro etish, badiiy obrazni to‘g‘ri ifoda etish;
c) cholg‘u ijrochiligi texnikasiga oid mashqlardan unumli foydalanish;
d) Barcha javoblar.

13. Darslar jarayonida sozanda (talaba) tomonidan hal etilishi lozim bo‘lgan topshiriq va mashqlarga nimalar kiradi?

a) cholg‘u asbobida milliy ohang, nola, qochirim-bezaklar ustida ishlash;
b) cholg‘u asbobida tovushlarni balandlik jihatdan aniq, sof ijro etish, badiiy obrazni to‘g‘ri ifoda etish;
c) asardagi ifoda vositalarini to‘g‘ri anglash va tushunib olish;
d) Barcha javoblar.

14. Darsdan tashqari sharoitlarda bajarilishi ko‘zda tutilgan mashqlar, topshiriqlar, uy vazifalarga nimalar kiradi?

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

a) Asarni qaysi shakl, uslubga xosligi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plash;
b) Asarni ritm-usulini his etib ijro etishni mashq qilish;
c) Asarni musiqiy-badiiy ijrosi va yaxlit holda ijro etishni mashq qilish;
d) Barcha javoblar

15. Darsdan tashqari sharoitlarda bajarilishi ko‘zda tutilgan mashqlar, topshiriqlar, uy vazifalarga nimalar kiradi?
a) Asarni qanday holat, vaziyatda ijro etilishi haqidagi ma’lumotlarni mustahkamlash;
b) Asarni ritm-usulini his etib ijro etishni mashq qilish;
c) Asarni musiqiy-badiiy ijrosi va yaxlit holda ijro etishni mashq qilish;
d) Barcha javoblar

16. “Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholg‘ulari orkestri” kitobi muallifi kim?
a) T.Jalilov;
b) A.Toshmatova:
c) Y.Rajabiy;
d) A.Petrosyants.

17. Dirijyorlik usuli nimalarda qo‘llaniladi?
a) Tovushlarning balandligini ko‘rsatadigan nisbiy qo‘l shaklida;
b) Musiqaning ohangdorligini ifodalashda;
c) Musiqa tempi, dinamikasini ifodalashda;
d) Barcha javoblar to‘g‘ri,

18. Doyrada tovush hosil qilish zarblari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
a) Katta bum, kichik bum, katta bak, yakka zarb, flojelet;
b) Katta bum, kichik bum, katta bak, kichik bak, noxun;
c) Katta bak, kichik bak, noxun, detashe, legato;
d) Kichik bum, katta bak, flojelet, noxun.

19. Dutorlarda tovush hosil qilish zarblari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
a) Teskari zarb, urma zarb, to‘lqinlatish, cho‘p tarak;
b) Yakka zarb, bidratma, cho‘p tarak, urma zarb;
c) Yakka zarb, teskari zarb, ufori zarb, pitssikato;
d) Urma zarb, ufori zarb, nolish, cho‘p tarak.

20. Farg‘ona-Toshkent surnayi qanday tovush xususiyatiga ega?
a) Menzurasi kengroq, tovushi mayin va nolali;
b) Menzurasi tor, tovushi keskin;
c) Menzurasi juda tor, tovushi jarangdor;
d) Menzurasi kengroq, ovozi o‘ta past.

21. Gruppeto qanday bezak?
a) Bir tovushdan tashkil topgan melodik bezak;
b) Ohangsiz bezak:

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

c) 9 yoki 10 tovushdan iborat bo‘lgan ohangdor bezak;
d) 4 yoki 5 tovushdan iborat bo‘lgan ohangdor bezak.

22. Har qanday zarb musiqaning ……

a) xarakterini ochib berishga rol o‘ynamaydi;
b) ma’lum bir xarakterini ochish uchun qo‘llaniladi;
c) tuzulishiga ahamiyatli hisoblanmaydi;
d) Javoblar xato berilgan.

23. Ijro dinamikasining asosiy, ajralmas qoidasi – bu ……

a) Juda yorqin nyuans;
b) Yoqimsiz nyuans;
c) Ijrochilarning sub'ektiv tuyg‘usi nuqtai nazaridan bo‘rttirilganligi;
d) a va c javoblar.

24. Ijros uchun musiqa tanlash va o‘rgatishi uchun qanday jihatlarga e’tibor berishi lozim bo‘ladi?.

a) Musiqachining individual imkoniyatlarini hisobga olish;
b) Ijrochilarda mavjud bo‘lgan kamchiliklarni o‘rganib chiqish va asar tanlaganda ularni inobatga olish;
c) Musiqiy asarlar janridan kelib chiqqan holda ularni to‘g‘ri tanlash;
d) Barcha javoblar to‘g‘ri.

25. Ijro uchun musiqa tanlash va o‘rgatishi uchun qanday jihatlarga e’tibor berishi lozim bo‘ladi?.

a) Musiqiy asarlar janridan kelib chiqqan holda ularni to‘g‘ri tanlash;
b) Musiqa asarini ijro etish uslubiyotini puxta o‘zlashtirib olish;
c) Iijrochilik yo‘nalishlari yoki maktablariga alohida yondashish;
d) Barcha javoblar to‘g‘ri.

26. «Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy» asari kim tomonidan yozilgan?

a) Darvesh Ali Changiy;
b) Abdurahmon Jomiy;
c) Abdulqodir Marog‘iy;
d) Ibn Sino.

27. «Katta musiqa kitobi» asari kim tomonidan yozilgan?

a) Abdulqodir Marog‘I;
b) Al-Forobiy;
c) Darvesh Ali Changiy;
d) Safiuddin Urmaviy.

28. Kashish qanday bezak usuli?

a) Torning ma’lum qismini tebratib ijro etish usulu;
b) Yarim ton doirasida amalga oshiriladigan bezak usuli;
c) Tordan torga uzluksiz tremolo yordamida o‘tish usuli;
d) Mediator yordamida tordan-torga o‘tish bilam ijro etish usuli.

29. Konsert ijrochiligi asoslari faniga tegishli qanday bilimlar xalq cholg‘ularida o‘qish jarayonida o‘zlashtirib olinadi?

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

a) Xalq cholg‘ularining rus xalq cholg‘ulari bilan bog‘likligi;
b) Xalq cholg‘ulari vositalarining nomunosibligi;
c) Xalq cholg‘ularining ijrochilik imkoniyatlari va zarblar;
d) To‘g‘ri javob berilmagan.

30. Konsert ijrochiligi asoslari faniga tegishli qanday bilimlar xalq cholg‘ularida o‘qish jarayonida o‘zlashtirib olinadi?
a) Damli cholg‘ular(nay, qo‘shnay)da sifatli ovoz tarovatiga ega bo‘lish;
b) Opera va balet turlari;
c) Simfonik orkestr xususiyatlari;
d) b va c javoblar.

31. Konsert ijrochiligi asoslari faniga tegishli qanday bilimlar xalq cholg‘ularida o‘qish jarayonida o‘zlashtirib olinadi?
a) torli-mizrobli cholg‘ularda zarblarni ijro etganda mizrobdan to‘g‘ri foydalanish;
b) Yevropa cholg‘u asboblari ijrochilik uslublari;
c) G‘ijjak va skripkada chalish usullari;
d) To‘g‘ri javob berilmagan.

32. Konsert ijrochiligi asoslari faniga tegishli qanday bilimlar xalq cholg‘ularida o‘qish jarayonida o‘zlashtirib olinadi?
a) Nog‘ora va karnayda chalish usullari;
b) Qayroq va safoilda chalish usullari;
c) Torli-chertma (plektr) cholg‘ularda mayin va sifatli ovoz tarovatiga erishish usullari;
d) Nog‘ora va safoilda chalish usullari.

33. Konsert ijrochiligi asoslari faniga tegishli qanday bilimlar xalq cholg‘ularida o‘qish jarayonida o‘zlashtirib olinadi?
a) Cholg‘ularni yasash qoidalari;
b) Torli-urma va chertma (chang, qonun) cholg‘ularda zarblardan unumli foydalanishni;
c) Arfada chalish usullari;
d) Fortepianoda chalish usullari.

34. Konsert ijrochiligi asoslari faniga tegishli qanday bilimlar xalq cholg‘ularida o‘qish jarayonida o‘zlashtirib olinadi?
a) Fortepianoda chalish usullari
b) Zarbli cholg‘ularda ifodali ovoz tarovatiga erishish va rang-barang usullarni ijro etish mahorati;
c) Nog‘ora va karnayda chalish usullari;
d) Barabanda chalish usullari.

35. Konsert ijrochiligi asoslari faniga tegishli qanday bilimlar xalq cholg‘ularida o‘qish jarayonida o‘zlashtirib olinadi?
a) Skripkada ijro etish usullari;
b) Cholg‘u asboblar yasash qoidalari;
c) Torli-kamonli cholg‘ularda yoqimli va sof ijro etish;
d) Yevropa cholg‘u asboblari ijrochilik uslublari.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

36. Konsert qanday ketma-ketlikdagi musiqiy kommunikativni birlashtirishni hazarda tutadi?
a) “ijrochi-tinglovchi-bastakor”
b) “tinglovchi-bastakor-ijrochi”;
c) “bastakor-ijrochi-tinglovch”;
d) “bastakor-tinglovchi- ijrochi”.

37. Konsert ijrosi qanday shakl?
a) Ijrochining omma oldida musiqiy faoliyat yuritishining alohida shakli;
b) Asar ustida tinmay mashq qilish shakli;
c) Kompozitor ijodini o‘rganish shakli;
d) a va d javoblar.

38. Konsert ijrochiligi musiqachining qanday muhim fazilatlarini safarbar qiladi?
a) Muloqot yuritish fazilatlarini;
b) Insoniylik fazilatlarini;
c) Barcha professional fazilatlarini;
d) Qisman professional fazilatlarini.

39. Konsert ijrochiliginig asosiy vazifasi nima?
a) Sozandaning o‘z ustida ishlashga majburlash;
b) Kompoziorlar haqida ma’lumotlar to‘plash;
c) Tinglovchilarni baqtinchalik tinchlatish;
d) Tinglovchi, eshituvchilarga faol ta’sir ko‘rsatish.

40. “Kitob al-Musiqa al-Kabir” asari kim tomonidan yozilgan?
a) Marog‘iy;
b) Jomiy;
c) Farobiy;
d) ibn Sino.

41. Kuyni ijro etishdagi asosiy qiyinchiliklardan biri nimada?
a) Kuy ravnaqining(rivojining) yagona yo‘nalishini saqlab qolish;
b) Milliy ijro uslubini bilmaslik;
c) Kuyni talaffuz qilishda mantiqiy ipni yo‘qotmaslik;
d) a va c javoblar.

42. Kuchli urg‘u biror-bir ovozga o‘tkaziladigan ….
a) Garmonik yordam(tayanch)ni talab qiladi;
b) Garmonik yordam(tayanch)ni talab qilmaydi;
c) Zaiflashtiririshni talab qiladi;
d) Zaiflashtiruvchi chuqurlashtirishni talab qilmaydi.

43. Markato qanday usul?
a) Cholg‘u asboblarini chalishda bog‘lama usuli;
b) Cholg‘u asboblarini chalishda artikulyatsiya usuli;
c) Cholg‘u asboblarini chalishda sinkopa usuli;
d) Cholg‘u asboblarini chalishda bidratma usuli.

44. Melizmlarning nota belgilari qachon, qayerda paydo bo‘lgan?
a) 15-16-asrlarda Rossiyada;
b) 15-16-asrlarda Germaniyada;
c) 16-17-asrda Shvetsiyada;

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

d) 16-17-asrda Ispaniyada.

45. Melizmlar Yevropada qaysi asrlarda keng rivoj topdi va o‘zining muayyan shakllariga ega bo‘ldi?.

a) 16—17-asrlar;
b) 17—18-asrlar;
c) 18—19-asrlar;
d) 19—20-asrlar;

46. Molish qanday usul?

a) Past zarbga qarshi tomon harakatda ijro etish usuli;
b) Chap qo‘l barmog‘ini torga yengil tekizib ijro etish usuli;
c) Torlarga barmoqlar bilan mayin chertish usulu;
d) Barmoqni bir tovushdan ikkinchi tovushga ohangdor, ohista sirg‘alatish usuli;

47. Muayyan zarbni tanlash nimaga bog‘liq?

a) Butunlay musiqiy tarkibga bog‘liq;
b) Musiqiy tarkibning ijrochilar tomonidan talqin qilinishiga bog‘liq;
c) a va b javoblar;
d) Javoblar xato berilgan

48. Musiqa asari ustida ishlash bosqichlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?.

a) Asar bilan dastlabki tanishish:
b) Musiqa asari ustida batafsil ishlash;
c) konsertga tayyorgarlik: optimal konsert holatiga erishish;
d) Barcha javoblar to‘g‘ri.

49. Musiqa asari mazmun-mohiyatini xotirada shakllantirish uchun ….

a) notani varoqdan o‘qish va aqlan takrorlash;
b) asar ijro surati ustida tinimsiz mashq qilish;
c) gammalar ijro etish;
d) etyudlarni tahlil qilish.

50. Musiqa asari mazmun-mohiyatini xotirada shakllantirish uchun ….

a) etyudlarni tahlil qilish;
b) musiqa asari yozuvini tinglash;
c) gammalar ijro etish;
d) a va c javoblar.

51. Musiqa asari ustida ishlashning birinchi bosqichidagi muhim omillardan biri bu …

a) taniqli sozandalar ijrosini tahlil qilish;
b) tahririyat ko‘rsatmalarini o‘rganish;
c) mualliflik huquqini o‘rganish
d) b va c javoblar.

52. Musiqa asarlarini o‘rganishga tegishli o‘quv ma’lumotlarini loyihalash texnologiyasida nimalar muhim o‘rin tutadi?.

a) Musiqa asarining mazmun-mohiyatini anglash uchun beriladigan vazifalar;
b) Musiqa asarini cholg‘u asbobida mustaqil ijro etish vazifalari;

www.nitropdf.com

Durdona

c) Musiqa asarlari bo‘yicha tavsiya etilgan qisman ma’lumotlar
d) a va b javoblar.

53. Musiqa asariga ob’ektiv yondashuv nimalar asosida o‘z ifodasini topishi kerak?

a) Asar musqaning qaysi janrga mansub ekanligi (oddiy kuy, marsh, vals, raqs va h.k.);
b) Asarning umumiy tuzilishi, shaklini aniqlash;
c) Asarning musiqiy-badiiy obrazi (qiyofasi);
d) Bacha javoblar.

54. Musiqa asariga ob’ektiv yondashuv nimalar asosida o‘z ifodasini topishi kerak?

a) Asarning xarakterli ko‘rinishi (quvnoq, sho‘x, hayajonli, g‘amgin, qahramonona, hazil va h.k.);
b) Asarning qaysi davrda munosib yozilganligi, ohang va uning uyg‘unlik(garmonik) tili, uslubi;
c) Mazkur asarni chalish orqali shakllanadigan an’analar;
d) Bacha javoblar.

55. Musiqa asariga sub’ektiv yondashuv nimalar asosida o‘z ifodasini topishi kerak?

a) Ijrochinig asarni ijro etishga nisbatan moyilligi:
b) Ijrochinig ijrochilikka xos temperamenti (lirik, romantik, qayg‘uli, melanxolik);
c) Ijroga doir obrazli fikrlashlar va ijodiy xayolotlar;
d) Bacha javoblar.

56. Musiqa asariga sub’ektiv yondashuv nimalar asosida o‘z ifodasini topishi kerak?

a) Mazkur asar muallifi (xalq kuyi) haqidagi bilim darajasi;
b) Asar muallifi hayoti va ijodi (xalq kuyi)ga bo‘lgan qiziqish;
c) Mazkur asar ijro yo‘nalishini qanchalik o‘zlashtirb borishi bo‘yicha imkoniyatlar
d) Bacha javoblar.

57. Musiqa asarlarini o‘rgatish uchun qanday usullarni qo‘llanish mumkin?

a) Musiqa asarini cholg‘u asbobida jonli ijro etib tushuntirish;
b) Musiqa asariga nisbatan muayyan qiziqish uyg‘otish usuli;
c) Asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini tushuntirib berish;
d) a va c javoblar.

58. Musiqa asarlarini o‘rgatish uchun qanday usullarni qo‘llanish mumkin?

a) Xotiralash;
b) Asarni shakli, xarakteri, musiqiy tuzilmasi haqida tushuncha berish;
c) Asarni jumlalarga bo‘lib o‘rganish;
d) b va c javoblar.

59. Musiqa asarlarini o‘rgatish uchun qanday usullarni qo‘llanish mumkin?

a) Asarni musiqiy-badiiy ijrosi ustida ishlash;

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

b) Xotiralash;
c) Ijroni baholab borish va xulosalar qilish;
d) a va c javoblar.

60. Musiqachilarning ijodiy niyatlarini muvofiqlashtirish va yo‘naltirish uchun ishlab chiqiladigan rejada ijroning qanday masalalar hisobga olinadi?

a) Asarning alohida elementlarini yaxlit butunlikka birlashtirish;
b) Bir sur’atdan boshqasiga o‘tish mantig‘I;
c) Turli zarblardan foydalanish;
d) Bacha javoblar

61. Musiqachilarning ijodiy niyatlarini muvofiqlashtirish va yo‘naltirish uchun ishlab chiqiladigan rejada ijroning qanday masalalar hisobga olinadi?

a) Dinamik ko‘tarilish jihatlari;
b) Avj nuqtalari;
c) Turli zarblardan foydalanish;
d) Bacha javoblar.

62. Nimalar sozandaning texnik mahoratini o‘shiradi?

a) Musiqa asarini nazariy tahlil qilish;
b) Kompozitorlar hayoti va ijodini o‘rganish;
c) Musiqa tinglash;
d) Turli mashq, gamma va etyudlar ijro etish;

63. Nolish nima?

a) Yarim tongacha bo‘lgan o‘ziga xos yirik bidratma;
b) Ikki tongacha bo‘lgan o‘ziga xos yirik bidratma;
c) Uch tongacha bo‘lgan o‘ziga xos yirik bidratma;
d) Bir tondan ortiq bo‘lgan o‘ziga xos yirik bidratma.

64. Nonlegato qaysi cholg‘u asbobida tovushi hosil qilish usuli?

a) Doyra;
b) Nog‘ora;
c) Nay;
d) Chang.

65. O.Kamolxo‘jayev qaysi asar muallifi?

a) ”Doyra darsligi”:
b) “Cholg‘u ijrochiligi”;
c) “Cholg‘u ijrochiligiga o‘rgatish metodikasi”;
d) “Cholg‘u ansambli”.

66. Ornamentika nima?

a) Musiqada kuyni takrorlash usuli;
b) Musiqada kuyni bezak bo‘lmagan qismi;
c) Musiqada kuyni bezash usullari;
d) To‘g‘ri javob berilmagan.

67. Pastga zarb qanday usul?

a) Mediator yordamida harakat bilan torni tebrantirish natijasida tovush hosil qilish usuli;
b) Mediator yordamida tordan torga o‘tish usuli;
c) Torlarga barmoqlar bilan mayin chertish usulu;
d) Ikki cho‘p yordamida tez zarblar ketma-ketligi usulu.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

68. Pitsssikato qanday ijro etiladi”
a) Rez bilan amalga oshiriladi;
b) Mediator o‘ng qo‘l orasiga olinadi va bosh barmoq yordamida yuqoridan pastga qarab ijro etiladi;
c) Torning ma’lum qismi tebratib ijro etiladi;
d) Torning asosiy qismi tebratib ijro etiladi.
69. Puflab chalinadigan cholg`u asboblarini chalishda to`g`ri iboralar uchun ajralmas shart – bu, ….
a) nafasni ifodalashga bo`ysundirish;
b) musiqa asarining tugal bir bo‘lagini topish;
c) nafasni ifodalashga e’tibor bermaslik;
d) a va b javoblar.
70. Qaysi cholg‘u asbobida Legato, Nonlegato, Portamento kabi uslub va zarblarda tovush hosil qilinadi?.
a) Changlarda;
b) Doyrada;
c) Naylarda;
d) Dutor basda.
71. Qaysi cholg‘u asbosbida Yakka, Teskari, Ufori zarblarda tovush hosil qilinadi?
a) Dutorlarda;
b) G‘ijjaklarda;
c) Naylarda;
d) Changlarda.
72. Qanday omil ovozli muammoni hal qilishda bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi?
a) Musiqani tahlil qilish;
b) Cholg‘uchi barmoqlarining holati;
c) Tovushni oxirigacha tinglash;
d) To‘g‘ri javob berilmagan.
73. Qonun qanday tembrlar orqali chalinadi?.
a) Yuqori va pastki tembrda;
b) Faqat pastki tembrda;
c) Faqat yuqori tembrda;
d) Istalgan embrda.
74. Qonun tovush qatoriga ega?.
a) Xromatik;
b) Xromatik va diatonik;
c) Diatonik;
d) O‘zgaruvchan.
75. Rejada nimalar ko‘rsatilishi kerak?.
a) Mashg‘ulotning davomiyligi;
b) Mashg‘ulotning ish usuli;
c) Rejalashtirilgan ish hajmi
d) Bacha javoblar
76. Rez usuli qanday ijro etish usuli?
a) Chap qo‘l barmog‘ini torga yengil tekizib ijro etish usuli;
b) Zarblarni navbat bilan pastga va yuqoriga qilib jadal ravishda ijro etish ushuli;
c) Torning ma’lum qismini tebratib ijro etish usuli;
d) Past zarbga qarshi tomon harakatda ijro etish usuli.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

77. Ruboblarda tovush hosil qilish zarblari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
a) To‘lqinlatish, teskari zarb, urma zarb, sakratma zarb;
b) Pastga zarb, yuqoriga zarb, yakka zarb, bidratma;
c) Yakka zarb, bidratma, cho‘p tarak, urma zarb;
d) Teskari zarb, urma zarb, sakratma zarb, cho‘p tarak.

78. Sautille qanday ma’noni anglatadi?
a) Sakrash, irg‘ish, to‘xtash;
b) Irg‘ish, sapchish, yugurish;
c) Sakrash, irg‘ish, sapchish;
d) Sapchish, yugurish, tebratish.

79. Sahna hayajoniga qanday kamchilik sabab bo‘lishi mumkin?
a) Chalinadigan asar(kuy)ni yetarli darajada tayyor emasligi;
b) Cholg‘u asbobining yo‘qligi;
c) Havoning sovuqligi;
d) To‘g‘ri javob berilmagan.

80. Sahna hayajoniga qanday kamchilik sabab bo‘lishi mumkin?
a) Tomoshabinning kamligi;
b) Havoning sovuqligi;
c) Ba’zi muvoffaqiyatsiz chiqishlar;
d) Aloqaning kuchsizlanishi

81. Sozandaning umumiy qobiliyatining yetakchi omillaridan biri bu…..
a) Musiqiy eshitish qobiliyatining qay darajada rivojlanganligidir;
b) Musiqa tinglab dam olishdir;
c) Musiqaga e’tiborsizlik bilan qarash;
d) a va c javoblar.

82. Sahna hayajoniga qanday kamchilik sabab bo‘lishi mumkin?
a) Havoning sovuqligi;
b) Cholg‘uning nosozligi
c) Tomoshabinlarning konsertni e’tiborsizlik bilan tinglashi;
d) To‘g‘ri javob berilmagan.

83. Stakkato qanday ijro etiladi”
a) Mediator o‘ng qo‘l orasiga olinadi va bosh barmoq yordamida yuqoridan pastga qarab ijro etiladi;
b) Rez bilan amalga oshiriladi;
c) Mediator zarbida tovushlarni qisqa-qisqa, birini boshqasidan pauza bilan ajratib ijro etiladi;
d) To‘g‘ri javob berilmagan.

84. “So‘g‘diyona davlat xalq cholg‘ulari kamer orkestri” asarimi kim yaratgn?
a) D,Zokirov;
b) M.Bafoyev;
c) A.Liviyev;
d) A.Toshmatova.

85. Tajribaning yetishmasligi nimaga sabab bo‘ladi?
a) Muloqotning buzilishiga;
b) Sahna hayajoniga;
c) Aloqaning kuchsizlanishiga;
d) Mashuliyatni yo‘qolishiga.

86. “Taqvodorlik kitobi” asari kim tomonidan yozilgan?

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

a) Darvesh Ali Changiy;
b) Abdulqodir Marog‘I;
c) Safiuddin Urmaviy;
d) Al-Forobiy.

87. Ufori zarb qaysi cholg‘u asboblarida tovush hosil qilishda qo‘llaniladi?
a) G‘ijjak va nayda;
b) Ruboblar va dutorlarda;
c) Dutor bas va changda;
d) Zarbli va kamonli cholg‘ularda.

88. Ufori zarb qanday kuylar uchun xarakterli?
a) Chang ijrosi uchun xarakterli;
b) Raqs kuylari uchun xarakterli;
c) Yalla kuylari uchun xarakterli;
d) O‘zbek xalq yalla va raqs kuylari uchun xarakterli.

89. Xorazm surnayi qanday tovush xususiyatiga ega?
a) Menzurasi nisbatan torligidan tovushi o‘ta xira
b) Menzurasi nisbatan torligidan tovushi keskin va chiyildoq;
c) Menzurasi kengroq, tovushi mayin;
d) Menzurasi nisbatan torligidan ovozi past.

90. Yuqoriga zarb qanday amalga oshiriladi?
a) Mediator yordamida torni tebrantirish bilan;
b) Torlarga barmoqlarda mayin chertish bilan;
c) Mediator yordamida past zarbga qarshi tomon harakat qilish bilan;
d) Mediator yordamida tordan torga o‘tish bilam.

91. Zarblar (shtrixlar) – bu ….
a) Badiiy-musiqiy niyatni buzulishi;
b) Badiiy-musiqiy niyatni o‘zaro muvofiqiyatsizligi;
c) Musiqiy g‘oyani takomillashtirish;
d) Musiqiy g‘oyaning buzulishi.

92. Zarblar (shtrixlar) – bu ….
a) Badiiy-musiqiy niyatni o‘zaro muvofiqiyatsizligi;
b) Musiqiy g‘oyaning buzulishi;
c) Musiqi ifodaning buzulishi;
d) Musiqiy ifodalashning eng muvaffaqiyatli shaklini topish.

93. “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” asari muallifi kim?
a) A.Fitrat;
b) I.Rajabiy;
c) A.I.Petrosyants;
d) Y.Rajabiy.

94. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi” asari muallifi kim?
a) Y.Rajabiy;
b) A.Fitrat;
c) A.Odilov:
d) T.Jalilov.

95. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik san’ati tarixi” asari kim tomonidan yozilgan?
a) A.Liviyev;
b) A.Petrosyants;
c) A.Odilov;
d) A.Lutfullayev.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

96. O‘zbekistonda surnayning necha turi mavjud?.
a) Uch xil (Farg‘ona-Toshkent, Buxoro va Xorazm) turi;
b) Ikki xil (Farg‘ona-Toshkent va Xorazm) turi;
c) Ikki xil (Xorazm va Qashqadaryo) turi;
d) Uch xil (Farg‘ona-Toshkent, Buxoro va Jizzax) turi.

97. G‘ijjaklarda tovush hosil qilish zarblari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
a) Detashe, legato, stakatto, spikkato, flojelet;
b) Legato, stakatto, spikkato, bidratma, urma zarb, yuqoriga zarb;
c) Spikkato, flojelet, kashish, yakka zarb, ufori zarb, teskari zab;
d) Flojelet, kashish, molish, yakka zarb, bidratma.

98. Cho‘p tarak - col legno usuli qaysi cholg‘uda tovush hosil qilish usuli hisoblanadi?
a) Qashqar rubobi;
b) Chang;
c) Dutor;
d) G‘ijjak.

99. “Cholg‘ushunoslik” (1990) kitobi muallifi kim?
a) A.Liviyev;
b) A.Odilov;
c) A.Petrosyants;
d) T.Vizgo.

100. Changda tovush hosil qilish zarblari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
a) Cho‘p chertmak, barmoq chertmak, urma zarb, cho‘p tarak;
b) Barmoq chertmak, urma zarb, pastga zarb, bidratma;
c) Urma zarb, cho‘p tarak, nolish, zarbi parron;
d) Cho‘p tarak, sakratma zarb, to‘lqinlatish, teskari zarb.

101. Changda musiqa ijro etishning muhim shartlaridan biri, bu …?
a) Taniqli changchilar faoliyatini bilish;
b) Cholg‘u oldida to‘g‘ri o‘tirish holati;
c) Chang tarixi haqida ma’lumotga ega bo‘lish;
d) a va b javoblar.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

TEST JAVOBLARİ

№	To‘g‘ri javob	№	To‘g‘ri javob	№	To‘g‘ri javob	№	To‘g‘ri javob	№	To‘g‘ri javob
1	c	21	d	41	d	61	d	81	a
2	b	22	b	42	a	62	d	82	b
3	d	23	d	43	b	63	a	83	c
4	a	24	d	44	b	64	c	84	d
5	d	25	d	45	b	65	a	85	b
6	d	26	c	46	d	66	c	86	c
7	d	27	b	47	c	67	a	87	b
8	d	28	b	48	d	68	b	88	d
9	d	29	c	49	a	69	a	89	b
10	d	30	a	50	b	70	c	90	c
11	a	31	a	51	d	71	a	91	c
12	d	32	c	52	d	72	c	92	d
13	d	33	b	53	d	73	a	93	a
14	d	34	b	54	d	74	c	94	c
15	d	35	c	55	d	75	d	95	d
16	b	36	c	56	d	76	b	96	b
17	d	37	a	57	d	77	b	97	a
18	b	38	c	58	d	78	c	98	b
19	c	39	d	59	d	79	a	99	c
20	a	40	c	60	d	80	c	100	a
								101	b

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

FOYDALANİLGAN ADABİYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil yakunlari va 2017- yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017- yil 16- yanvar, №11

2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent "O'zbekiston" – 2017y.

3. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" NMIU, 2016y.

4 Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2016.

5 "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. : "2017- 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". "Xalq so'zi" gazetasi. 2017- yil 8-fevral.

6. Abduraximova F.R. Orkestr sinfi. – Toshkent. 2012.

7. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, 2004 yil.

8. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova. O'zbek musiqasi tarixi. —T.: «Fan va texuologiya», 2018.

9. Boltazoda S.S. Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg'ular.- Toshkent: "Musiqa", 2008 - 136 bet.

10. Блох О.А. Психология и педагогика музыкального творчества: учебное пособие для вузов. Москва: МГУКИ, 2013.

11. Do'stov S. Cholg'u ijrochiligi va ansambli. - Buxoro "Durdona", 2019 - 240 b.

12. Ergashyev G'. Afg'on rubobi darsligi. T., 2004.

13. Elov M. Ashulachilar ansambli. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2019.

14. Григорьев В.Ю. Методика обучения игре на скрипке. – М.: Издательский дом «Классика XXI», 2007.

www.nitropdf.com

Durdona

15. Ibragimov X.I., Yo‘ldoshev U.A., Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. - 400 b.

16. Ilhomov M.A. Cholg‘u ijrochiligi. Toshkent. “Mehnat”, 2010.

17. Jabborov A.H. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. – T.: Yangi asr avlodi, 2004. – 470 b.

18. Karimov O.I. Cholg‘u ijrochiligi va ansambli (O‘quv qo‘llanma). Buxoro. “Durdona”, 2019. -189 b.

19. Kamolxo‘jayev O. Doyra darsligi. T., 20011.

20. Кирнарская Д. Психология специальных способностей. Музыкальные способности – М.: Таланты – XXI век, 2004.

21. Lutfullayev A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik san’ati tarixi. T., “Musiqa” nashriyoti, 2006.

22. Mannopov S. “O‘zbek xalq musiqa madaniyati”. –Toshkent., “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2004 yil.

23. Mansurov A. Cholg‘ulashtirish bo‘yicha amaliy namunalar va mashqlar (O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri). -T., 2006.

24. Мергалиев Д.М. Оркестровое музицирование: учебное пособие / Алматы: ССК, 2017.— 124 с.

25. Nazarov O. Qashqar rubobida o‘qitish uslubiyoti. T., 2008.

26. Nazarov O., Abduraimov A. “Rubob ijrochiligi”. “Nishon nosir” –T., 2015.

27. Nazarov Q. G‘ijjak. T., 2012.

28. Nishanova Z. T. Psixoiogik maslahat: O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. - Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. - 248 b.

29. Nurmatov H. Rubob darsligi. T., 2003.

30. Odilov A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. “O‘qituvchi”, -T., 1996.

31. Petrosyants A. I. Cholg‘ushunoslik T., San’at 1990 yil.

32. Rahimov Sh. Cholg‘ulashtirish va partitura o‘qitish (O‘quv qo‘llanma). Toshkent. 2009.

33. Rahimov Sh. Cholg‘u ijrochiligiga o‘rgatish metodikasi (O‘quv qo‘llanma). Toshkent. 2009.

34. Rahimov Sh. Yusupov Sh.S. Cholg‘u ijrochiligi. Toshkent. 2012.

www.nitropdf.com

Durdona

35. Rahimov Sh. Saidov A. Cholg‘u ansambli. Toshkent. 2012.

36. Ruziyev D.Yu. Orkestr ijrochiligi. O‘quv qo‘llanma. Buxoro, “Durdona” nashriyoti, 2020.

37. Ruziyev D.Yu. Ansambl bilan ishlash uslubiyoti. Darslik. Buxoro, “Durdona” nashriyoti, 2021.

38. Ruziyev D.Yu. Ansambl ijrochiligi. O‘quv qo‘llanma. Buxoro, “Durdona” nashriyoti, 2021.

39. Самостоятельная работа студентов: виды, формы, критерии оценки : [учеб.-метод. пособие] / [А. В. Меренков и др.]; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016. — 80 с.

40. Saidiy B. Cholg‘ushunoslik va cholg‘ulashtirish asoslari. Darslik, “Musiqa” nashriyoti. Toshkent- 2016.

41. Совершенствование технических навыков студентов в процессе инструментальной подготовки: учебно-методическое пособие / сост. В.В. Смирнов. – 2-е изд., испр. и доп. – Иркутск: ГБПОУ ИО «ИРКПО», 2018.–116 с.

42. Tashmatova A. Ijrochilik san’ati tarixi. Darslik. -T., “Musiqa”, 2017.

43. Tashmatova A. Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholg‘ulari orkestri. T., “Musiqa”, 2015.

44. Tashmatova A. So‘g‘diyona davlat xalq cholg‘ulari kamer orkestri. T., “Tafakkur qanoti”, 2016.

45. Tuzuvchi O. Yusupova “Musiqa ijrochiligi va pedagogikasi masalalari”. Maqolalar to‘plami, 8-jild, OOO “Temir yo‘lchi” –T., 2014.

46. “Xalq cholg‘ulari ijrochiligining zamonaviy omillari” Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasining maqolalar to‘plami. T., 2015.

47. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik. Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011.

48. Цыпин Г.М. Сценическое волнение и другие аспекты психологи исполнительской деятельности / Г.М. Цыпин. – М.: Музыка, 2014. – 128 с.

49. Цагарелли Ю. А. Психология музыкально-исполнительской деятедьаости. Учебное пособие. Издательство «Композитор • Санкт-Петербург» 2008

www.nitropdf.com

Durdona

MUNDARIJA

Muallifdan **4**
Kirish **6**
Birinchi bo‘lim. **8**
Konsert ijrochiligi asoslari fanini o‘rganilishida tayaniladigan asosiy manbalar 8
Konsert ijrochiligi asoslari xalq cholg‘ularida o‘qitish uslubiyoti fanining mantiqiy davomi sifatida 11
Yuqori malakali mohir sozandalarni tayorlashda konsert ijrochiligi fanining ahamiyati 15
Cholg‘ularda ijro holati (apparati) 20
Ikkinchi bo‘lim. **43**
Xalq cholg‘ularining ijrochilik imkoniyatlari va zarblar haqida 43
Damli cholg‘ularda sifatli ovoz tarovatiga ega bo‘lish 45
Torli urma va chertma (chang, qonun) cholg‘ularda zarblardan unumli foydalanish 47
Torli-mizrobli cholg‘ularda ijro etganda mizrobdan to‘g‘ri foydalanish, mayin va sifatli ovoz tarovatiga erishish usullari 50
Torli-chertma cholg‘ularda mayin va sifatli ovoz tarovatiga erishish uslublari 58
Torli-kamonli cholg‘ularda yoqimli va sof ijroga erishish 60
Zarbli cholg‘ularda ifodali ovoz tarovatiga erishish va ijro mahoratini egallash usullari 66
Uchinchi bo‘lim. **69**
Musiqiy bezak(melizm) haqida tushuncha 69
Musiqiy bezak(melizm) turlari 71
O‘zbek an’anaviy musiqa ijrochiligiga xos bezaklar 80
Applikatura va uning cholg‘u ijrochiligi san’atidagi ahamiyati 87
Ijro mahoratini oshirishda applikaturaning o‘rni va ahamiyati 89
Pozitsiyalar va ularning ijro mahoratini oshirishdagi roli 92
Cholg‘uda chalish mahoratini o‘stirishda mashqlar, gamma va etyudlarning ahamiyati 98
Ijrochining texnik mahoratini tarbiyalash muammolari 104
Ijro etuvchi apparatlarning sifatlari 107
Cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha texnik tayyorgarlik 112

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

To‘rtinchi bo‘lim. 116
Musiqa asari ustida ishlasgning o‘ziga xosligi, barcha uchun umumiy tomonlarining mavjudligi..... 116
Birinchi bosqich - musiqiy asar bilan tanishuv va ijrochilik rejasini shakllantirish..... 118
Ikkinchi bosqich – asarni ijro qilish rejasini amalga oshirish, kuy matnini aniqlash, asar mazmuni va obrazini ochib berish 122
Uchinchi bosqich – asarni yod olish va umumiy ijroni amalga oshirish..... 127
Ta’lim jarayonida sozandaning orkestr va ansambllarda ijro etishi mahorati 129
Orkestr va ansambl sozandalarning hamkorlikda chalish malakalari 134
Orkestr va ansambl sozandasining vazifalari..... 142
Jamoa ijrochiligida dirijyor faoliyati..... 147
Beshinchi bo‘lim. 150
Musiqiy asar ustida ishlashning eng yuqori bosqichi sifatida konsert namoyishiga tayorgarlik faoliyati..... 150
Konser dasturi namoyishida hayajonlanishning psixologik asoslari. Uni bartaraf etish usullari va uslublari 155
Mutaxassislik sinfida ta’lim va tarbiya 162
O‘qituvchining ba’zi tadqiqot ko‘nikmalarini egallashi 165
O‘qituvchining tashkilotchilik qobiliyati 170
O‘z ustida mustaqil ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari 172
Glossariy..... 185
Test savollari..... 200
Test javoblari..... 213
Foydalanilgan adabiyotlar 214

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

DURDONA

Azim

Λ ɑ[w tɑɔsɔOᵛ tʃtsʜtʃɑʃfɾʃ
tʃtsfɾʃsOɔɒɑʄ ɑɑ@Azim
DN: cn=Azim gn=Azim c=
ʊʟʙ.ʝ؟ɑʃfɾʃsOɑɑ=ʊ٦
ɬ tɑɔʃ٧ɑ[ɑɑ@ ɕ ʷɘɑɑᶻʷʁ fɾʃ Oɔlsɵtɑɑsɑʒ
ʜOɑɑɑɑɑɑtsʜtsSʟzɑʄʝɑɑɑO
ʃ ʝfɾʃsɵ:
ɾ Oɵs: 2024-10-17 10:53+05:00

www.nitropdf.com

Durdona

Ruziyev Davron Yuldashevich

KONSERT IJROCHILIGI ASOSLARI

2- KITOB: NAZARIY QISM
O’quv qo’llanma

DURDONA

Muharrir: *A. Qalandarov*
Texnik muharrir: *G. Samiyeva*
Musahhih: *Sh. Qahhorov*
Sahialovchi: *M. Bafoyeva*

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 09.09.2024. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 13,7. Adadi 100. Buyurtma №570.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45

www.nitropdf.com